

MEHMET ERJAN

# Sen mening Qalbimdasan

*Meni tushunishlarini kutgan insonlarimning  
barchasidan uzr so'rayman.*



*Taqdirimga yozilganini yashayapman,  
yozganlarimni emas.*



TOSHKENT - 2023

**UO'K: 821.512.161-3  
KBK: 84(50')  
E 73**

**Mehmet Erjan**

**Sen mening qalbimdasan [Matn] / Mehmet Erjan – Toshkent:  
BEST-BOOK, 2023 – 176 b.**

**ISBN 978–9943–9278–1–0**

**© Mehmet Erjan  
© BEST BOOK, 2023**

*Sen mening*

**QALBIMDASAN**

Mehmet Erjan

## **Mehmet Erjan**

Mardin, Qiziltepada dunyoga keldim,  
lekin ko'p qolmayman.

Bu yerlik emas, u yerlikman, takror u yerga qaytish  
uchun o'tyapman dunyodan.

Ota-onam tarafidan kurd va arab tillarini bilaman,  
lekin tillar dardimni anglatish uchun yetarli emas.  
Yozish uchundir balki...

Ichimdan o'tganlarni emas, doim ichimda  
qolganlarni yozdim.

O'tganlari bilan ishim yo'q, yo'llari ochiq bo'lsin.  
Sevgining nima ekanligini emas, nima emasligini  
yaxshi bilaman.

Sevgan narsalarimning boshida doim „sevganim“  
keladi.

Ichimda doim ketish istagi mavjud.

Axir inson ba'zi joylarga emas, ketishga ehtiyoj  
sezadi.

Ba'zida ketish uchun oyoqqa turaman, fikr-u  
xayollarim ketadi, ammo vujudim qoladi.

Hayotimni televizor, radio va sahma dasturlari  
yozish orqali yashayapman.

Yoki yo'qotayotgandirman, ishonchim komil emas.  
Taqdirimga yozilganini yashayapman,  
yozganlarimni emas.

**Meni tushunishlarini kutgan insonlarimning  
barchasidan uzr so'rayman.**



## **ISMIMNI ZABONINGDAN ESHITIB, QADAM TASHLAY OLMADIM**

Yillar so'ngra yana uchrashdik. Oradan shuncha-lik ko'p vaqt o'tganki, hatto necha yil bo'lganini ham eslay olmayman. Bir kun oldin u haqida so'z ochilsa, „yo'lda ko'rsam taniyolmayman“, deydigan darajada ko'p vaqt o'tgan edi. Bir kiyim do'konida men kichkina qizlar ko'ylagiga qo'limni uzatdim, u esa o'g'il bolalarnikiga. Hozir ham tanimagan bo'lar edim, agar o'g'lini ismim bilan chaqirmasa...

Birdan ismim eshitilgan tarafga o'girildim, ismim tilga olingan tarafga. Bilmadim, necha yil avvalgi urg'uga qaytdim. Ismimning bosh harfini undan boshqa hech kim aslo bu qadar go'zal urg'u berib ayta olmaydigan onlarga qaytdim. Yana xuddi o'sha urg'u bilan, ayni ohangda chaqirdi. „Firat“, – dedi... Mening ismim bilan o'g'liga yuzlandi...

Qo'limda qizimning qo'lini tutib turgan edim. O'zim sezmagan holda uning qo'lini qattiqroq siqdim. Bir necha yillarning ortida qolgan sevgi menga o'sha sevgini yashatgan „Dijle“ning ovozidan ismimni eshitgach, chaqmoq tezligida kelib ko'z o'ngimda gavdalandi. Teskarri tarafga o'girilgan, menin ismim qo'yilgan o'g'li tomon yuzlangan eski yaram va kaftimda bu yaraning ismini bergen qizim Dijle.

„Dijle“, – dedim istar-istamas. Qizim „Labbay, dадайон“, – der ekan, bir vaqtda teskarri tarafga qarab tur-

gan eski yaram ham ismi tilga olindi deya men tomon o'girilib „Labbay“, – dedi. Meni ko'rib darhol tanigach, boshqa hech narsa demadi... balki deya olmadi. Ayni xotira yana chaqmoq tezligida kelib bu safar uning ko'z o'ngida gavdalandi. Ko'zlarida, chuqur nafas olayotgan ko'ksida...

Labida kichik bir tabassum paydo bo'ldi. Ko'rganidan hayratlangan, sevingan, xafa bo'lgan, afsus hissini chektirgan juda kichik bir tabassum...

Uning tabassumiga ko'zimni yerga qadab, keyin qaytadan ko'zlariga qaragancha boshimni egib javob qaytardim. O'sha on hattoki uning qaysi ko'ziga qarashni ham bilmaydigan darajada shoshib qolgan edim...

“Menga endi ruxsat” deganday qo'lini ko'ksiga olib bordi. „Bir umrga ruxsat” deganday boshimni egib xayrlashdim...

Ketar ekan ismimni uning ovozidan yana bir bor eshitib sevinishimni biladiganday „Firat, o'g'lim, yura qol“, – dedi. Jumladagi Firat men edim, u nazarda tutganim esa jonidan bir parchasi...

Men ham „Qani, Dijlem, ketdik“, – dedim. Jumladagi Dijle men ortiq bir bora ham ko'rmaydigan eski, yangi, ochilmagan, yopilmaydigan yaram edi, nazarda tutganim esa menga ana o'sha yaramni aslo unuttirmagan jigarbandim, qizimdir...

*Shunday lahza keladiki, qalb yillar avvalgi  
onlarga qaytadi.*

*Va o'sha on qadamlar uchun mador qoldirmaydi...*

**Mahzunman,  
Sababi sensan, buni bilasan...**

## AHMET KAYA, YUSUF HAYALO'G'LУ VA MEN

Kecha kechasi suhbatlashib o'tirgan edik, soat ham allamahal bo'lib qolgandi. Suhbat oxirida Yusuf og'a qo'shiq xirgoyi qilishni boshladi:

"Ovutilgan bolalar allaqachon jim bo'ldi, tun yarimida faqatgina men qoldim ovutilmagan, faqatgina men".

U buni aytayotgan payti men yuzimni kaftim ichiga olib, yerga qarab o'tirgan edim. Eng oxirgi marta ovutilgan vaqtlarimni o'yladim. Yanglishmasam, onarning etagidan tutib, bozorda aylanayotgan kunlar oxirgi bor ovutilgan vaqtlarim bo'lgan edi. Undan so'ng esa yuragim siqilgan vaqtlar shunchaki yolg'ondan yelkamga qo'yilgan bir qancha qo'llar bo'ldi, shunchaki til uchida „O'tadi, o'tib ketadi“, deb qo'ydilar, bori shu.

Sigaretimdan yana bir nafas olib, ko'zimga kirgan tutunidan ko'zimni ishqalab: „Ha, Yusuf Hayalo'g'lu bo'lish oson emas“, – dedim.

Ahmet og'a gapga qo'shildi: "Yuragimda hech qanday g'uborsiz tuyg'ularim bilan qoldim, ayt, hozir sen qaydasan, men qayda? Oy ko'rinxmay oqmasin yosh ko'zimdan, ayt, hozir sen qay-dasan, men qayda?" – dedi.

"Albatta, Ahmet Kaya bo'lish ham oson emas", – dedim o'zimga o'zim.

Haqiqatan men qayerdaligimni o'yladim. Ko'rinxib turganidek, zalning o'rtasida o'tirib, tunni tongga ula-

yotgan edim. Xuddi tunning navbatchiligi yana mendadek. Ahmet og'a „Sen qayerdasan“, deganida tabiiyki, manzilni so'ramayotgandi, uning bir bilgani bor.

Bugun tongda eshitgan jumlam: „Lekin men seni sevmayman, tushunmayapsanmi?“ degan ovoz yana bir bor ichimda jarangladi, xuddi, vujudimning eng chuqur yerlaridan o'tib, jigarimni parchalayotgandek edi.

Yusuf og'a „Ayriliqning hadyasi“ni xirgoyi qilar-kan, Ahmet og'a „Kuyla, Yusuf, kuyla“, deb unga jo'rlik qildi. Qo'shiq so'zlari shunday davom etardi: “Seni boshimni devorga urmay taniy olmoq, xayolingdagilarni o'qiy olmoq...”

Go'zal shaklda boshlangan kunim hali „Lekin, men seni sevmayman!“ degan so'zlarni eshitmasimdan avval, sevganimning yuziga mehr ila qarayotgan onimda qo'shiqning xuddi shu so'zlari xayolimdan o'tgan edi. „Nimalarni o'ylayotgan ekan, hayolida nimalar bor ekan“, degan o'y ichimdan o'tayotgandi. So'ng ko'p o'tmay, dilidagini tiliga chiqardi. Meni sevmasligini shunday aytayotgandiki, har gal sevishini aytgan onlari yolg'onligini isbotlagandek edi. Ko'chaning o'rta-sida meni yaroqsiz narsadek to'kayotgandi. Xuddiki men bir jirkanch narsadek, yuragimning bir uchidan ushlab bir burchakka tashlab ketayotgandi. Yuzimga xuddi men bir aybdor odamdek qarayotgandi. Aybim bo'lsa ham mayli edi. Juda ham sevardim, hatto bu ham ortiqchalik qildi. Bu tarzda ezila-ezila tark etilishming boshqa izohi bo'lishi ham mumkin emasdi.

Ahmet og'a „Siz mening nimadan yonib-kuyganimi qayerdan ham bilar edingiz“, deganida, bu tark etilishni kimga qanday anglatishim xayolimdan o'tdi. „Bu-

ning sababini hattoki o'zim ham bilmayman hali, kim-ga nimani nima sababdan anglatishim kerak“, deb o'zimni so'roqladim.

Shu payt Yusuf og'a qo'shiq so'zlarini menga tas-kin bergandek shunday davom ettirdi:

“Mayli, nima bo'lsa bo'lsin! Bu ham mendan senga, ayirlarkan shikoyatim bo'lsin”.

Men bir necha soat oldin deb ayta oladigan darajada yaqin bir vaqtda, tanam xuddi yo'l chekkasida shoxlari kesilgan daraxt kabi tashlab ketilgandek edi, shikoyat qilishga zarracha ham imkonim yo'q edi. Har uchrashuvimizda bo'lgani kabi sevganim men tomon kelayotganini ko'rganimda, hayajondan yuragim qini-dan chiqay deyotgan bir paytda mendan aslo ortga qaytmaydigan bo'lib uzoqlashishini kuzatdim.

Ahmet og'a „Yuragimni eza-eza yonimdan yor ket-moqda“, deb qaysi payt aytdi, bunisini eslay olmayman.

Sigaretni xuddi kuldtonni teshishga harakat qil-gandek ezayotganimda o'zimga keldim. Chiroqni o'chi-rayotib, Yusuf og'a va Ahmet og'aga qaradim.

“Men endi yotaman“, dedim.

Ahmet og'a „Xayrli tun, birodarim, xayrli tun“, deb kuzatdi... Ko'ksimga qoyadek narsa o'rnatshib olgan bo'lsa ham, uplashga harakat qildim...

**Yo'l emas, men tugadim.  
Vaqt emas, men o'tdim.**

## **SENDAN ASAR HAM QOLMADI, MENDAN TASHQARI...**

Sen bilan doim uchrashadigan bog'imizning o'rni-ga sotuv markazi qurishdi. Biz yurgan piyodalar yo'-lakchasi bir hafta oldin transport vositalari harakati uchun ochildi.

Senga har hafta gul sotib oladigan do'konim o'rni-ga alkogol ichimliklari do'koni joylashdi. Men baribir gohida u yerni yo'qlab turaman, egasi hali ham o'sha odam. Sen ham taniysan. Avval hol-ahvolimni so'raydi, so'ng yana nimanidir so'ramoqchidek bo'ladi-yu, ke-yin voz kechadi. Men buni sezib turaman. Agar so'ra-sa nima ham derdim, „Ayrildik, birodar“. Shunday bo'-larmidi javobi? Bu do'kondan avvallari turli xil gullarning yoqimli ifori taralib turardi, hozir esa hamma joy qora paketlar bilan to'zigan.

Menga seni eslatadigan hamma narsaning ostiga seni ko'mib, ustiga boshqa inshootlar qurishyapti. Go'-yoki hamma narsa asta-sekin seni hayotimdan o'chi-rib bormoqda.

Otagning mebel do'koni o'rniga katta kafe ochishi-di. Endi u yerdan ham xotirjam o'tolyapman. Hattoki orqaga o'girilib ham qaramayapman. Eshigi yonidagi zinani ham tekis yer qilib qo'yishgan. Zinaning ustida o'tirishing ham endi xotiramdan o'tmaydi.

Ha aytgancha, seni bezovta qilgan bir odam bor edi-ku, doim ko'chaning boshida turadigan daydi, ana

o'shani ikki kun avval yana kaltakladim. „Bu yerlardan yo'qol“, deb haydadim. „Yaxshi“, deb ketdi. Qachon ko'chaning burchagiga burilsam, o'sha yerda edi. To'g'-ri, sen ketganingdan beri seni boshqa bezovta qilishga imkoni yo'q edi, lekin meni bezovta qilardi, seni eslatardi. Qo'lim dard ko'rmasin.

Siz yashagan bino bor-ku, uni qizil chiziqqqa kirgani sababli bir oy oldin buzib tashlashdi. Naq sakkiz kun qo'limga bir paket pistani olib qarshisidagi yo'lida o'tirdim. Boshqalar buldozer va shunga o'xshash narsalarni kuzatsa, men ustunma-ustun, g'ishtma-g'isht binoning yiqlishini, ag'darilishini, yo'q bo'lishini tomosha qilayotgan edim!

Seni eslatadigan nimaiki bor bo'lsa, hammasi bir-ma-bir butunlay boshqa narsaga aylanib bormoqda. Faqatgina bir narsa qoldi. Uning chorasini hanuz to-pa olmadim. „Bu bizning qo'shig'imiz bo'lsin“, degan qo'shig'ing bor edi-ku, u ancha oldin ommabop madaniyatga yengildi, na kafeda, na radioda chiqadi, lekin mening aqlimdan hech qachon o'chmadi, doim to'xtovsiz boshidan boshlanaveradi.

*Ismingga eng oxirgi marta taqvim  
varag'ida duch keldim.*

*Ma'nosi noto'g'ri yozilgan,  
"Bir so'z demay tark etuvchi", bo'lishi kerak edi,  
aslida. Isming xotiramdan o'chsin!*

## KO'NIK, O'TIB KETMAYDI!

Inson uchun dunyo qanday o'tkinchi narsa bo'lsa, - dunyo uchun ham inson xuddi shunday o'tkinchidir.

Berilgan umrni, taqdim etilgan vaqtini, muddatli baxtli lahzalarни yashaymiz. Yo ortda qolgan narsalarни qaytarib olishga yoki ortga boqa-boqa o'zimizni qo'lga olishga urinamiz. Kim bilan qolishni istasak, uning ko'nglida bizga joy yo'q, kimni oldimizda qolishini istasak, biz bilan qolish uchun sabab topa olmadilar.

*Ko'pincha,*

*Shunchaki xafa bo'lmadik, rasman parchalandik.*

*Shunchaki o'tirmadik, rasman cho'kdik.*

*Yig'lash qayoqda deysiz,*

*Butun borimizni fidо qildik.*

Masalan, onamizning bir kun bu dunyoni tark etishiga o'zimizni ko'ndirdik. Buni tushundik, demadim, tushunish boshqa narsa, ko'nikkidik, shunga majbur bo'ldik. Axir, hammamiz ham o'tkinchimiz.

"Oyi, bilasizmi, siz ham bir kun bu dunyoni tark etasiz", deganingni tasavvur qilib ko'r-chi, onangning yuziga, ko'ziga qarab turib.

Umrizni badal sifatida yashadik. Birgina baxtli lahma uchun minglab onlarimizni kutishga sarfladik. Buni noto'g'ri navbatda turib, bizning galimiz kelishi-

ni kutayotib tushunib yetdik. Aslida bizning galimiz kelgan edi, lekin biz kutayotganimiz to'g'ri navbat emasdi. So'ng kutishga shuncha vaqtimizni sarflab, ortga qaytishga majbur bo'ldik.

Har kuni oynada bir o'tkinchi insonni ko'ramiz. Ustiga-ustak sevgiga muhtoj yurakni ko'tarib yuribmiz. Kimsa biz uchun kurashar darajada sevmadi bizni. Qanchalik sevgan bo'lsak, hech bo'lmaganda shu qadar sevilmadik. Otsalar otilmaymiz, sotsalar xaridorimiz chiqmas.

*Xuddi shamolda to'zib uchayotgan bir paketni  
tomosha qilgandek kuzatdilar,  
qayerga borib ilinishimizni.*

*Ipi uzilib ketgan varrakka qaragandek,  
qulashimizni zavq bilan kutdilar.  
To'xtab nafas olmoqchi bo'lsak itardilar,  
yursak turtkiladilar.*

*Tushuntirishga uringanimizda eshitmadilar, jim  
bo'lganimizda esa „Nega tushuntirmayapsan?”  
dedilar...*

Holbuki, o'zimga kam, senga ko'plik qildim.

**Shunchalik yo'qmiding?**

## ONAMNING OYOQ KIYIMLARI

Balki hamma narsa onam bilan meni bir-birimizga bog'lagan, so'ngra bir-birimizdan ayirgan kindik bog'idan boshlandi. Yoki aslida hamma narsa o'shanda tugagan edi, balki.

Onamdan uzilib, go'yoki hayotga bog'landim. Buni endi tushunyapman, koshki, aksincha bo'lsa edi. Ya'ni, hayotdan uzilib, onamga bog'lansaydim. Balki shunda bu qadar azob chekmasdim. Shu yoshga keldim, lekin hech bir filtrlangan sut hali idrokim bo'limgan paytda onamning oziqlantirgani qadar oziqlantirolmadi. Hozir bo'lsa aql-idrokim bor, ammo onam yo'q. Shu yerimda, ko'krak qafasimga o'zini qayta-qayta urib, o'dirishga urinayotgan narsa bor, ammo onam yo'q.

"Onangni yo'qotdik", - dedi dadam. Hayot rangsiz, judasov uq, xuddi eshik tagida qolgandek edik.

Dadam „Onangni yo'qotdik“, deganida xuddi uymiz havoga uchib, biz tagida behuda kutayotgan eshiking o'zi qolgandek edi. Kasalxonaning o'sha menga yoqmaydigan hidiga, onamsiz yashashlik qo'rquvini ham qo'shib bir chuqur nafas oldim. Hujayralarimga singib ketgan onamning nafasiga qadar yetib borgan-dek.

Ichi onamning hidiga burkangan uyimizning eshi-gi qaytib aslo ochilmadi, ochilsa ham onamning ifori qayta taralmadi.

"Qanaqasiga bunday bo'lishi mumkin axir?!" dedim o'z-o'zimga. Mening yoshim endigina o'n oltida. Inson

o'n olti yoshida onasini yo'qotishi mumkin emas, hali erta, axir. Bilmadim, balki o'n yetti, o'n sakkiz yoki qirq bo'lishi mumkin, lekin o'n olti emas.

Men endi qanday qilib o'zimga kelaman? Onalar o'lmasligi kerak. Hech qaysi non ustiga surtilgan pomidor tomati onamning o'z qo'llari bilan tayyorlagan tomat kabi mazali bo'lmadi. Onam vafot etganidan so'ng, barcha narsa o'z ta'mini, o'z nomini, rangini va o'z ma'nosini yo'qotdi. So'ngra onamning yettisi chiqdi. Oxirgi mehmonni ham kuzatgandan so'ng, dadam qarshimdagi o'rindiqqa xuddi onamni uyiga ilk bor sovchilikka borgandek tortinib, qo'llarini qovushtirib o'tirdi. Orada bir boshini ko'tarib menga qaradi, bu safar men teskari qarab olgan edim. Yuzimda yetimlik ifodasi gavdalanim turganida, ayolini yo'qotgan erkakning azobini kuzata oladigan yoshda emasdim. Onam dadanga „umr yo'ldoshim deng, yo'ldoshim, xotin deyishingiz nimasi“, deya hazilomuz tarzda tortishganda, dadam doim o'sha mashhur jumlanı aytib, kular edi: „Men bir tog' kabiman, sen esa boshimdagi qorim“.

Tog'dek dadam yiqilib, qarshimda tep-tekis bo'lib qolgandek edi. Men esa atigi o'n olti yoshda edim.

Ertalab maktab bor, lekin onam yo'q edi.

Hech qaysi ta'lrim tizimi onasizlik  
haqida tushuntirmasdi.

Ichimdagilar tashqariga qanchalik otilmasin,  
baribir dardim zarracha ham kamaymasdi.

To'g'ri, sira ham buni vaqt emas, lekin ertaga qalbimga ishq olovi tushsa, endi men buni kimga aytib beraman, kimga ham tushuntira olardim.

Dadamga aslo. Onamga? U bor bo'lsa...

Sevgining vaqtি emasdi. Kelib eshigimni qoqsa, onam endi uyda yo'q edi. Men ham eshikni ochmayman, sevgini kechroqqa surib turaman.

"Dada", dedim bo'g'iq ovoz bilan. Holbuki „Ha o'g'-lim, desa, davomini aytishga hech qanday jumlam yo'q edi. Dadamning ustida dazmullanmagan ko'yak va men shuni tushunib yetdimki, endi hayotimizda hech narsa biz istaganchalik to'g'ri va tartibli bo'lmaydi.

"Ha o'g'lim", – dedi dadam yuzimga qaramay. „Dada, onam o'ldi", – dedim ovoz to'lqinlarimdan bir onda yuzta qush uchgandek titragan ovoz bilan.

Dadam chuqur bir nafas olgandan so'ng qo'llarini ochib: „Kel bu yerga", – dedi. Meni oldiga chaqirgani-da, xuddi onam qaytib kelishiga ishongandek yugurib bordim.

Endi yurishni boshlagan kunlarim kabi hayajon bilan yugurib bordim.

Bolaligimda ular bozordan kelishayotganini ko'r-ganimda quvonch bilan yugurganim kabi yugurib bordim.

Qo'shnining oynasini sindirib qo'yganimda eng katta jazoni dadamdan olishimga qaramay, eng yax-shi panohkor dadamligini bilgandek yugurib bordim.

O'n olti yoshida yetim qolgan bir farzandning, qo'-lini ochib „Kel bu yerga", degan otasiga yugurgani kabi yugurib bordim.

Boshimni dazmullanmagan ko'ylagining yelkasiga qo'yib, qattiq quchoqlab, baqirib-baqirib yig'ladim. O't-tiz soniyada bir olayotgan chuqur, lekin to'xtab-to'xtab chiqayotgan nafasidan tushundimki, u ham xuddi mendek ichidan ezilib yig'layotgandi.

Undan hech eshitmagan ohangimda „Mayli, o'g'-lim, mayli“ deyishdan boshqa hech narsa deya olmadidi. Mayli deya nimani nazarda tutganini bilmadim, lekin onam yetishmayotganini bilardim va bundan so'ng hayotimizda nima kamlik qilishini anglab yetgan edim. Onam o'lgandi.

Dadamning yelkasida qancha yig'lab turganimni bilmayman. Qanday uxbab qolganimni ham.

Ertalab uyg'organimda onamning yo'qligini miyamda bir dinamit portlaganday eslashim uzoqqa bor-madi.

Oshxona eshididan nonushta tayyorlashga urinayotgan dadamni biroz kuzatdim.

Stolda bir tovoq, oshxonada esa onam kamlik qilayotgandi. Hammomda bir sochiq, bir tish yuvish cho'tkasi, kir yuvish kukunining hidi va birgina onam yetishmayotgandi.

Zaldagi gullarga suv, to'rli pardaning tagida qu-yoshdan himoya qiluvchi mato, televizorda qandaydir zerikarli ko'rsatuv va bir onam kam edi.

Kalit zanjirimizda bir kalit, eshigimizning tagida bir onaning oyoq kiyimi va bir onam yo'q edi.

Uyimizning ko'cha tarafga qaragan oynasidan dadamga „Yaxshi borib kel“, menga esa „Yaxshi o'qib kel“, deydigan ovoz kamlik qilardi.

Ko'chada hol-ahvolimni so'ragan qo'shnilar o'zim-ga yaxshi qarashimni tayinlashardi, lekin yo'llagan salomlarida bir inson yo'q edi.

\* \* \*

Oradan necha oy o'tdi bilmayman. Bir kuni dadam bilan televizorga shunchaki tikilib o'tirganimizda, bir-

dan ko'zim biri ikkinchisining ustida turgan onamning oyoq kiyimlariga tushdi.

"Dada, shu oyoq kiyimlarni menga otib yuboring", – dedim. „Lekin men onangdek otolmayman-ku, ushlay olmaysan“, – dedi yarim tabassum va yaqqol sezilib turgan huzun bilan.

O'sha oyoq kiyimlarga bir necha haftalardan beri tegmaganimizni bilaman. Onam ularni shunday ustma-ust qoldirgan edi.

*Doim yo'qotib qo'ygan narsalarimning joyini  
faqatgina onam bilar edi.*

*Bu safar o'zimni yo'qotdim, lekin endi onam yo'q.*

Tirnoqlarimni onam olib qo'yadigan kunlar...  
Boshqa hech qanday sog'inchim  
yo'q bu dunyoga doir...

## **SEN VA SEVGI O'RTASIDA QOLGACH, SEVGINI TANLADIM**

Afsusdaman, qalbimning topa olgan bahonasi shu qadar. Seni sevish uchun hattoki meni chetlab o'tdi. Seni sevishimni aytishning qirq usulini bilmayman, faqatgina bittasini bilaman va buni aytishdan hech qachon voz kechmadim, takror-takror aytaman: „Seni sevaman”.

Seni sevishim senga kamlik qilayotganini da'vo qiladigan bo'lsang, adashasan, sevgim kam emas, sen ortiqhasan. Sevgining na nazariyasini o'qidim, na oldindan tayyorgarlik ko'rdim. Otalarimda kelgan bir odantning timsoliga burkandim. „Ko'z ko'rdi, ko'ngil sevdi...“

Senga yetarli bo'l maganimni o'ylayotgan bo'lsang, ortiqcha o'ylama. Sen qanday sevilishni xohlayotganningni qoidalar tarzida bir ro'yxat tuz va o'shangabuyurtma ber. Lekin buyurtmangni qabul qilgan odam men bo'lmayman, chunki mendagi sevgi ham qalbim zaxirasi bilan chegaralangan. Ichimda nimaiki bor bo'lsa, barchasini qo'lingga topshirdim.

Senga bularni anglatishga uringan ilk jumlamni „Afsusdaman”, deb boshlagan edim, lekin voz kechdim.

Bir inson qanchalik seva olsa, seni shunchalik sevdim, buning uchun afsusda emasman.

Endi esa seni shu qadar sevgan insonni yo'qotding, buning uchun sen afsuslan.

Seni qanchalik sevganimni so'roqlashni qo'yib tur,  
Sen buning qanchasiga loyiqsan, shu haqda o'yla!

**Qalbim atalmish narsa qayerda bo'lsa,  
U o'sha yerning qoq markazida edi.  
Holbuki, ketish uchun kelgan ekan,  
qalbimni parchalash uchun tashrif  
buyurgan ekan, u yerga.**

## SEVGINING YAROQLILIK MUDDATI YO'Q

Har kim o'z vazifasini bajardi. Menga yuklangan vazifa seni sevish edi, senga esa sevilish. Go'yoki yuragim faqat seni sevish uchun yaratilgandek senga talpinarkan, meni sevmaganing hayotning yuzimga xudi tarsaki tushirib „Syurpriz“, deya baqirishi kabi edi.

Bir insonning boshqa bir insonga bu oxirgisi deya bera oladigan qancha imkonibor bo'lsa, uning barchasini senga sarflab yubordim.

Buni xohlasang saxiylik deb ata, xohlasang qimor. Imkon atalmish nimaiki bo'lsa, bila turib, barchasini tugatdim. Bularga loyiq emasding, buni tushundim, lekin ko'nglimning ra'yini qaytara olmasdim.

Seni sevish emas, „sevish“ bunga loyiq edi. Sevgi ni mani talab qilsa, barchasiga rozi bo'ldim.

Yaxshi, so'ng qo'limda nima qoldi? Hech narsa!

Oradan shuncha vaqt o'tdi, sen esa kelib mendan „Hali ham meni sevasanmi?“ deb so'rayapsan.

Men sendan voz kechdim, seni sevishdan emas.

Sevgining yaroqlilik muddati mavjud emas, lekin seniki mavjud.

Meni tark etgan kuning sevgimning oxirgi muddati o'tgan.

Meni sen tufayli telbaga aylangan yurak bilan yolg'iz qoldirib ketding, ammo sen ochgan bo'shliqni o'zim bilan to'ldira oldim.

Senda ko'nglim bor, ammo menda senga o'rin yo'q. O'sha kun yuragimni olib, bir chetga yashirindim.

"Qanday go'zal sevding", dedim yuragimga tabasum bilan.

Sen haqingda gapirdim deya urish tezligi o'zgardi odatdagidek.

"Mayli, qalbim, mayli, hammasi o'tdi", dedim. „O'tdi, o'tib ketadi..."

Tushunishing kerak bo'lgani shu:

***"Men sen uchun doim bir xilman, o'ylashimcha boshqa tomonlarimni qidirishingning keragi yo'q".***



**Senga doir eslashim kerak bo'lgan yagona narsa:  
Seni unutishim kerakligi.**

## MENGA EMAS, BIZGA ISHONMADING

Ichidagi marhumi noma'lum bo'lgan qabrnning boshiba duo qilayotganlar kabi edik go'yo sen bilan. Se-nin tilaging nima edi bilmadim-u, lekin menin sendan boshqa bir tilagim yo'q edi. Allohdan seni so'ranganimchalik o'zimni so'ramadim. O'zimga senga ber-ganim qadar e'tibor bermadim.

Men uchun koinotda boshi silanmagan bir yetim ham, yordamga muhtoj birgina inson ham qolmasligi kerak edi. Kimning nimaga ehtiyoji bo'lsa, barchasini qondirishga tayyor edim. Mening yagona orzum ushalihi uchun barcha orzularni amalga oshirishga tayyor edim.

Mening yagona orzum sen eding, shuning uchun barcha daraxtlarni turfa rangdagi mato bo'laklari bilan bog'lab bezata olardim. Har duomning so'ngida „omin“ deya qo'llarimni yuzimga olib borganim sen eding. Men butun qalbim bilan seni so'rар ekanman, sen mendan ketding. O'zimni ovuta olishim uchun arzirli bir dona sabab ham qoldirmay ketding. Har gal uyquga ketishimdan oldin aqlimda gavdalanasan va uyqumni o'g'irlaysan. G'azabga doir nimaiki bo'lsa, ismingning yoniga mosladim, shuni bil. Menda senga tegishli qolgan nima bor bo'lsa, har kuni oz-ozdan barchasini o'ldirmoqdamon. Qayerga ketganiningni bilmayman, lekin kelgan nuqtamda men ichida qolgan tuyg'u va so'rashdan aslo voz kechmagan savolim shu:

Men seni yo'qotganimdan so'ng, o'zimni ham qayta topa olmadim.

Sen nimani topish evaziga meni yo'qotding, juda ham qiziqyapman.

Kim bilsin, balki yo'qotishlar meni ham yo'qotib bormoqda.

Holbuki, men o'z jonimga qasd qilish yoqasiga ham bismillahsiz qadam bosmadim. Jonimga qasd etolmay qoldim, lekin bismillahsiz qolmadim. O'ylab ko'rish uchun nimaiki bo'lsa, barchasini ikir-chikirigacha o'y-ladim.

Seni o'yladim. O'rningga qo'ya olishim uchun hech kimsam yo'q. Yo'qligingda mening ham borligim sezilmas darajada sukut saqlayapman.

Va nihoyat, eng so'nggi xavotirimni ham bir chetga uloqtirdim. Aytganingdek, ko'z yoshlarimda birgina kamalak kamlik qiladi. Unutdingmi sevgilim, men ranglarni emas, aksincha ranglar meni ko'rishga ojiz.

Tilingda ismimga ma'no qo'shgan bir zabonni top-gan edim. Hozir esa sen qayerda kimga nimani ayt-sang, meni inkor qilyapsan. Afsusdaman, sendan boshqa hech kimim yo'q ranjishga. Endi na men seni tushu-nishga harakat qilay, na sen meni tushun.

*Hayotimga mo'jiza kabi kirib kelgan nimaiki bo'lsa,  
barchasi sen eding.  
Buni ketganingda farqlab yetdim.*

Ketganingga ishonsam,  
qaytishingni kutgan bo'lardim.  
**Lekin necha ming soatdan beri yo'qsan,**  
yoddan bilaman.  
Sanadim, ishon.

## MEN SENI SEVARDIM, SEN BOSHQASINI

Inson o'zidagi barcha bo'shliqlarni boshqasi to'l-dira olishiga o'zini ishontiradi. Hammada shunday holatmi bilmadim-u, lekin menda senga qarshi his etgan tuyg'umning eng yaqin ma'nosi shu edi. Nimani keyingga qoldirsam, go'yoki bajarmoqchi bo'lgan kunim sen eding. Hayotga doir kutayotgan nimam bo'lsa, sen kel-ganiningdan keyin boshlaydigandek edi. Barcha orzu-xayollarimning negizi sen eding va men ichida sen mavjud bo'lgan bir dunyo barpo etayotgandim. Lekin bularning hech biridan sening xabaring yo'q edi. Xabaring bo'lмаган narsalarning eng boshida men tur-gandim.

Hattoki mendan ham xabaring yo'q edi.

Sen mening yuzimga, sochimga, qo'limga tegishing bir chetda tursin, shunchaki ismingni eshitganda ichimda paydo bo'ladigan hayajondan ko'pincha naf-ratlandim. O'z nazoratimni yo'qtogandim, menga oid bo'lgan barcha narsalarning yo'qolishi isming yang-rashi bilan bog'liq edi. Yana sen har gal yonimdan o't-ganiningda ham shunday holat yuz berardi.

Sen ko'chamizdan tantanali yurishdek nozlanib o't-ganiningda, seni menga ko'rsatib „Qara, seniki o'tyapti“, deyishardi. Men o'sha on nima qilayotgan bo'lsam ham qilayotgan ishimni tashlar, biror kim bilan gaplashayotgan bo'lsam aljirar, biron-bir narsani gapirib bera-yotgan bo'lsam, aytganlarimga o'zim ham ishonmas holga kelardim. Lekin sening bulardan xabaring yo'q

edi. Ya'ni menga seni „seniki“ deb aytishlaridan xabar ring yo'q edi.

Kimniki ekanliginingni bilmadim-u, lekin meniki emasliging kunday ravshan edi. Katta ehtimol bilan meniki bo'lmas eding. E'tibor ber, meniki bo'la olmasliging demadim, istasang bo'lising mumkin edi.

**Mening ichimdan o'tgan hislar shu.**

**Menga sen haqingda gapirishganida „seniki“  
deya xitob qilishardi,**

**lekin ular bilmagan ikki narsa bor edi:  
Birinchisi sabab shuki, sen „meniki“ bo'lmasding,  
men buni bilardim, his qillardim.**

**Ikkinchisi esa sen meniki emas, men seniki edim.  
Men shu darajada senga tegishli edimki,  
na o'zimniki bo'la olardim, na boshqaniki.**

Sen bilan uchrashadigan ilk kunimiz uchun qirq marotaba tayyorgarlik ko'rdim. Manzarasi sen bo'lising uchun qirq xil joy qidirdim. Sen bilan uchrashadigan tongim uchun qirq kecha sanadim. To'yimizda kelmasa bo'lmaydiganlardan qirqtasining ismini sana dim. Qirqqa ko'paytirib yana nimalarni o'yladim bil madim-u, lekin men hisobga olmadim. Buni ham bir kuni tongda sen yana ko'chamizni go'zalikka burkab o'taytganingda, avval ortingdan senga, so'ng yuzimga qarab aytdilar:

**"Boshqasini sevadi", dedilar.**

**Naqadar osonlik bilan aytidilar.**

**Qanday qilib bunchalik oson aytishlari mumkin?**

**Shunchaki yerga qarab:**

**"Xayrlisi bo'lsin", dedim...**

Bir kun yana qarshilashamiz,  
Tilimizga o'rnashgan boshqa ismlar,  
Ichimizda izi qolgan bo'shliqlarimiz bilan.  
“Nima ham bo'lsin, yaxshiman”, deya  
boshlaymiz va yakunlaymiz,  
Yolg'on bilan...

## **MEN SENGA MISLI UMMON EDIM, SENI ISHQIM-LA QURSHAB OLDIM...**

Hozir yopiq eshikning orti qadar sukul saqlamoqdamani. Bilmayman, qachondan beri na qo'ng'i-roqni chalgan bor, na taqillatgan va na ziyyaratga kelgan. Vujudim yuz yillardan beri hech kim xabar olmagandek sukul saqlar ekan, eshigimdag'i eng oxirgi iz seniki edi. Eshikning oldida yolvorishlarim, ko'z yoshlari, sen meni tashlab yangi hayotga qadam qo'yib ketganining, mening esa qolgan joyimda ado bo'lganim muhrlanib qolgan. Sen barcha qiyinchiliklarni menga qoldirib, oyoq tirab, meni qo'llaring bilan itarding...

Bilgan yagona tilim bilan senga ichimdagilarni ming xil usulda tushuntirishga urinib ko'rdim, lekin sen bir marta ham ortingga boqib, meni tinglamading. Men senga ishongan edim, sensiz qoladigan kunim haqida bir bora ham o'ylab ko'rmadim, unday kun uchun rejalar tuzmadim. Hozir noma'lum bir shaharning vokzalida, hammaning yuzida bir begonaligimning ifodasini ko'rayotgandek, qayerga ketishini bilmayotgan biriman. Hozir men bir dona jumlasini ham tushunmaydigan o'lkada seni kimdan so'rash kerakligini bilmaydigan hadikli va qo'rkoqman.

Senga bitib ketgan yaralarim bilan kelmagan edim. Ko'z o'ngingda ular qonardi. Sirli qolgan hech qanday tarafim yo'q edi, barchasi xonangga tushgan quyosh-dek ochiq edi. Mening sirim yo'q edi, barcha rejalarim-

ni sendan oldingi hayotimda qoldirib, ikkimizga doir kelajak hayotni sening qo'llaringga topshirgandim. Aqlim yo'q edi, sening ikkimizga doir har qanday fikring men uchun juda muhim deb hisoblardim. Tajribam yo'q edi, sening menga har boqishing mo'jizaviy hodisadan farqsiz deb bilardim. Hech kimim yo'q edi, sendan tashqari hammani o'zimga yetti yet begonadek his qilardim.

Ko'ksing uyim, tizzang yostig'im, qo'llaring esa meni hayotga bog'lab turuvchi tutqichim edi. Men kaftlaring qadar dunyoga rozi bo'la turib, sochingning bir tolasini ham yerga tushirmay seni asrarkanman, „Men endi seni sevmayman“ jumlasiga butun vujudimni zindonband qilib ketding.

*Na sen qolding, na men ketdim.*

*Zaboning alifbom, ko'zlarining esa ruhimning  
butunlay boshqa bir dunyoga ochilgan derazasi edi.*

*Harfi tushib qolgan kalimadek o'rtada qoldim.  
Tanni alohida, jonni alohida kurashar holda  
tashlab ketding.*

**Men uchun nafas eding,  
Endi boshqasiga kimsan,  
Meni qiziqtirmaydi...**

## MENI SINDIRGAN JOYINGDAN TO'KILISHINGNI TILAYMAN!

Menga „Ahvollaring qalay?” deya savol berganlari-da asl qiziqayotgan kishilari men emasligimni bilar-dim.

Sen eding!

Menga sezdirmay solinayotgan nazarlarning, meni ko'rishlari bilan boshlanadigan pichir-pichir g'iybatla-rining sababi ham men emasdum.

Sen eding!

Men bilan suhbatlashayotganlar qaysi mavzuda ga-pirishsa ham, gaplarining orasida yashiringan „ham-dardlik”ni sezib turardim. Xafa bo'lmasligimni istash-larining sababi ham sen eding!

Meni sevishingni maqtana-maqtana ovoza qilgan onlarimning sababchisi sen eding, haqsiz bo'lib chiq-qanimning sababi ham sensan!

“Ko'rgan-eshitganlarga nima deyman?” degan xayol hech qachon xayolimdan o'tmadim, lekin buni mening yelkamga yuklagan ham sen eding!

Haqiqatan ham qiziqyapman, hech o'ylab ko'rding-mi? Ko'rgan-eshitganlarga nima deb javob beraman?!

Meni sevmaganiningni aytishga tilim bormaydi, „To'x-ta, ketma”, deya qo'lingdan tutishga qo'lim bormadi, ortingdan borishga esa oyog'im...

Hali ham insonlar orasiga qo'shilyapman, lekin ichimda insoniylikka doir yagona umidni ham yo'qqa chiqarding.

Borliging sababli sevgiga bo'lgan barcha ishon-chimni va da'veomni yer bilan bir qilgan ham yana sen bo'lning. Mening yashashga majolim yo'q, lekin sen ham qayerlardadir sevgi haqida so'zlasha olishga yuzing bor deb o'ylamayman.

Boshqalarni qo'yib tur, hattoki oynaga qaraganimda, o'zimning oldimda ham meni xijolatda qoldirding!

"Senga fido bo'lsin", deganlarim hozir hayotimdan o'g'irlangandek his qilyapman. Har bir onim sen eding, hozir bo'lsa sen bilan o'tgan bir soniyamni ham qaytarib olish imkonim yo'q.

Ilgichda qoldirgan narsang men emas, hayotim edi.

Tilimga „koshki“ deya ayta oladigan ikki jumlam muhrlangan, ikkisida ham isming ta'kidlangan.

"Koshki, seni avvalroq tanisam edi", jumlasida ochiqcha ta'kidlangan inson sensan, „Koshki, hech qachon tanimasam edi", jumlasidagi yashirin inson ham sensan!

Meni sindirgan yeringdan to'kilishingni tilayman! Lekin bu bir qarg'ish emas, sevgining adolatiga bo'lgan ishonchim. Yashayotganimni hayot deb o'ylama! Hayot deb bilganim sen eding, hayotimning sababi ham sen bo'lning!

*Qayerlarda kim bilan yangi sevgi tomon  
yelkan ochsang,  
shamollarining butkul teskari harakatlansin!*

**“SHU YERDA QON O’RNIGA HUZUN  
ISHLAB CHIQARAYOTGAN NARSA BOR EKAN,  
AYRILISH NIMA DEGANI?” – DEDI.  
JAVOB BERA OLMADIM...”**

Jalol og'a uyning eshigi oldida o'tirib, ko'chani tomosha qiladigan odam emasdi. U bizga o'xshamasdi. Biz ko'pincha do'stlarimiz bilan eshikning tagida shunchaki suhbatlashib o'tirardik. Jalol og'a esa yo oqshom vaqtি ishdan qaytar, yoki tongda „Xayrli kun, yoshlar“, deb yana ishga ketardi. U qadar ko'p gaplashmasdi ham. Qachon nima desak ishonardi. O'ttiz besh yoshlariда hayoti doimiy bahordek, kelishgan, baxtli odam edi.

Bir oqshom eshik oldida bir o'zim o'tirgan edim, o'sha payt yonimga Jalol og'a keldi. Uni ko'rib darhol o'rnimdan turib, salom berdim. Yuzimga qaramay, qo'lini yelkamga qo'yib salomimga alik oldi. Ichkariga taklif qilsam, kirmadi. Men turgan yerga o'tirib, ko'chaning bir o'ngiga, bir chapiga nazar soldi. Men hayron edim. Eshik tagida bunday o'tirish uning qiladigan ishi emasdi. Biron nima deyishga majburdek, o'ylamasdan „Ahvollarining qalay, yaxshimisiz?“ – deya savol berdim.

Jalol og'a bir qizni sevardi, hammamiz bilardik, lekin uning kimligini hech qaysi birimiz so'ramasdik. Zotan tengdoshimiz bo'lmagani uchun so'rash bizning vazifamiz emasdi, bizga uning kimni sevishidan ko'ra

bir insonni chindan seva olishi qiziqroq tuyilardi. Men buni ta'riflay olmasligimning sababini bilmayman, lekin u bir insonni sevishning eng go'zal ko'rinishini o'zida yaqqol namoyon qilardi, yuzi, kiyimlari, harakatlarida sevgining eng go'zal shakli ko'rinib turardi.

"Yaxshiman, birodar, yaxshiman", – deya javob berdi savolimga.

Odatda, u yaxshiligini ikki marta aytmay, „Sizlar qandaysiz?“ – deya so'rardi, lekin bu safar yaxshiligini ikki marta ta'kidlab, mening ahvolimni so'ramadi ham.

Bu tafsilotmi, bilmayman-u, lekin yonimga kelib, eshik tagiga o'tirishidan va bergen javobidan ba'zi narsalar chappasiga ketganini tushundim.

Pistadan keyin qoladigan tuzning ta'mini labimdan tozalagandek labimni yalab, tik oyoqda turgancha Jalol og'ani kuzatib turaverdim. Buni sezdi. Yana yuzimga qaramay „Kel o'tir“, dedi o'ng qo'li bilan yon tarafini ishora qilib. O'tirdim. Yuzimga qaramay, barmoqlarini bir-birining orasiga kirgazgan qo'liga qarab, so'zga kirdi:

"Yetarlicha yog'gan yomg'irni jala deyishadi. Bahorda peshin vaqtidagi quyosh suyaklarga foydali deyishadi. Yomg'ir haddan ziyod yog'sa selga aylanadi, Xudo saqlasin. Avgustda tepalikka chiqqan odamni quyosh uradi. Haddan ziyod yesang, oshqozoningga og'irlik qiladi. Seni xush ko'rishadigan yerga juda ko'p borsang, e'tibordan qolasan. Telbalarcha qahqaha otib kulsang, og'irliliklaring o'tib ketadi".

Shu vaqt uning yuziga qarab turishim kerakmidi, yoki unga o'xshab qo'llarimgami, bilmay qoldim, xuddi nima deyishimni bilolmay qolganim kabi. Baribir ga-

pirishga majburdek gapga qo'shildim. Xayolimdan o'tgan birinchi savolni berdim:

"Ayrildingizmi, og'a?"

Tabassum bilan yuzimga qayrildi:

"Ayrilishmi? Ayrilish nima ekan? – Qo'lini yuragiga qo'ydi: – Qara, shu yerda bir nima bor, qon ishlab chiqaryaptimi, huzunmi, aniq emas. Lekin bu shu yerda turar ekan, ayrilish qayoqda?" – dedi va o'rnidan turdi. U turganidan keyin men ham o'rnimdan turdim.

Yo'nalishini binoning eshigi tomonga burdi va:

"Sevishdan to'xtama, go'zal tarzda sev, samimiy tarzda sev, pok tarzda sev, lekin hech qachon haddan ziyod sevma. Buni aslo unutma, o'z me'yori bilan sev", – dedi.

Nima deyishimni bilmay qolganimdan shunchaki „Og'a", – deya oldim xolos.

"Janer Yamanning ham kitobida aytganidek, go'zal yengildik", – dedi...

O'sha kundan keyin na men undan biron narsa so'ray oldim va na uning o'zi bu mavzuda bir og'iz gapirdi.

Bir oydan so'ng u ashylari ortilgan yuk mashi-nasining ortidan o'z mashinasiga minayotganida men-ga qarab: „Omon bo'l", – dedi va shundan keyin uni qaytib ko'rmadim.

Ortidan bino eshigi tagida bir sevgi, bir dard va o'z xotirasini qoldirib ketdi.

*Ba'zi insonlarga sevgi, ba'zi sevgilarga  
esa inson yarashadi...*

"O'tib ketadi" deyishdi,

“Nima qizig'i bor“, dedim.  
Uning yo'qligi mening boyligimdir.  
Qayg'uga parvo qilmayman.

## MENING „MEHRIBONIM“ SENSAN

Qo'shiqda aytiganidek sariq rangli bo'lmasa ham, sochlaringga mening ham telba ko'nglim bog'langan edi.

"Ayriliqdan og'ir ko'rma o'limni", deya bu qo'shiq so'zlari tunimni faryod-u fig'onga aylantirarkan, hayotning bir chekkasiga chiqib qolgandek edim. Hech kim payqamaydigan, ovozi chiqmaydigan, chiqsa-da, sira eshitilmaydigan ham men edim...

Seni bo'yningda kezayotgan bir necha tola sochingdan qanchalik qizg'anganimni tasavvur ham qila olmaysan.

Bilaman, bir kuni quloqlarimga xuddi qora xabar-dek chalinasan. Ko'ngil saroyimni vayron qilib, o'zingni o'zgalarga fido qilasan.

Ortiq hech qachon seni sevishimni aytganimda nafasim qulog'ingga tegmaydi, lekin qorong'i tun meni yaxshi taniydi.

Sevgi deya har joyga faqat seni yozdim: „Mening Mehribonim sensan”.

Men seni yor deya yozarkanman, so'zlarimni unutish u yoqda tursin, qo'limdag'i qalamlarim sinib ketadi. Aqlim esa sendan boshqasini ko'ra olmagan ko'zlarimga hayron.

Shoir Abdurahim Karakoch lampadagi olovningsovqotayotganini isbotlab yozibdi, holbuki, men faqat sen uchun yonganimni sen hech qachon anglay olmay-

san. Sevgini qog'ozga yozib bo'lмаганидек, мен ham yozilmagan ekanman.

Taqdirimning matnini harfma-harf o'qib ko'rdim, lekin sening ismingni topa olmadim. Hududi chegaralanmagan yagona narsa mening senga bo'lgan sevgim edi, lekin „Har ishning bir yakuni bor“ satridagi yakin topgan narsa men bo'ldim. Sen bilan hech narsani boshlab ulgurmay, tamom bo'ldim. Kimni nega, qanday sabab bilan sevasan, bilmayman. Shu sababli yo'-lim ayni tabiblarga tushadi va mening yaramga ham davo topa olmaydilar.

Men sevgi deganda doim seni tushundim va undan ko'prog'ini bilishga urinmadim ham.

Hozir nafasing kimning yuzini silayapti, na bila-man, na bilishni xohlayman.

Balki o'sha qo'shiq ikkingizning qo'shig'ingizga ay-lanar...

Balki tizzangda boshining izi qolar...

Men senga sevishimni aytishdan to'xtaganimdan keyin, boshqasini sevishimni o'ylab ham o'tirma, men-da hatto yashash uchun nafasim ham qolmaydi.

Sen buni bilmasang ham, hech qachon tushunmasang ham, „Mening Mehribonim sensan...“

*Mehribonning o'ziga yozgan maktublarini  
"Yosh qizning uyiga maktub yubora olmaysan,  
bu uyat", deganlariga qaramay, uning uchun  
she'rlar yozgan va ularni Mehribon o'qisin, deya  
gazetalarda chop ettirgan Abdurahim Karakoch...  
Joyingiz jannatda bo'lsin, ustoz...*

**Sendan hech qanday talabim bo'lmasa,  
Seni sevishimning sen bilan hech  
qanday aloqasi yo'q.**

**MING BOR RANJIGAN BO'LSAM-DA,  
BIR BORA HAM RANJITGAN  
BO'L MADIM**

Aslida, haq edim, lekin bu yetmadi. Qarshingizda sizni „Balki, u haqlidir“, deb o'ylab ozgina bo'lsa ham tinglay oladigan inson bo'lmas ekan, haqlilicingizdan hech qanday ma'no yo'q. Bunga to'liq ishonchim komil edi, shu sababli sukutni tanladim. Nohaq bo'l ganidan emas, o'zimni oqlashga urinsam ham, gapim tuggaganidan keyin yana haqsizga chiqarishga uringanlari uchun gapirmadim.

Bu qo'rqish emasdi. Eziklik bu o'zingga ishonch-sizlik emas, qarshimdagи sevgan insonim edi. Bu do'st ham bo'lishi mumkin, sevgili ham, o'rtada bir xil tuy-g'ular ila oziqlangan rishta bor edi. Shuncha yillik baxtli, qayg'uli o'tgan lahzalarning xotirasi bor edi. Aynan mana shu xotiralarning borligi sababli suknatni tanladim.

Inson gapirishdan ko'ra ko'proq jim bo'lishni istayotgan bo'lsa, muloqot qilishni bilmaganidan emas, ranjitmaslik va yanada ko'proq ranjimaslik uchundir.

Men uchragan nohaqlik kunday ravshan ekan, yuziga boqdim. U hali ham jon holatda o'zini oqlashga urinayotgan vaqt, men o'tmishimizga nazar soldim, muhtasham kunlarimizga. Dardga cho'kkon, qayg'uga botgan, baxtdan osmonlarga uchgan kunlarimiz hayolimdan o'tdi. Ko'zlarining ichiga boqib, o'tmishimiz-

dan uni qutqarish uchun arzirli sabablar qidirdim, xuddi bag'rimga bosish uchun biron narsa qidirgan-dek harakat qildim. Topdim ham. Lekin topganlarimni hozir unga eslatishim meni yanada ko'proq ozorlashi-ga sabab bo'lishi mumkin edi. Shuning uchun ham ayt-a olmadim.

Xayolimdan shu yerda hozir ikkimizdan birimiz o'lishimiz bir lahzaga o'tdi. Bu tilak emas, lekin ehti-mol edi. Men o'lsam-ku, g'am yemayman, ammo qar-shimdag'i sevgan insonim... U o'lsa men uchun yasha-shning hech qanday ma'nosi qolmasdi. U o'zi sez-magan holda juda qattiq ozor beruvchi va alamli edi, lekin ikkimizdan birimiz bu holatni o'ylashga majbur edik. Hech qanday narsa sevgan insoningni qalbini ya-rashga arzimaydi, degan tushunchaga o'zimni ishon-tirish uchun harakat qildim aslida haq bo'lsam ham.

Shunchalik baqirayotgan ediki, ortiq gapirayot-gan gaplarini emas, faqatgina ovozini eshitayotgan-dim. Barmoqlarimni birlashtirib, siqishni boshladim. Tilimni tanglayimga bosib, indamay turdim. Qo'lla-rimni siqdim, tilimni tiydim, tishimni tishimga qo'y-dim, lekin umuman og'zimni ochmadim. Ochsam, og'-zimdan chiqadigan so'zlarning asiri bo'lishdan, uning qalbini parchalab tashlab ketishdan qo'rqedim.

Dunyodagi hech qanday narsa nafaqat sevgani-ngizni, atrofingizda boshqa insonlarning qalbini yara-lashga ham arzimasligiga ishongan edim, shu ishon-chim bilan kutishga, sabr qilishga harakat qildim.

*G'azabimga erk bersam, unga zayar berishga  
ko'zim qiymasdi, lekin tashlab ketardim.*

*Ketsam, aslo qaytib kelmasdim.*

*"Inson o'zi seva olishi mumkin bo'lgan  
insoniga osonlikcha duch kelmaydi",  
deya jim bo'ldim va ketmadim.*

*Haqli bo'lgani uchun emas,  
xotiri bo'lgani uchun jim bo'ldim.*

## **Hech o'rgata olmadim...**

“Zaryadka” emas, „quvvatlantirgich“ deyishi kerakligini,

“Haliyam” emas, „hali ham“ deyishi kerakligini,

“Meni sevasanmi?” emas, „Seni sevaman“ deyishi kerakligini...

Hech qaysi birini to'g'ri ayta olmadi...

*Kim bilsin, balki sevgiga oid to'g'ri bo'lgan  
qanday jumlalar bo'lsa, barchasini  
boshqasiga aytayotgandir.*

*Garchi, o'sha boshqasi ham noto'g'ri,  
to'g'risi esa men edim.*

## MENI HECH QACHON SEVMADI, SEVSA BU QADAR YERGA URMASDI

Tug'ilganimdan bugunga qadar hamda ehtimolan so'ngi nafasimga qadar tanlay olmagan har narsam o'rninga seni tanladim.

Aqlim va qalbim bilan kelishgan holda qilgan qarorimning javobi bo'lishingni va buni sen tarafdan ham qabul qilinishini istadim. Hayotimda ilk bora, balki so'nggisidir.

"Ko'zim ko'rdi, qalbim sevdi, yurak urishim jonlandi va men xohladim", deya oladigan barcha tuyg'ularimning javobi sen bo'lishingni istadim.

Ko'p odamlar va rasmiy kishilar, shu jumladan, qarindoshlarim qachon qanday ishlarni qilishim kerakligi haqida qaror qabul qilishar ekan, men ilk bor „Bu mening hayotim“, deya seni jumladagi va hayotimdagи „hayotim“ bo'lishingni, seni shunday ko'rishni va sevishni istadim. Sevdim ham.

Seni sevish uchun hamma narsaga tayyor edim, lekin sen yo'q eding.

Balki sen ham xuddi mendek sharoitda yashaganing uchun, o'z hayotingga bog'liq qarorlarning hech birining egasi sen bo'limganining uchun, sen ham hayotingda ilk bor o'zingga oid bir qarorni qabul qilding va lekin o'sha qarorning men bilan hech qanday aloqasi yo'q edi.

Sevmading meni.

Insonlar sevgining sababini so'raydi, lekin yurakning hech qanday sabab bilan ishi yo'q. Meni sevma ding. Bu men uchun biroz og'ir bo'lса-da, lekin achchiq haqiqat. Shu sababli aybdor sen emassan. Men ham emasman. O'rtada hech qanday ayb ham yo'q.

Lekin sevmaslikning so'nggi darajasini ko'rsata oлding. Haqqing qolib ketmadi. Zarracha ham umid ber masdan yashading. Ko'zлaringda menga oid, hech qanday tuyg'uni taqdim etmading. Meni zaboningdan chiq qan hech bir so'zning ma'nosiga aylantirmading.

Inson hattoki boshqa ko'r maydigan bir do'kon so-tuvchisiga ham odat bo'lib qolganidan „Ko'rishguncha“, deb ketadi. Menga hatto buni ham ayt mading.

Hayotimda hech qachon bu qadar sevilmaganim ni eslay olmayman.

*Haqqiningni yemayman.*

*Meni sevmaslikni eng a'lo darajada bajarding.*

## **BERADIGAN E'TIBORINGIZ SHU BO'LSA, OVORA BO'L MAY QO'YA QOLING!**

Insonlarning hech qanday ishiga yaramay qolganidan so'ng, o'zgarganiningni aytishadi.

Masalan, telbalarcha sevishdan voz kechganingda. „Sen avvallari bunday emasding“, jumlesi eng ko'p eshitadigan so'zlaringga aylanadi. Jumlada aytilgan „bunday“ so'zi sening aslida o'zingga kelganligingdir. Oyoqqa turganliging va yangi qarorlarni qabul qilganligingdir.

Uzatgan qo'ling doimo bo'sh qaytaverganidan keyin qo'llaringni ko'ksingga qo'ysan. Uzatilgan qo'llaringni ko'rmaydilar, biroq „bunday emasding“, deyidilar.

Ichingdagi barcha g'uborlaringni ko'z yoshlaring bilan yuvasan, yig'layotganingda yoningda bo'lmaydilar, to'kayotgan ko'z yoshlaringni hech kim ko'rmaydi. Hech kimni eng insonparvar holatingga guvoh qila olmaysan, ular hech narsani tushunishmaydi, faqatgina „bunday emasding“, deyishadi.

Hayotdan o'zingga himoya qilishga urinib, bir chetga chekinasan. Ringni tark etib, musobaqadan chetlashasan, o'zing uchun yangi bir yo'l yaratasan, hech kim mavjud bo'limgan bir yo'l. So'ngra „Bunday emasding“, deydilar.

Ruhiyatning uchun yangi holat yaratasan, hayot seni bir „yangilik“ka majbur qiladi.

Tayyor tur. Eng ko'p yo'qotgan narsang o'zligi-ni anglab, uni qidirish uchun yo'lga chiqqaningda, yoningda hech kimni topa olmaysan.

*Insoniylikdan yiroqlashishing uchun qo'llaridan  
kelgan barcha ishni qilishadi.  
So'ng esa „Sen bunday inson emasding“,  
deb aytishadi...*

**Shunaqangi joyga ketgim kelyaptiki,  
borgan yerimda hattoki o'zim ham bo'lmay.**

## BARCHA YAQINLARIM, MENDAN UZOQ TURING!

Aslida men beqaror inson emasman, aksincha, meni sizga shunday ko'rsatayotgan yagona narsa bu siz o'zingiz, nimani xohlappingizni aniq bilmasligingizdir. Ba'zi bir narsalarni bilmasligim mumkin, lekin shuni aniq bilamanki, muvozanatsizsiz!

Meni o'z holimga qo'y madingiz. Yelkangizga qo'l, boshingizga tizza, ko'z yoshingizga esa dastro'mol bo'ldim, lekin o'z hayotimdag'i kamchiliklarni ham to'l dirishimga yo'l qo'y madingiz. Holatimning ilmiy atalmasini bilmayman, lekin charchadim. Meni charchatdingiz! Juda ham!

Sizning baxtingiz uchun qanchadan qancha maqsadlarimni yarim yo'lda qoldirib, qancha orzulardim voz kechdim, bilasizmi? Albatta, bilmaysiz!

Insoniy ojizliklarim bilan yolg'iz qolgan damlarim ko'p bo'ldi. Xuddiki meni darddan chiqarish uchun qo'limni tutgandek ko'rsatgan vaqtaringiz meni yanada chuqurlikka itardingiz aslida.

"Do'st degani shunday bo'ladi", deya bergan ta'rif laringizga o'zingiz hech qachon mos kelmadingiz.

"Do'st degani shunday bo'ladi", deya aytgan olijanob gaplaringiz shunchaki quruq gap bo'lib qoldi.

"Ozgina suhbatlashamizmi?" degan vaqtaringiz doimo ozgina edi. Shunchaki biroz. Suhbat mavzusini aytmasa ham bo'ladi, og'zingizdan chiqayotganlar shunchaki behuda gaplar edi.

Navbat menga, menin dardimga kelganida biroz tinglayotgandek bo'lib, so'ngra „oshirib yuboryapsan“, derdingiz. Og'zingizdan faqatgina shu jumlalar chiqdi: „Oshirib yuboryapsan“.

To'g'ri, hayotimda bir narsani oshirib yuborgan ekanman, u ham bo'lsa, sizsiz. Juda ham oshirib yuborgan ekanman.

O'rtamizdag'i tuyg'u shunchaki araz bo'lsa, yarashib olardik. Siqilish bo'lsa, zamonga taslim etardik.

Lekin siz meni parchaladingiz. Ichimdan to sirtimgacha butunlay parchalab yubordingiz.

Mendan xohlayotgan narsangiz nima bo'lsa, hammasini berishga tayyor edim. Sizdan ham qadrliroq nimam ham bo'lishi mumkin edi, yoki siz yo'q bo'lsangiz nimaning ham qiymati bo'lardi.

Hayot atalmish bu mojaro siz bilan birga yanada go'zal va o'zgacha bo'lishi mumkin edi. Unga bardosh berish siz bilan yanada osonroq bo'lardi. Lekin siz „jamlash“ uchun meni va yana bir qancha yaqiningizni yo'qotdingiz. Jamlash uchun nimalaringiz bo'lsa, barchasini cho'ntagingizga to'ldiring.

Endi bo'lsa, ruxsatingiz bilan, hayotimni hayotning oqimiga qo'yib bering. Qanchalik uzoqlasha olsangiz, shunchalik yiroq bo'ling mendan. Yaxshi yoki boshqa-cha, qanday xohlasangiz, shunday qoling.

*Yo'lning davomini yo'ldan chiqib  
davom ettiraman.*

## JUMLADAGI „HAYOTIM”SAN, HAYOTIMNING JUMLASISAN...

Sensiz yog'gan yomg'ir jala kabi, tuproq bilan qarshilashdimi, loy daryosidan boshqa narsa emas. Yomg'irdan so'ng tuproqning taratgan ifori sensan. Men sensiz qarshilagan quyosh chiqishi shunchaki yangi bir kunning boshlang'ichi, sen bilan birga tomosha qilganim esa xayrli kunim, yangi umidlarim, qirq bor yiqliganimga qaramay, yangi boshlang'ichlarga bo'lgan ishonchimdir.

Sensiz tomog'imdan o'tgan non bo'lagi shunchaki oziqlanishim uchun, sen bilan bo'lingan non esa hayotning eng totli oni, bug'doyning azizligi va ne'matning shukri. Biz vilkamizni uzatgan zaytun esa, hosilning barakoti. Biz tilimlagan pishloq sening hayotimga olib kirgan ma'sumiyatingning ne'mat holati. Piylamdag'i choy men dunyoda ko'rgan yagona go'zallikning boqishlarida damlangan holatidir.

Menda hayot nomli narsa shu qadar. Nonushtada nonimga surtgan sariyog'ing, ortimga qo'ygan yostig'ing, o'z qo'llaring bilan menga tayyorlagan qahvang va „Osh bo'lsin“, degan jumlang qadar.

*“Sog' bo'l” deganimda, „Birgalikda”,  
deya bildirgan tilaging qadar, duolar qadar...  
Menda hayot shunday, nazarimda  
hayot shu qadar.*

## **TELBAMAN, YILLARDIR SENING QAFASINGDAMAN!**

Besh yil avval sen mendan voz kechgan bu ko'cha-dan bugun yana o'n beshinchi marta o'tishim va doim-gidek yo'lning har bir toshini sen bosgansan deya si-ladim.

Sen ketgan kuning ustimda qanday kiyim bo'lgan bo'lsa, hali ham o'shalarni kiymoqdamani. Sendan ke-yin yuzimni hech kim ko'rmadi. Sochimni, soqolimni hali ham kesmadim.

Ko'chalarni yuvayotgan maxsus transport ishchi-lari ustimga suv sachratib, juda zavqlanishadi. Ulardan qochayotib baqira-baqira kulaman. Har gal sen bilan yomg'irdan qochishimizni eslayman.

Bir-birimizga yuborgan maktublarimizni tashigan bolalar ulg'ayishdi. Ko'pchiligi men bilan gaplashmay qo'yan, lekin men hammasini juda yaxshi ko'raman. Mahallaga yangi ko'chib kelgan oilalarning bolalari zotan meni tanishmaydi. Bilaman, onalari buni ta'qiq-lagan, ko'pi mendan qo'rqedim.

Esingdami, Ahmet og'anining kichik qizi Elif bor edi. Oqshomlari biz sen bilan do'kon qarshisida ko'rishga-nimizda atayin ikkimizning o'rtamizdan yugurib o'tardi. Esingdami, seni juda yaxshi ko'rardi.

O'tgan kuni yo'l chekkasida o'tirganimda Elif ol-dimdan tezlik bilan yugurib o'tib ketdi. Onasi oyna-dan „Qizim, non ham olib kel“, – dedi. Men yana baqi-ra-baqira kulishni boshladim. Elif yonimga kelib va

jahl bilan „Nima, nega kulyapsan telba!“ – dedi. Darhol o'rnimdan turib, Elifdan uzoqlashdim. Seni hanuz unuta olmay turib, yana seni eslardim.

Hansirab biroz nariroqqa borib o'tirdim. O'sha payt uch nafar yosh yigitlarni ko'rdim, ikkita qushni bir qafasga solib olib yurishgandi. Ulardan biri men-ga yaqinlashib, „Sigaretingiz yo'q bo'lsa, beraymi?“ – dedi. Sigaret berishdi. Ilk nafasda yo'talishni boshladim va darhol yerga uloqtirdim. Ularning ichidan uzun bo'yli „Nega otib yubording? Seni ham shu qafasga qamab qo'yaymi?!“ – deya baqirdi. Yana qo'rqedim va qochdim. Shundoq ham yillardir sening qafasingdam. Yana bir qafasga dosh berolmasdim.

Har doim kun botar chog'ida dorixona oldidagi taxtaga chiqib, sen ko'zdan g'oyib bo'lgan tarafga qarayman. So'ngra besh yildan beri har oqshom bo'lgani kabi xuddi shu nuqtadan yo'nalishsiz yugurishni boshlayman va baqirib yig'layman.

O'tgan hafta men yana yo'l chekkasida o'tirganimda yonimga haydovchi Hikmat keldi. Avval ozgina pul berdi, so'ng „Bu shaharda juda ko'o'o'p sen kabilar bor“, – dedi. Hech narsa demay shunchaki yuziga qaramdim. Meni yelkamdan quchdi. „Gapir, biron nima de“, – dedi. Baribir gapirmadim. Yonimdan uzoqlasharkan „Telba-da“, deb ketdi. Eshitdim, lekin og'iz ochmadim.

Seni ichimdan o'tkazdim. „Hali ko'rasiz! Qaytadi!“ deya baqirishni istadim, lekin shuncha yil o'tganiga qaramay, hanuz ketganingga ham ishonolmagandim.

Bog'da sen doimo kech qoladigan o'rindiqqa cho-zildim. Ko'zlarimni qattiq yumdim. „Allohim, iltimos darhol uxbab qolay“, dedim. Tushimda bo'lishingni bילדارم، kuttirishni istamadim. Uxladim va yig'ladim. Yig'ladim va uxladim.

## TELBADAN ALLOHGA MAKTUB

Salom Allohim. Men bandangman.

Meni taniysan, onamga va dadamga ismimni sen qo'ydirning.

Dadam derkan, u anchadan beri sening yoningda.

Mendan unga salom ayt.

Lekin meni so'rashiga yo'l qo'yma, iltimos.

Olti oydan beri hech kim menga u qo'ygan ism bilan murojaat qilmayapti.

Ismim o'rniga „telba“ deyishyapti.

Dadam buni eshitsa xafa bo'ladi, deb qo'rqaman.

Allohim, „Sen qandaysan?“ deyishimga hojat yo'q, bilaman buyuksan.

Mavjud bo'lgan tillarning barchasini o'rganib, buyuksan desam ham, aytganlarim baribir kichiklik qiladigan darajada buyuksan.

Zotan, o'sha tillarning ham barchasini O'zing yaratding.

Hattoki hali o'rtaga chiqmaganlarini ham.

Allohim, men hozir telbalardek gapiraman, buni bilasan...

Kechir Allohim, lekin men bu bandalaringdan juda charchadim. Ular juda ajoyiblar. Ba'zida ular shunday bo'lib qolishadiki, „Nima bo'ldi?“ – desam, „Yuragim siqildi“, – deb javob berishadi. „Nega?“ – deb so'rasam, „Bilmayman“, – deyishadi. „Qanday muammong bor?“ – desam, „Hech qanday“, – deyishadi. Yoki umu-

man boshqa bir olamda yashaydilar, yoki ichlaridan chiqmaydilar.

Allohim, ishon, bugunga qadar juda ko'p insonlar bilan tanishdim, lekin hammasi bir-birining aksi. Aslida, hammasining aqli bor, lekin nazarimda, undan foydalanishmaydi. Shunchaki kecha-yu kunduz ishlaydilar, hamma narsani yig'adilar, so'ngra o'ladilar.

Men ba'zida ularga tushuntirishga urinib ko'raman, lekin „Sen nimani ham tushunar eding, menga nimani o'rgatmoqchi bo'lyapsan, telba“, – deydilar.

“Mayli, siz aqlisiz, siz menga o'rgata qoling“, – desam „Bor, yo'lingdan qolma“, – deyishadi.

Ulardan biri menga shunday savol berdi: „Seningcha, sevgi nima?“ Men esa „Sen sevgi deb o'ylagan hech narsa sevgi emas aslida“, – deya javob berdim. „O'zigni telbalardek tutma“, – deya meni haydadi.

\* \* \*

Allohim, uyimizning ro'parasida bir daraxt borku, ana o'shaning oldida bir bandang bilan tanishdim. Mavzu bunga qanday taqalgani esimda yo'q, lekin Sen uning nazarida yo'qmishsan. Tavba qildim, men unday demadim, ishon, u shunday dedi.

“Kim yo'q?“ – desam, „Alloh yo'q“, – deydi.

“Alloh yo'q bo'lsa, sen qanday qilib borsan?“ – dedim.

U ham „Bor, yo'lingdan qolma“, – dedi...

Sen haqiqatan ham juda marhamatlisan, ishon, men bo'lganimda o'sha odamni shu yerning o'zida yo daraxtga aylantirardim, yoki o'tinga! Yo bo'lmasa, ustidan chaqmoq chaqtirardim!

Allohim, bu mavzuni ochishni istamasdim, lekin mavzuni ham Sen yaratasan. Qo'shnimizning qizi bor

edi-ku, esingdami, olti oy, uch hafta, besh kun oldin bu yerdan ko'chib ketgan. Sen uning sochlari qora yaratib, o'zi sariqqa bo'yagan qiz. Uni nega menga yozmading?

Onam: „Alloh uni senga yozmagan ekan“, – dedi.

“Ona, mayli uni menga yozmagan ekan, meni unga yozsa bo'lmasmidi?” – dedim.

Onam „Tavba, Astag'firulloh“, – deb, oshxonaga kиrib ketdi.

Aslida bu maktubni ham qaysidir ma'noda Senga shu sababli yozyapman. Husnixatim biroz xunuk, bilaman, lekin Sen har qandayini ham tushuna olasan. Men u qizni ko'rganimda, kaftlarimning ichi terlardi.

U kelinlik libosini kiyib, mashinaga o'tirib ketgandan keyin, faqatgina kaftim emas, butun vujudim naq uch kun titradi. Doktor meni ko'rganidan so'ng, onanga „Xafa bo'libdi“, – dedi.

Lekin men xafa bo'lmadim, Allohim, menimcha u noto'g'ri tashxis qo'ydi. Vujudimga qon ishlab chiqarsin deya yaratgan yuraging bor-ku, xuddiki u qiz o'sha yuragimni oyog'inining tagiga qo'yib, ezdi!

Men shuning uchun yotog'imdan uch kun chiqqa olmadim. Qara, Allohim, qo'llarimning ichi yana terlashni boshladim.

Men kecha oqshom ham ko'chada Senga qo'llarimni ochib, terlaganini ko'satmoqchi bo'lganimda, Senga borligingga ishonmagan odam meni ko'rib, us-timdan kulgancha „Omin, omin“, – dedi.

Bu safar men unga „Bor, yo'lingdan qolma“, – dedim va u yerdan qochdim.

Sen u odamni biroz katta, meni esa ozg'in yaratibsan. Lekin biz Senikimiz, qanday istasang, shunday yaratasan.

Ha, hozir esimga tushdi, o'sha qiz to'y mashinasiga minayotganida, qo'lidan tutgan odam bor-ku, u menga pul berdi. Men u pulga bir talay shar olib, mahalladagi bolalarga tarqatdim. Uning bergen puliga kunimiz qolgani yo'q har holda!

Kecha do'konning oldida o'sha qizning onasini ko'rdim. Orqasidan yelkasining oldigacha yaqinlashib „Mebeel“, deb baqirdim, u qo'rquvdan baqirib, yiqilib tushdi.

Allohim, men shunaqangi kulishni boshladim, qornimni ushlab. Ayolning eri do'konning ichida ekan, chiqqanini ko'rmay qoldim, menga shunday tarsaki tushirdiki, jag'im sindi deb o'yladim.

Lekin qochayotib, unga ham baqirdim, butun malla eshitdi.

“Nima yolg'onmi? Kuyovingiz sizga mebel olmadi-mi?” – deya baqirib-baqirib qochdim. Agar qochmasam, uning otgan toshi meni naq o'ldirardi.

Mahallaning oxirida bir mebel do'koni bor. Uning ro'parasiga kelib, to'xtadim. Do'konning tashqarisida egasi o'tirib choy ichayotgan edi. „Ha, nima bo'ldi, telba, sal qolsa u kishi o'ldirardi seni“, – deya kului.

Yerdan bir tosh oldim. Uning ichayotgan choyi to-mog'iga tiqildi...

O'sha qizning turmush o'rtog'i bor-ku, menga pul bergen, u o'sha mebellarni mana shu do'kondan sotib olgandi!

Toshni yerga tashladim, yo'qsa, do'konning butun vitrinasini parchalab tashlamoqchi edim. Onamning ovozi bilan to'xtadim.

“Yerga tashla toshni”, – deya yig'lab yubordi onam. Tashladim, Allohim.

\* \* \*

Koshki, mebellarni yaratmasang edi, lekin yana O'zing bilasan, daraxtlarni ham yaratgan O'zingsan. U qizni ham, o'sha odamni ham, meni ham, onamni ham, eshigimizning tagidagi bir oyog'i bo'limgan mushukni ham yaratgan O'zingsan.

Onam menga bergen sutni men doim o'sha mu-shukka beryapman, lekin iltimos, buni onamga aytma.

Mayli, Allohim, men bu maktubni o'z nihoyasiga yetkazyapman va men faqatgina Senga va onamga ishonaman. Menga ishon.

Bu maktubni ham Senga yozgan boshqa maktub-larimning yoniga qo'yaman.

Sen meni yoningga olganingda, ularning hamma-sini o'sha yerda hammaning oldida o'qib beraman.

Kaftlarimning ichi terlayapti, boshqa yoza olmay-man.

Allohim!

Allohim?

**TIZZASIGA BOSH QO'YGANIM, YO'LIGA  
KO'ZLARIMNI QADAGANIM,  
XUSH KELDING...**

Mavsumlarimning o'rnini o'zgartirganim, xush kel ding.

Qishning o'rtasida „Bu bahor“, deya oladigan dara jada meni ishontirganim.

“Qaytib aslo sevmayman”, degan aqlimni qalbimga mag'lub qildirganim.

Kaftimning ichini nafasiga makon aylaganim.

Aqlimni ko'zlaridagi surmasiga bog'laganim, „Has rat bo'lsang, chekaman“, deya qo'rquvlarimni yengi shimga sababchi bo'lganim.

Sochlaring har bir tolasi bilan meni yangi umid larga bog'laganim.

Sevildim deb o'yagan lahzalarimning qanchalik qisqaligini isbotlaganim.

Barcha qayg'ularimni yiroqlashtirganim, xotirjam ligimga sabab bo'lganim.

Dunyoning yashasa bo'ladigan joy ekanligiga meni ishontirganim.

“Ketdik” desa, nega va qayerga, deya so'rashni lozim topmaganim.

Yostig'imning izi, irodamning chegarasi, hayotim ning siri...

Xush kelding...

To'xta, xafa bo'lma.

Tirnoqlari moy, zang ichida bo'lgan ota  
peshona terini to'kib, arzon bozordan  
bolalari uchun o'yinchoq sotib oladi.  
Bir ota dunyolarni qizining tabassumi  
uchun sotishga tayyor.  
To'xta, xafa bo'lma.

Seni jon tomiringdan ushlab turadigan  
buyuk qudrat bir kuni „Tayyorlaning“, deya  
buyruq beradi.

Dunyolar qadar bo'lgan azoblarling,  
Jannat qadar bo'lgan sevinchga  
aylanadi, albatta.  
To'xta,  
Sabr qil.

## **DOIM NOTO'G'RI JOYDA TO'XTADIM. HAYOTIM FAQAT SHUNDAY DAVOM ETDI**

Yoshim sakkizda edi. Tug'ilgan joyim bo'lgan Martin shaharchasining Qiziltepa qishlog'ida yashardim u vaqtlar. Qishloqda bir kino zali, bir gazeta matbuoti, bir nafar kassetachi va bir qahvaxona bor bo'lgan yillar.

Televizorda faqatgina TRT, radioda esa yarim qolgan dasturlar bo'lardi.

Maktab ro'parasida bir muzqaymoq sotib olganga noni ham tekinga qo'shib beriladigan muzqaymoq va paketlarda sotiladigan no'xat kukuni bo'lar edi. U kukunni ham yeb, ham hushtak chalish shunaqangi qiyin ediki, chala oladiganlarning boshqa do'stlariga so'zi o'tadigan hurmati bo'lardi.

Barcha kamchiligini boshlang'ich sinfdagi qora far-tugining sarg'aygan oq yoqasi bilan berkitishga urinib, ko'krak cho'ntagida uchburchak dastro'mol olib yuradiganlar maktabning eng omadli bolalari edi. Bir muddat men ham o'sha omadli bolalarning biri bo'ldim. Amakilarim Istanbulda yashashardi va bu boshqa bolalarni menga Istanbulni ko'rgan bola sifatida qarashlariga sabab bo'lardi. Rostdan ham Istanbulda uch oy yashagan edim. Boshlang'ich sinfning boshlarida o'sha yerda o'qidim. Undan so'ng yana Qiziltepadagi boshlang'ich ta'llim maktabida o'qishni davom ettirdim.

Ikki yoshimda otam vafot etgani sababli sulolaning yetimi bo'lishning barcha imkoniyatlaridan foy-

dalanganimni, men xohlagan nimadir amalga oshmasa, ertalabdan kechgacha yig'lagan paytlarimni eslayman.

Qo'llari o'pilishga arzirli onam qachonki bunga chiday olmay ikki marta tarsaki tushirsa, darrov yo buvam, yoki buvimning oldiga yugurib borardim.

\* \* \*

Bir kuni oqshom televizorda gazetalardan biri bergen reklamasini ko'rdim. Balki siz ham eslarsiz, belgilangan joylaridan kesib yopishtirsangiz uy hosil bo'ladijan promosyonlar. Kartonlarning chetida „Gazetaning hadysi, sotish taqiqlanadi“, deya yozilgan bo'lib, bu gazetaning yanada ko'proq sotilishiga sabab bo'lardi.

Buni ko'rganimdan so'ng joyimda jim o'tira olarmidim? „Buva, men ham shunisidan xohlayman“, – deya o'rnimdan sakrab turdim. „Mayli, o'g'lim, olamiz“, – dedilar buvam.

Ertalab sahar uyg'ondim, yuz-qo'limni yuvib, darhol buvamning qo'lidan tutdim va bozor yo'liga tushdik. Matbuot oldida o'sha vaqtlar men bilgan sanoqdan ham ko'proq odam bor edi. Hammasining niyati o'sha gazetani sotib olib, bolalariga kartondan uy yasab berish edi.

Buvam meni navbatga qo'yib, o'zi yana bir-ikki joyga borib kelishini va navbat menga kelgunicha qaytib kelishini aytdi. „Yaxshi“, – dedim va navbatimni hech kimga berib qo'ymaslik uchun o'sha yerda kutilusni boshladim.

Kimdir otasi bilan kelgan edi, kimdir akasi bilan,

yana kimdir bir o'zi. Gazetani olganlar berilgan katta kartonning o'ng-u so'liga nazar solishardi.

Menga navbat kelishiga bir necha kishi qolgan edi. Menden oldinda turgan kishi yon do'konda unga salom bergan odamning yoniga borib, navbatidan ko'-zini uzmay turgan edi. Shu vaqtda navbat ilgariladi va men birdan ikkilanib qoldim. Pulini berib, gazetani olib ketsammi yoki navbatni kelgan kishini chaqirishim kerakmi, bilmay qoldim...

Ikkinchisini tanlab, „Amaki, navbat sizga“, – dedim, u kishi kelib gazetasini olib ketdi. Va nihoyat mening navbatim keldi, „Menga ham bering“, – deya pulni uzatdim, lekin gazetachi „Gazeta tugadi“, – dedi. „Qanaqasiga?“ – dedim. „Nima qanaqasiga? Bori tugadi“, – deb javob berdi.

Menden avvalgi gazetani olib ketgan kishining ortidan qarab qoldim. Mening ortimda gazeta tugagani eshitib, gapira-gapira tarqalayotgan odamlarga qaramdim. Oxiri yana gazetachiga o'girilganimda „Bo'ldi, ket, qolmadi dedim-ku“, – deganidan so'ng men ham ketdim. Bir chetda o'tirib, buvamning kelishini kutdim... Boshqa imkon yo'q edi. Chunki qishloqda bir dona matbuot bor, unda ham tugadi.

Ilojsizlik boshqa narsa, imkonsizlik boshqa. Men o'sha gazetani sotib olishga pulim yetardi, lekin tugagan gazetani hal qilishning iloji yo'q edi.

Kino zalida ham xuddi shu sharoit, film tanlashning imkonini yo'q edi. Zotan birgina film namoyish etilar edi, u yer-da ham oyda bir marta turk filmi bo'lar edi.

Menga „Sen to'g'ri ish qilding, u navbat o'sha odamning haqqi edi“, – deb qancha takrorlasalar ham, bari-

bir doim boshqa odamning navbatini buzib bo'lsa ham o'zim istagan narsani olishim kerakmidi, yoki yo'qmi, deya qarorsizlikda qoldim.

Bu mavzu hech qachon yoqamni qo'yib yubormadi. O'sha kunning la'natimidi bu, bilmadim, lekin men shundan so'ng aslo biron narsaga erishish uchun to'g'-ri vaqtda va to'g'ri navbatda tura olmadim. Yo men turgan navbat noto'g'ri bo'lardi, yoki men xohlayotgan narsa. Bir qancha avtobusni o'tkazib yubordim. Bir necha poyezdni ham.

Masalan, sevdim, lekin ayta olmadim. Boshqasi aytdi, sevildi. Qo'limda „Sen to'g'risini qilding“ jumlesi kabi hech qanday ishimga yaramaydigan ovunchoqdan boshqa hech narsa qolmadi.

*Men doim to'g'ri turdim, lekin navbat  
har gal noto'g'ri bo'ldi.*

*Qachonki navbat menga kelsa, hayot doim  
"hozir vaqt emas", dedi.*

## KO'ZLARIMDAN TOMCHI-TOMCHI BO'LIB OQIB TUSHDING...

Maktubimni nihoyasiga yetkazayotib, sezib qoldim, aslida hech boshlamagan ekanman. Boshlab yakiniga yetkazsam ham, baribir uni yo'llashim uchun manziling yo'q edi.

Hozir sen o'sha yerdasan, u qayerligini bilmayman, lekin shuni aniq bilamanki, juda ham go'zal joylar, sababi u yerda sen borsan. Men esa hozir bu yerdaman va bu yerlarning hech qanday go'zalligi yo'q... Meni so'ramoqchi bo'lsang, u yerda so'ray oladigan hech kim yo'q. Bor bo'lsa ham, meni baribir tanishmaydi. So'rash ehtimoling yo'q, lekin shunda ham so'-rasang, kimni aytayotganining tushunishmaydi.

Kecha bog'da bir odam bilan tanishdim. Bir necha daqiqa sen haqingda gapirib berdim, tushunishga uringanday yuzimga tikilib o'tirdi, so'ngra turib ketdi. Uning suhbat shundoq ham go'zal emasdi, zotan og'-zini ham ochmadi. Ochganida ham sen haqingda gapirmagani uchun menga suhbat qiziq tuyilmasdi, o'rniga men turib ketardim.

Qaysi birini yaxshi ko'rishingni bilmaganim uchun barcha turdag'i gullarni sotib oldim. Sen bor bo'lsang, balki vazalarga solib qo'yarding, lekin sen yo'qsan. Shu sababli olgan barcha gullarimni yo'llidan chiqqan ayollarga berib yubordim. Bir qanchasi sababini so'radi, „Bugun Xalqaro kechaning buguni kuni“, – deb

javob berdim. Hattoki so'rayotganlar soni ortgach, ular so'rab ulgurmaslaridan, „Xalqaro kechaning buguni kunningiz muborak bo'lsin“, – deya gullarni berdim.

Bir hafta oldin tongda uyg'onganimda ko'zlarim biroz xiralashgan va yana ozgina shishgan edi. Ko'r-sang qo'rqib ketarding. Shifokor oldiga bordim. Dori yozib, bir haftadan so'ng yana kelishimni tayinladi. Bu safar ikkala ko'zim ham uzoqlikni ko'rmay qolgandi.

– Qanchalik uzoqni ko'ra olmayapsan? – dedi shifokor.

– U qanchalik uzoq bo'lsa, shuncha uzoqlikni, – dedim.

– Tushunmadim, – dedi.

– U, dedim, – u deya seni nazarda tutib, – qanchalik uzoqqa ketgan bo'lsa, shu qadar ko'ra olmayapman, – deb javob berdim.

– Chiq tashqariga, – dedi.

– Lekin nega? – deb so'radim.

– Qo'riqchi! – deb baqirdi.

\* \* \*

Uyga bordim, o'n daqiqaga yaqin qo'ng'iroqni chalib, eshik tagida kutdim, ochmading. Xohlasang ham ocha olmasding, chunki bu yerda emasding, hatto uyimni ham bilmasding-ku. Men esa shunchaki umid qildim, u ham bo'lsa, o'n daqiqa davom etdi, keyin so'ndi.

Aksirdim, „Ko'p yasha“, dedim va „Sen ham“, deya javobladim. Holbuki, men „ko'p yasha“ deb o'zimga emas, senga aytdim.

Hech bo'limganda sen ko'p yasha, men esa... Bu ketishda qiyingga o'xshaydi...

\* \* \*

Uxlashga urindim. Bu tush emasdi, ko'zimdan tom-chi-tomchi bo'lib oqding.

Endigina ko'zim uyquga ketayotgan paytda bir ayol bilan ikki erkak eshikni shunday shiddat bilan ochdiki, yotog'imdan sakrab turdim. Ayol qo'lida iga-na bilan „Endi ukol vaqtি“ – dedi, kamiga kulib. Yana ko'y-lagimning qo'lini ochmay qildilar ukolni.

Shu oq ko'ylagim bor-ku, bir kunda kamida sak-kiz soatcha kiyib yuraman. Lekin bir ko'rsang edi, menga oq juda yarashadi.

Shu ko'y lakning qo'lini ochganlarida men bu matning boshida aytgan maktubimni, albatta, boshlar-dim...

***Meni „telba“ deyishyapti, lekin telba emasman,  
shunchaki aqlim senda qolib ketgan.  
Kelayotganingda uni ham olib kel...***

**Yo'lning oxiri ikkimiz uchun  
qanday bo'ladi, bilmayman.  
Lekin men sen bilan har qanday yo'lni,  
yo'lovchilikni sevaman.**

## QO'LIMDA EMAS, KAFTLARIMDASAN...

Sochlaringni har bir tolasigacha bilardim, hozir esa rangidan ham xabarim yo'q. Bir lahzalik boqishindan ming xil ma'no izlardim, hozir esa kimga qanday qarab, qanday ma'nolarni aks etayotganining bilmayman. Suhbatlashish uchun alifbodagi harflarga, tovushlarga, jumlalarga ehtiyojimiz yo'q edi. Biz shunday edikki, ovoz pardalarimizning yordamisiz bir-birimizni tushuna oladigan o'zgacha bir tilni kashf etgandik. Bir-birimizning ko'zimizdan, ishoralarimizdan hammasini tushunib olardik. Balki, shular sababli bizza ko'z tekkandir. Hozir esa qayerda, kimlar bilan, qanday gaplashyapti, xabarim yo'q. Mensiz hayotni tasavvur qila olmasligiga ishontirgan edi, hozir esa kimga „Hayotim“, deb uni hayotining markaziga aylantirgan, bilmayman.

Uning tirikligiga ishonchim komil, Xudo asrasin, agar biron kor-hol bo'lganida, bu juda yomon xabar bo'lar edi va albatta, men ham eshitgan bo'lardim. Uning o'lganiga, o'zimning esa yashayotganimga ishontayman. U o'zi tanlagan hayot tomon uchib bordi, men esa chidab yashashga majbur bo'lgan hayotimga u tarafidan itarib yuborildim.

Uning kulgusidan hayotimga bahor isi yoyilardi, hozir esa na bahor, na kuz keladi, hayotim deyarli mavsumsiz hayotga aylangan.

Tugamaydi, deganing tugaydi, unday bo'lmaydi, deganing sodir bo'ladi.

Shunday vaqtlar ham bo'ladiki, inson sevganiga yetarli bo'lishi bir yoqda tursin, hatto o'ziga ham yetmay qoladi.

Mendan qayerdaligingni so'rashdi, kaftimni ko'r-satdim. Duolarimdasan. Sening manzilingga oid boshqa hech qanday ma'lumotim yo'q.

## QO'LIMDA BO'L MAGAN NARSALARING BOSHIDA UNING QO'LLARI KELADI.

Mening qo'limda bo'lsa, seni sevishni tanlamasdim, lekin qo'limda emas-da, u qalbimga bog'liq.

Qachondan berilagini bilmayman, yuragim men uchun emas, sen uchun urmoqda. Yuragim sen uchun urayotganini aytsam ham, e'tiborga olmaysan, bu haqiqat.

Seni sevishimni aytish uchun oldindan qirq marta tayyorgarlik ko'rdim, lekin bir marta ham sahnalash-tira olmadim. Ikkimiz ham duch kelgan yagona tuyg'u bu, „yo'qlik”. Shunday yo'qlikki, sening mendan, mening sendan xabarimiz yo'q. Na senda borman, na o'zimda. Anchadan beri sening yoningda bo'l maganim uchun o'zimda ham emasman.

Ketish uchun bir joyni tanlash imkonim bo'lganida, seni tanlardim. Agar imkoni bo'lganida edi, har kuni uyqudan oldin oxirgi ko'r ganim, uyg'on ganimda esa ko'zimni ochib ilk ko'r ganim sen bo'lishingni xoh-lardim.

Tashqaridan qaraganda, normal hayotda yashayotgandek ko'rinishim mumkin, lekin o'zimni hayotdan tashqariga chiqqandek his qilyapman. Buning normal holat emasligini ham bilaman.

Hayot atalmish narsani borlig'ingga biriktirdim, lekin sen bu qadar sevgini ko'tara olasanmi, yoki yo'q, buni bilmadim.

Seni sevib qolgan onimdan boshlab doim kechik-tirgan narsam bu o'zim. O'zimdan shunchalik yiroqlashib ketdimki, o'zimga qaytishim uchun qancha vaqt kerakligini, hatto bunga yetarli vaqtim qolganmi, hech birini bilmayman.

"Xayrli tong", deydigan vaqtlarida doim uxlayapman. „Xayrli tun“, deganlari esa butunlay yolg'on, menga hech bir tun xayrli bo'lmasdi. Sanog'ini eslay olmas darajada kun-u tunni o'tkazdim. Yo'qliging sabab, na kunim oydin bo'ldi, na tunim osuda kechdi. Senga bularni tushuntira olmadim, bunga harakat ham qilmadim. Boshqa birovga ham aytib bermadim.

Sen uni sevmaganingda, bu yerga yozganlarimning barchasini unutib, seni sevishimni yozish o'rniga o'zingga ayta olardim...

*Qara, shu yerga yozyapman.  
"Seni sevdim..."*

Yana azoblanaman, deya men so'ray  
olmadim, lekin hech bo'lmaganda  
Sezenga javob ber:  
“Seni kimlar oldi, kimlar bo'sa oldi sendan?”  
Dudog'ingda, qo'lingda, o'zganining izi bor.

**QO'LLARING YUZIMNI SILARKAN, MENI SEV,  
DEB QO'LLARINGGA YOPISHSAM-U,  
ASLO QO'YIB YUBORMASAM! LEKIN...**

Sen bilan suhbatga kirishib, bir-birimizga aytishga ulgurmaganlarimiz va bir-birimizni qanchalik sevishimiz haqida so'z boshlasak, go'yo ikkимiz ham tildan qolamiz. Ular bizni tushunishmagani uchun birga bo'lishni qabul qila olmaymiz.

Sevgimiz tilimizga joylanmay, jim bo'lishga majbur bo'lamiz. Ular sevgi tilini, uning alifbosini ko'zlaringdan, kipriklaringdan, men burchagida yashashni orzu qilgan lablaringdan tashkil bo'lganini qayerdan ham tushunishsin... Bir burchakni belgilasak va seni umringning bir go'shasida sevishga harakat qilsam, zotan barcha burchaklar allaqachon berkitilgan. Hatto fasllar burchagi ham.

Bir qavatli bo'lgan uyimizni, xayol qilsak, bir zum o'tmay xayollarimizning o'rtasida chelak va buldozer ovozi bilan uyg'onib ketamiz. So'ng yana o'z qafasimizga kiramiz.

Yakson bo'lgan orzularimiz hali qurilish bosqichida ekan, o'z qo'limiz bilan oziqrantirgan umidlarimiz ham qafas ichida qoldi.

Qo'lingdan tutib, kel desam, bir tun yarmida bu yerlardan uzoq har qanday joyga qochib ketaylik, u qayer bo'lsa ham, bizdan avval o'zlashtirib olingan, o'rtaidan bo'linib, bizni ikkiga ayiradigan yo'l o'tadi. Senga ketishing uchun, menga esa qolish yo'li.

Ikkimizning sevgimizga doir barcha narsani ichimizga yutib, yashashda davom etsak, ichimizdan bir ovoz „Bu yerda muhabbat bilan yashash ta'qiqlana-di“ deya jaranglaydi. Voz kechib, shu yerda qolamiz, desak, ko'zimiz-ko'zimizga tushishi u yoqda tursin, yonma-yon o'tirishga ham joyimiz yo'q edi. Senga yoki menga kimdir „Bu yer meniki“ deydi, „bu“, deganda seni yoki meni chetlatishni nazarda tutadi.

Xohlasang, buni taqdir deb ata, xohlasang, qismat yoki Xudoning la'nati!

Bu kundek ravshan: men senga, sen menga na vaqt ajrata olamiz va na birga orzu qila olamiz.

Hayotda bunday bo'lishi mumkin emas...

*Sen ham ko'rib turganingdek, ba'zi  
uchrashuvlarning  
makoni va vaqtি bu dunyo uchun emas.*

## O'ZLIGIMGA QAYTYAPMAN!

Barcha majburiyatlardan, shunday bo'lishi kerak, deya yaratilgan barcha qoidalardan charchadim. Ni-mani qanday qilish kerakligini o'rgatishga uringan barchaga qulqolqarimni berkitdim. Sevilsin, deya yuragimni ko'tarib yurishdan charchadim, qanday xohlasa shunday ursin.

To'g'ri tushuntira olish uchun bir tildan mukammal foydalanishdan voz kechdim.

Men chiroyli ko'rsatishga harakat qilgan barcha ranglar uyg'unligidan, salomatlik uchun ichilayotgan dorilarning dozasidan, hayotimning o'rtasida ko'tarilgan bo'ronning changidan charchadim.

Meni yanglish tushunmasliklari uchun har bir gapimni takror-takror tekshirishdan, biror narsani tushunmaganimda nodon bo'lib ko'rinishdan va meni rivojlantira olishini qat'iyat bilan ta'kidlaydigan barcha shaxsiy taqdimotlardan charchadim.

Kunning ma'lum bir vaqtidagi „xayrli tong”lardan, orzu qilishdan nariga o'tib bo'lmaydigan „xayrli tun”-lardan, jon-holim bilan chidab o'tkazayotgan shanbalarimdan va bunga loyiqsan, degandek taqdim etilgan yakshanbalardan, horg'inligimdan, xavotirlarimdan, bo'ynimdagi qarzdek ko'rinaligan hamma ishning og'irligidan qo'rqedim, charchadim, to'ydim!

\* \* \*

Dunyoga kelishimning sababi bo'lgan sevgini ham kim ko'proq sevishining isboti talab qilinadigan mu-sobaqaga qurban qildim, qildilar.

"Seni sevaman" jumlesi kunduzi yoki kechasi aytimay qolgan bo'lsa, hech ikkilanmay his-tuyg'ularimni o'lchashga harakat qilishardi.

Va bir kuni ertalab men qaror qildim. Voz kechdim!

Tushundimki, kimgadir yaqin bo'lish uchun dunyo bilan qanchalik bog'lansam, meni o'zimdan shunchalik uzoqlashtirayotgan edi. O'zligim bilan oramga kirgan masofani yo'qotishning yagona yo'li yo'nalishimni ichki ruhim tomon burishdan boshqa narsa emas edi.

Har kimning og'zidan chiqqan gapiga shunchalik qulog'imni tutgan edimki, ortiq o'z ovozimni eshitishim imkonsiz holga aylangandi.

Ko'z bilan ko'rish mumkin bo'lgan barcha narsalar ni ko'rib, faqatgina o'zimni ko'rmay kelgandim.

Barcha qayg'ularimning yig'indisini oldimga qo'ydim. Har tongda yo quyosh bilan ko'tarilishim, yoki o'zim tushib qolgan bu shoshqaloqlilikning soyasida poygadagi raqobatchilardan biridek yashashda davom etishim mumkin edi.

Men o'zimni tanladim. O'zligimni anglash uchun yuragimni, hislarimni, ko'zlarimni ochdim.

Qaytib aslo birovni qanchalik sevishimni isbotlashga urinmadim, yuragimdagi his-tuyg'ularimni o'lchashlariga yo'l qo'ymadim.

Men mukammal bo'lishga majbur emasman, mu-kammallik rolini o'ynashim ham shart emasdi. Men

faqat yaxshi bo'lishni tanladim, ayniqsa, o'zim uchun.  
Ilk uzrimni o'zimdan so'rayman.

Men osilgan shoxlar sinib, qo'llarim yaralandi.

Biroz qiyin bo'ldi, lekin kechirdim o'zimni...

"Bir muddatdan so'ng" deyilgan muddatga ham  
keldim.

*Bu yerlarda meni taniydigan biron zot yo'q.  
Ortiq men ham hech kimni tanimayman!*

Ba'zilarning borligini hatto yoningdaligida  
ham his qilmaysan,  
Ba'zilari esa sendan uzoqdaligida ham sen  
uchun yetarlidir.  
Men sen qayerda bo'lsang, o'sha yerman.

## HARAKAT REJAM

Qo'limdan boshqa narsa kelmaydi. Balki qila olishim mumkin bo'lgan eng yaxshi ishni bajarayotgandirman. Olishga qurbim yetganicha sotib oldim, qolganini bog'chalardan o'g'irladim. Minglab atirgullarni tikanlaridan ajratdim, meni tark etishingga to'sqinlik qilish rejalarimni amalga oshirishga tayyorman. Gullardan yo'lingga devorlar quraman. Ularning iforidan hushingdan ketib, yerga yiqlayotganingda yoningda men paydo bo'laman. Agar bu atirgul rejasi o'xshama-sa, sen minadigan samolyot yoki avtobusdan yolg'on shikoyatlar qilaman. Agar ularning safarini to'xtata olmasam, uchish uchun qanot qoqib, boshingga yomg'ir duolari bilan yog'aman. Xuddi sevgi yomg'iri kabi butun vujudingni qoplab, seni to'xtataman.

Onamga, onangga, men bilgan-tanigan barcha onalarga, hatto ona bo'lish arafasidagilarga ham iltimos qilaman, ulardan sen ketmasliging uchun duo qilishlarini so'rayman. Cho'l issig'ida qovurilgandek olov kabi yonib, ustingga qum bo'ronlari bilan yog'ilaman. Suratlaringni shaharning har bir devori va bekatiga osib chiqaman. Seni ko'rib, menga xabar berganlarni mukofotlayman. Albatta, men ham bekor o'tirmayman. Dunyolarni yaratgan Zotga sajda qilib, ketmasliging uchun tiz cho'kib duolar qilaman, qurbanlik qilaman. Hatto ikki karra qurbanlik qilaman.

Men tanigan yetimlarning hammasini bir oraga yig'ib, qo'lini-qo'liga qovushtiraman. Hammamiz bir-

ga yulduzlar uchishi, quyosh va oy, hatto butun fazo tutilishi uchun tilak tilaymiz. Agar sezgan bo'lsang, **A** dan **Z** gacha barcha rejalar tayyor. Yuzimni silagan nigohingga qasamki, ketmasliging uchun bu shaharni oyoqqa turg'azaman.

Navbatma-navbat shaharning barcha maydonlarini aylanib, senga muhtojligimni bildiraman.

Barcha do'stlarimizga vositachi bo'lib, senga yolvorib bo'lsa ham ketmaslikka ko'ndirishlarini iltimos qilaman. Va menin qo'limdan keladigan eng so'nggi ish shudir: azizam, agar hali ham ketishdan voz kechmasang, birinchi tong fursatidayoq yelkaga ko'tarilib, tuproqqa kiraman.

## BIR KUN KETADILAR! O'RGANIB QOLMANG!

“Kulish senga yarashadi”, – dedi u, „Senga qarab ku-lish yarashadi”, – dedim.

„Sevish senga yarashadi” – dedi, „Seni sevish ya-rashadi” – dedim. U go’zal tabassumi bilan kului. Ta-bassumini alohida, o’zini alohida sevgadigan ifodam bilan kului.

„Men seni juda sog’indim”, – dedim kutilmaganda. Kamiga boshqa narsa haqida gaplashayotgandik. „Tu-shunmadim”, – dedi u. „Mana, yoningdaman-ku axir, shunda ham sog’inasanmi?” – deb qo’shimcha qildi. „Seni sog’inishimni yonma-yon bo’lishimiz bilan hech qanday aloqasi yo’q. Yoningda bo’lsam ham, bo’lma-sam ham sog’inaman”, – deb javob berdim.

„Bunday so’zlarni qayerdan topding?” – deb so’ra-di. „Yuzingdagagi alifbodan o’qidim”, – dedim.

Sevilish bir insonga qo’shadigan barcha rang, uy-g'unlik, nafosat va go’zallikni men uning ko’zida, yu-zida, yonoqlarida, sochlarda ko’rdim. Bu sevgi biz uchun yaratgan rollari aniq edi, men oshiq edim, u sevikli edi.

Men uni qanchalik sevsam va u buni his qilsa, shunchalik xursand bo’lardimki, ta’rifi yo’q.

U men sug’organ niholga o’xshardi. Men quyoshga qaratib qo’ygan gul kabi edi. Go’yo u yaralangan va men uning yaralariga malham bo’layotgandim. U hayotga mendan avval kelgandek. Chunki u kelguniga qadar

men hayotni haqiqatan his qilgan emasman. So'ngra ketdi... Oradan ko'p ham o'tmay, xuddiki anchadan beri ketishga ahd qilgandek ketdi. U shunchaki „Men ketyapman“ – dedi. Shunday qat'iyat bilan aytdiki, qayerga, nima uchun, qanday qilib, deya so'rashimga ham hojat qoldirmadi.

Hattoki „Yaxshi qol“, ham demadi, aytsa ham, yaxshi qola olmasdim.

*Yaxshi qol, deyish qiyin emas,  
qolish qiyin, buni bilaman.  
Endi na ketishga madorim bor,  
na senda qolishga o'rnim.  
Kamiga sen menga bu darajada xush  
kelgan ekansan,  
ketishing qanday bo'ladi, buni bilmadim.*

## HAYOTINGDA NAFAQAT BIR INSON, HATTOKI O'ZING HAM YO'QSAN

Hayotingda nafaqat bir inson, hattoki o'zing ham yo'qsan! Hayotingdagi eng muhim inson kim? Hech o'ylab ko'rganmisan? Hayotingizda „Men sensiz yashay olmayman“ deb ayta oladigan kiming bor? Yoki bu jumlani kimgadir aytish u yoqda tursin, odam bu jumlani boshqa odamni xursand qilish uchun ishlatalishi mumkin. „Agar sen bo'lmasang, men yashay olmayman“ degan so'zni eshitish hammani xursand qiladi. Boshingni yostiqqa qo'ygan oning hech o'ylab ko'rdingmi, hayotimda kim bo'lmasa yashay olmayman deya? „Men sensiz yashay olmayman!“ deb ayta oladigan insoning kim?

Onangmi, Otangmi, yoki Sevgiling?

Kim?

Ishonaver, qaysi birini yo'qotsang ham, yashashda davom eta olasan.

Lekin, o'zing-chi?

Hayotingda o'zingsiz yashay olasanmi? Agar hayotingda „o'zing“ bo'lmasang, qanday yashashindan qat'i nazar, uni hayot deb atash mumkinmi? Yashash va hayot umuman boshqa narsalar, buni tushunasanmi? Aytaylik, shunday kun keladiki, hayotingda kamlik qilayotgan yagona inson „o'zing“ ekanligingni anglab yetasan, lekin bunga juda kech bo'lishi mumkinmi?

Sen hozir yashayotgan vaqtning hatto bir soniysini ham ortga qaytarish imkoni bo'lmay turib, orzu qilishdan nariga o'ta oldingmi? „Ertaga“ deya kutayotgan narsang aslida bugun bo'lganidek, orzularing ham qo'lingdan uchib ketishi mumkinligini anglab yetyapsanmi? Yo'q, anglamayapsan!

Atrofingdagi barcha inson va hamma narsalar sen hayotingning bosh rolini o'ynashing uchun berilgan yordamchi aktyorlar, lekin sen bu rolga loyiq bo'la olmading. Dush kelgan muammolaringga „Nima uchun?“ deb so'rashning o'rniغا „Qanday qilib?“ deyishing kerakligini o'ylamading.

Yashayotgan dunyongda yolg'iz qolib ketsang ham, yashashing kerakligini, hayotingdagi eng muhim inson „o'zing“ ekaningni tushunib yetmading. O'z orzularingni boshqalarning orzulariga qarab yaratding va borlig'ingni boshqalarning poydevori ustiga qurding.

Agar hayotingda „o'zing“ bo'lmasang, hech narsa bo'lmasligini tushunmading. Hatto eng qadrli insonlarin uchun ham o'zingga ortiqcha beparvolik qilmasliging kerak.

Hech o'ylab ko'rdingmi? Agar sen o'zligingcha bo'lmasang va o'zingga hech qanday foyda keltira olmasang, boshqalarga qanday yordam bera olishing mumkin?

„Men sensiz yashay olmayman“, deyishing kerak bo'lgan yagona odam kimligini bilasanmi? Faqatgina sen o'zing.

Hayotingda „o'zing“ siz yashay olmaysan...

Har narsa bo'la olding, har kim bo'la olding, lekin sen „o'zing“ bo'lomading!

## **GO'ZAL, DEYA IFODALAB BO'LMAS DARAJADA GO'ZAL EDI.**

Uning ko'zлari omadli tasodif asari emasdi. Chunki hech qaysi omad bunchalik katta bo'lмаган. Ko'zлariga boqqanimda Allohnı eslardim, eslamaslik imkonı ham yo'q edi. Uning ko'zлariga g'арq bo'lish cho'kishning eng go'zal ko'rinishi edi.

Ko'pincha o'z-o'zimdan „Jannatgacha qancha ma-sofamiz bor?“ deya so'roqlaydigan darajada uzoq edi. Men aniq bilaman, u mening orzum, lekin qo'llarimning qo'llari tomon bo'lgan yo'li rasman Sirot edi. U yana Asli, Shirin, Layli edi.

U ham dard, ham davo edi.

Ertalab ko'rmasam kunim, kechqurun ko'rmasam tunim, uyining chirog'i yonmasa, dunyom zulmatga cho'kardi. Biz bir mahallaning birga katta bo'lgan bolalari edik. Men yo'lidan chiqib, unga biror narsa haqida gapirmoqchi bo'lsam, sezib qolishidan qo'rqrardim. U shunchaki o'tib ketar, men esa qarash va qaramaslik o'rtasida ikkilanib qolardim.

Hech kim bilmassdi. Bu hammaning mendan „Senga nima bo'ldi“, deb eng ko'p so'raydigan savoli edi, lekin men hech narsa aytmasdim. Tobora g'alati bo'lib borayotgan holatimning eng g'alati qismi o'zim edim, u esa men hayot deb ataydigan narsani ko'zlarining ichida mujassam etgandi.

U men unga nisbatan his qilgan barcha tuyg'ular-

ning yig'indisi edi. Go'yo hayot menga so'z navbatı  
bergan va butun mavzu uni o'z ichiga olgandi. Aslida,  
mening taqdirim allaqachon yozilgan, lekin hozirgi  
holim rahm-shafqat hukmiga qolgandi. Mening yago-  
na bilganim bu sevgining qarshisidagi vaziyatim go'-  
yo oxirgi vasiyatimdek edi. Mening sevgim bolaligim-  
ga o'xshardi, umrim ham bolaligimdan beri yetim edi.  
Yashashning hissasi men uchun shu qadar ediki, sevgi  
me-ning tilagim edi...

*Bilaman, buni sezmaysan, lekin bir kuni  
oqshom vaqtı shahrin ni  
tark etaman, sen uchun tong otganda mensiz  
bo'lgan kunda uyg'onasan.*

**Manzil va vaqtini ayta olmayman,  
lekin seni kutaman...**

## HADDINI BILMASLIK EMAS, BILDIRMASLIK AYBDIR!

Nega jim bo'lishni tanlaganimga qiziqyapsizmi?

Meni tinglab, „to'g'ri“ deganingizdan keyin darrov „lekin“ deganingiz uchun.

Insonning dardi yashirin bo'ladi. Shunda ham „Qanni, ayt“, deya dardimni tilimga solib, qayg'ularimga sherikligingizni ta'kidlayotgan bo'lsangiz-da, gapingizni „bo'rttirib yuboryapsan“, deyish bilan yakunlaganingiz uchun jim bo'ldim.

Qutulishni istayotgan azoblarimni yanada bo'rttiradigan darajada ahmoq deb o'yladingiz va meni ham bunga ishontirishga uringaningiz uchun jim bo'ldim.

Men gapirmadim, chunki siz men yo'qotgan barcha narsalarimni izlash uchun men bilan birga yo'nga chiqdingiz, lekin birinchi chorrahaning o'zida meni yolg'iz qoldirdingiz.

Siz to'g'ri so'zlik hisoblab, o'ylamay aytgan gaplaringiz bilan qachon, qaysi yaramga tuz sepganiningizni bilmaganingiz uchun indamadim, jim bo'ldim.

Oldimda turgan ikki variantning biri gapirmaslik edi va men uni tanladim.

Men buni tushuntirib bera olmasligimga o'zingizni ishontirdingiz, lekin aslida endi tushuntirish uchun sizni loyiq ko'rolmayotgandim. Chunki qachon anglatishga urinsam, sizdan bunga arzirlilik qadr-qiyomat topa olmadim.

Dard insonni yanada kuchli bo'lishga undaydi, lekin siz har gal to'plagan kuchimni ham tortib olgанингиз учун Jim bo'ldim.

*Azobning tili bor, lekin afsuski,  
sizning bu alifbodan xabaringiz yo'q.*

## „NIMANI HAM YO'QOTASAN?“ DEDILAR, YO'QOTDIM...

Tormozi ishdan chiqqan yuk mashinasidek jarlikka qulashimga sen sababchisan. Uyqusizligimga, umidsizligimga, qo'lim bir ishga bormay qolishiga, tarqoq aqlim yig'ilmasligiga sen sababchisan...

„Ayt“, – deb turib oldilar.

„Agar rozi bo'lmasa-chi, men nima qilaman?“ – dedim.

„Bor, seni sevaman deb ayt“, – deb shuni ham qo'shib qo'yishdi: „Rozi bo'lmasa nimani ham yo'qotarding?“

Seni sevishimni aytgunimcha nimani yo'qotishimni bilmasdim.

Birgina fikrim, bir tilagim, yagona duom bor edi xolos. U ham bo'lsa sen uchun urgan yuragimga tashrif buyurishing edi.

„Ayt, nimani ham yo'qotishing mumkin“, – deya takrorlayverdilar. O'zimni jasoratlilis qilganimda bu mantiqlidek tuyildi, lekin sevgi mantiqni qabul qilmadi.

Bu mantiqni faqatgina sevgi emas, sen ham qabul qilmading. Go'yoki qo'limda muddati o'tib ketgan chek bilan hech narsasiz ortga qaytdim. „Sendan yaxshirog'ini topa olarmidi?“ degan gaplariga o'zimni ishontirgan edim. Endi esa hamma mendan ko'ra yaxshiroq degan fikr meni tark etmay qo'ydi. Men sevgimga nis-

batan javob olishdan umid qilar ekanman, sen menga bir so'zing bilan rad etilganlikning ulkan qayg'usini his qildirding.

Men qabul qilinmadim, sevilmadim, e'tiborga olinmadim. Ular: „Bu dunyoning oxiri emas“, deyishdi, lekin yangi boshlang'ichlarni ham taqdim eta olishmadi.

Hamma ortga chekindi, sen bo'lsa shundoq ham yo'q eding.

Qo'limda tasalli kutayotgan bir yurak va boshimda o'zini yig'ib olishi imkonsizlashgan aql bilan qoldim.

*Qalbim meni sevmaganingdan o'rtanar ekan,  
qo'limni ko'ksimga qo'ydim va  
„Tinchlan, go'zal qalbim, tinchlan“, dedim.  
Yuragim telbalarcha urdi-yu,  
lekin to'xtab qolmadi, Xudoga shukur...*

## XOTIRANGNING YO'QOLGAN YAGONA QISMI MEN...

Sababi noma'lum tarzda yuraging siqilsa, o'sha on meni o'ylama. Yuraging bilan endi ishim yo'q. Meni ong osting deb hisobla, ko'rgan barcha tushlaringni na yomon va na yaxshilikka yo'y, hatto o'zingga ham yo'yma. Agar tanishlarimiz bilan suhbatingizda is-mim tilga olinsa, bilginki, bu shunchaki o'xshash ism. Men suhbatingizga mavzu bo'lmaydigan darajada ancha avval yopilgan mavzuga aylandim, ishonaver.

Senga meni eslatadigan barcha odatlarimni o'z-gartirdim. Endi na yomg'irda sayr qilishni, na qora rangdagi kiyimlarni kiyishni yaxshi ko'raman. Na qu-yosh chiqishidan oldin uyg'onishni, na tun yarmida sohilda dam olishni yoqtiraman. Endi hech qachon ertalab uyqudan sakrab turishingni ham, dengiz bo'yidagi o'rindiqda o'tirganingni ham tomosha qiladigan odam bo'lmayman. Biz oyoqlarimizni ho'l qilib o'tirgan sohillar endi choy bog'chalariga to'la makon. Men endi kelayotgan to'lqinning ovozida ham, taningni silayotgan shamolning soyasida ham bo'lmayman.

Bundan keyin har gal eshicing taqillaganida eshik tagida turgan inson men bo'lmayman. Har gal qulog'ing qiziganda sen haqingda gapirovotgan odam bo'lmayman. Boshingga tushgan kulfatlarda vijdoningni so'roqlab o'tirma, xavotir olishing shart emas. Sendan

uzoq bo'lgan har yerda hayotga dosh bera olaman. Me-ni yaxshi deb hisobla.

*Bu ayriliq azobi emas, bu menin og'riqlarim.  
Ko'zlarimga go'yoki sevadigandek boqarding-ku,  
men ana o'sha „go'yoki“ larga ishonganimdan  
afsuslandim.*

O'zimni hayotning o'rtasida tiqilib  
qolgandek his qilyapman.  
Ichimda ulkan hayqiriq ovozi bor.  
Hammaga yetarsiz, o'zimga esa ortiqchaman.

## SIZ HAQSIZ, MEN NOHAQMAN!

Men o'zimni yomon holatga kelib qolgandek hisqilyapman. Hatto yomon holatga kelgan hamma narsadek.

Go'yo gunoh kabi, sharmandalik kabiman. Xuddiki hamma menga „Shu senga yarashdimi?“ deya tahqirlayotgandek. Odobi tufayli haqoratga javob qaytarmaydigan boladek hayratdaman. Mavzu nimaligidan qat'i nazar, xo'rangan va qo'lidan tutilmagandekman.

Sevgilisi bilan kechki ovqat o'rtasida cho'ntagidagi pulini hisoblay olmayotgan yosh yigit kabi bezovtaman. Kaltaklanishidan qo'rqbib, ko'zdan yiroq bo'layotgan odamdek qo'rquvdaman! Men qo'l uzatgan narsasiga yeta olmaydigan, qo'li tekkan barcha narsani quritadigan, qayergadir yashirinsa, birovning makoniga bostirib kirgandek haydaladigan, ko'zga ko'rinsa ham ko'rmaganga olinadigan odamga o'xshayman.

O'zini la'natlangan deb hisoblaydigan va shu sababli ishonganlarining barchasiga birin-ketin ishonihsidan voz kechgan inson kabiman...

\* \* \*

Men hamma narsa o'z yo'lida ketayotganiga ishonihsni istamasam-da, ular meni bunga ishontirishdi. Agar chindan ham hammasi joyida bo'lsa, demak bir ehtimol qoldi, u ham bo'lsa men noto'g'ri yo'lida ekan-

ligim. Bundan afsusdaman, juda afsusdaman, chunki men bundan boshqa yo'lni bilmayman.

Yo'lingizdan chiqqanim uchun afsusdaman. Hayotingizdan o'g'irlagan vaqtimning har bir soniyasi uchun afsusdaman. Sizdan ham, hayotingizdan ham kechirim so'rayman.

Menga nimani kutayotganimni o'zim ham bilmay kutishim uchun bir chekkani ko'rsating. Shunday burchakni ko'rsatingki, hech kim ega chiqmagan bo'lsin. Siz ko'zdan yiroq va yaroqsiz deb bilgan qayer bo'lsa, men o'sha yerni istayman. Siz u yerga aslo qadam bosmaydigan, borligim sizni bezovta qilmaydigan joy bo'lsin.

Men his qilayotgan narsa shuki, go'yo tark etilgan narsalarning barchasi menman. Bir uy, bir o'rindiq, bir shahar, bir ayol, bir ona, bir ota, bir erkak. Bugunga-cha tashlab ketilgan barcha narsalarning xarobaga aylangan holini ruhimda tashiyotganga o'xshayman. Bularning barchasini butun hujayralarim bilan his qilaman.

Bir insonning kaftidan oqqan hamma narsa mening kaftimdan ham o'tgandek bo'ladi. Qo'limda hech narsa bo'lmagani kabi, kaftlarim ham bo'm-bo'sh. Quvonchdan nima deyishni bilmay qolgan paytlaringizni o'ylang yoki qayg'udan, qo'rquvdan, hayajondan. Buni qanday ifodalashni bilmay qolgan o'sha lahzalaringiz. Bu qanchalik ifodasiz holat bo'lsa, men ham ana shunday nima deyishni bilmay qolgan tushunarsiz bir holatdaman.

Ruhiyatimning har holida sizning hissangiz bor.

Bilaman, aslida so'ramaysiz, lekin „qo'shilasanmi?“ deb so'raydigan har oningiz uchun endi yo'qman.

Sen menin qalbim dasan // Mehmet Erjan

Sizga ishonmayman.  
Ha, senga ham!

*Agar aytilmay qolgan so'zlar bo'lganida,  
men foydalanmagan alifbo qolmasdi, lekin yo'q!*

**MEN HAYOT DEB ATALMISH  
NARSANI YASHAYAPMAN:  
KAMCHILIGI SEN, ORTIG'I MEN.**

Qabul qilish ko'pincha ko'ndirilishdan kelib chiq-maydi.

Chorasiz qolasan, qo'lingdan hech narsa kelmay qolgani uchun oyoqqa turasan va ketasan.

Faqatgina ketishga kuching yetadi, qayerga ketylganiningni ham bilmasdan, hech qanday maqsad qo'ymasdan ketasan.

Hayotingni qolgan yarmida senga sevgisizlik hissi hamrohlik qiladi.

Bir kun kelib hayotning shovqini seni chalg'itadi. O'zingni qahqaha ichida topgan vaqtlarining qalbingda dardingni eslatuvchi nozik bir og'riq paydo bo'ladi. Sevilmaganiningni, ketishga majbur bo'lganiningni, qoch-qindek yo'lga ravona etilgan paytlaringni eslaysan. Biroz avval ko'zlariningni to'ldirgan qahqaha endi o'z o'rnnini mahzun nigohlarga qoldiradi.

Qolish uchun qanchalik harakat qilgan bo'lsang, barchasi ko'z oldingdan o'tadi.

Sen „Bu meniki“ deb aytgan ko'z, yurak, qo'l, yelka, bo'yin... O'zingni nimani egasi deb hisoblagan bo'l-sang, xuddi qo'llaringga tarsaki tushgandek barchasini o'z joyiga qaytib qo'yishga majbur bo'lasan.

Bo'yning yostiq va yotog'ingdan ajralgandek bir bo'shliqqa tushadi.

Bedor o'tayotgan tunlaring qo'ynida tobora so'lib boraverasan.

Kechasi uyqing chala qoladi, kunduzi kayfiyatning.  
Ko'ksingda nafasing yarim qoladi, ko'zlariningda boqishing.

Hayotingdagи yetishmayotgan kamchilik u, ortiq-chasi esa sen.

Eng yomoni, sevildim, deb o'ylagan yurakni aslida sevilmaganiga ishontirishga majbur bo'lasan, bu juda qiyin, hatto imkonsiz.

*Qabul qilish balki chorasizlikdir,  
ammo voz kechish emas.*

## DILARA

Shunchalik qo'rqayotgandimki, tushuntirib berolmayman. Go'yo o'sha kuni, albatta, nimadir bo'lardi va chap oyoq kiyimimni yechishga majbur bo'lib qolardim. O'sha on ikki barmog'imni ochiq qoldirgan te-shik paypog'imni hamma sinfdoshlarim ko'rib qolishi mumkin edi. Darsda nimalar o'rgatilsa ham, tanafusda nimalar bilan mashg'ul bo'lishimizdan qat'i nazar, xayolim yirtilgan paypog'imga aylanib taqalaverardi. Shu kunni oyoq kiyimimni yechishga majbur bo'lmasdan o'tkazib olsaydim, o'sha kun uchun boshqa tilagim yo'q edi. Bu yirtiq paypoq voqeasi menga hatto salkam kal bo'lgan sochlardan uyalayotganimi ni ham esimdan chiqarib yuborgandi.

Garchand, sochlарim uchun hech narsa qila olmasdim. Mardinning Qiziltepa mavzesidan Istanbulning Gungoren shahriga ko'chib kelganimga o'n kuncha bo'lgan edi va men ham, sochlарim ham katta shaharda o'qishga hali tayyor emas edik.

Istanbulga ko'chishimizni eshitgan onim juda hayron bo'lgan edim. O'shanda men his qilgan tuyg'u biroz qo'rquvga o'xshash edi. Qiziltepadagi o'rta maktabni boshlaganimga endigina olti kun bo'lgandi. Bir kuni kechqurun maktabdan kelganimda, eshik oldida turgan yuk mashinasini ko'rdim. Onam allaqachon nar-salarni yig'ishni boshlagan edi. „Tinchlikmi, oyi?“ – dedim. „Istanbulga ko'chyapmiz“, – dedi onam. „Qa-

chon?" – deb so'radim. „Ikki kundan keyin“, – deb javob berdi u. Yana „Tinchlikmi o'zi, oyi?“ – dedim. Onam „Insha Alloh tinchlik bo'ladi“, – deb javob berdi. Insha-alloh degani yoqimli, lekin onam aytganida men biroz bezvtalandim. So'ng boshqa hech narsa demadim. Oyoq kiyimimni yechib, uyga kirib ketdim.

Qiziltepada yashayotganimda, yirtiq paypog'imdan ozodliklarini e'lon qilgan barmoqlarim ko'p bor ko'ringandi, lekin bu u yerlarda muammo bo'lmasdi, chunki sinfda yoki mahallada ko'plab bolalarning barmoqlari xuddi shunday erkin muhitga tushib qolgan bo'lardi. Bizning paypoqlarimiz, odatda, yirtiq bo'lardi. Albatta, paypog'imiz bor bo'lsa.

Lekin bu Istanbul edi. Hali bola deb ataladigan yoshda bo'lsak ham, bir-birimiz uchun yaqin do'stga aylangan bo'lsak ham, oilalarimiz bosimi ostida o'r-tamizda madaniyat, maqom va iqtisodiy urush bor edi.

Masalan, sinfdoshim Esra Erjan. Familiyasi meniki bilan bir xil bo'lgani uchun Din madaniyati va Odob-axloq o'qituvchimiz „Siz qarindoshmisiz?“ – deb so'ragandi. Men javob berishga ulgurmasdan Esra: „Yo'o'o'q!“ – dedi. Biz 11 yoshda edik va Esranning „yo'q“ javobi aslida „Xudo ko'rsatmasin, buning nima aloqasi bor, bu bilan shunday bo'lishi mumkinmi?!“ degan ma'nolarga ega edi. Esranning javobidan keyin men javob berishga hojat sezmadim. Xohlasam ham javob bermasdim. Ayniqsa, o'sha yillarda men, odatda, ko'p narsaga javob bermasdim, ko'p savol ham bermasdim. Tashqi olamimda telbalardek oqayotgan hayot bor edi va men bu katta shaharning bir burchagiga o'tirib, hamma narsaning kelishi va ketishini tomosha qilishni xohlardim. Hatto hamma narsaning o'tmishini ham!

Qiziltepa tuprog'i nisbatan zichroq yer bo'lgani uchun sochim bir santimetrcha qilib kesilgandi. Maktabda o'g'il bolalarning sochlari undan ortmasligi kerak, degan qoida mavjud bo'lgan, bundan sizga ham ma'lumki, chang, tuproq bitlashimizga sabab bo'lishi mumkin edi. Biz o'rta maktab o'quvchisi bo'lganimiz uchun kostyum kiyishimiz kerak edi, lekin Istanbuldagidek to'q ko'k rangdagi pidjak va kulrang shim kiyish qoidasi yo'q edi. Rangi va naqshi qanday bo'lischen dan qat'i nazar, kostyum va shim kiyishimiz shart edi.

Shu tariqa Istanbulga keldim. Agar o'qiyotgan matabimning barcha o'quvchilarini mакtab bog'ida to'plasalar, barcha o'quvchilar orasida bирgina men ajralib turardim. Hamma o'quvchilar ko'k pidjak, kulrang shim kiyib, sochlari to'lqinlanib turgan bo'lsa, faqat men yoqali kostyumda turardim, shimimning rangi esimda yo'q, lekin kulrang emasligi aniq.

Gungoren Izzet Univer litseyida o'qishni boshlaganimga endigina o'n kun bo'lgan edi, men bu yerdagi yangi sinfdoshlarim bilan yaqin munosabat qura olmasligimni va o'zimni xuddi ular kabi tuta olmasligimni anglab, ichimdagi jarlikka qulashni boshlagandim. Sinfdagagi o'rni o'rta qatorning eng oxirgi partasi edi. Men o'z joyimni topgandek his qilardim. Menga o'x-shab orqa qatorlarda o'tirgan boshqa do'stlarim ham bor edi, lekin menga psixologik jihatdan o'zimni hamma narsaning eng orqasida turgandek his qilardim. Agar ular meni old o'rnlarga o'tkazib qo'yissa ham, bu ruhiyat bilan mening idrokim, o'zimni tutishim va kayfiyatim hali ham orqada qolgan bo'lardi.

Barchasini o'zimga singdirishga urindim. Bu hollatlarga tezda ko'nikdim. Darsda biror gapni aytish

kerak bo'lganda, uni uch marta xayolimda takrorlab, to'rtinchisida esa ovoz to'lqinlarimga yoyardim, lekin aytgan gaplarim baribir o'zim xohlaganimdek chiqmasdi.

Ona tomonidan arabcha, ota tomonidan esa kurdchada juda yaxshi gaplasha oladigan men xuddi shu sheva bilan turkcha gapirishga harakat qilganimda unlilarimning tovushi chiqmay qolardi. Undoshlarim esa navbat ularga kelmasin deya jim kutardi. Juda qiyin paytlar...

Adashmasam, uchinchi dars qo'ng'irog'i chalindi. Hamma sinfdoshlarim oshxonaga, maktab hovlisiga chiqish yoki boshqa sinfdagi o'rtoqlari bilan uchrasish uchun sinfdan yugurib chiqib ketishayotganlarida men hatto o'tirgan o'rnimdan ham turmadim. Birinchidan, oshxonadan biror narsa sotib olishga pulim yo'q edi, ikkinchidan, boshqa sinflarda do'stlar borligi u yoqda tursin, o'z sinfimda ham suhbatlashadigan birorta do'stim yo'q edi. Qolaversa, o'n daqiqalik tanaffus maktab hovlisiga chiqib kelishga ham arzimasdi. Yoki bu menin o'zimga bergen taskinim. Xullas, nima bo'lsa ham, o'n daqiqalik juda qisqa vaqt edi.

Bu o'ylar bilan stol ustiga qo'yib birlashtirayotgan barmoqlarimni kuzatarkanman, kimdir ikki qo'lini stolning ustiga qo'yanini sezdim. Uning orqasida turgan Chiydem va qo'llarini stolimning ustiga qo'ygan Dilara...

Dilara men hayotimda ko'rgan ikkinchi malla tanli qiz edi...

Birinchi sarg'ish qiz Tohir amakining to'ng'ich qizi bo'lib, mendan 6-7 yosh katta edi, Qiziltepada bir

mahallada yashardik. U mahallaning eng mashhur qizi edi. Mahallada unga o'xshagan sariq qiz yo'q edi. Ham go'zal edi, ham o'zi buni bilardi. Mahalladagi bir to'yda men bilan raqsga tushgandi. U opamiz qatori edi, lekin negadir men bilan raqsga tushgani meni tengdoshlarim nazarida boshqa bir pog'onaga ko'targandi. Bu osonmi axir? Dallas kinosidagi Lyusidek sarg'ish va kamida uning kabi go'zal bo'lgan qiz men bilan raqsga tushdi. Bundan ortiq nima ham bo'lsin!

Partaning ustida Dilaraning qo'llari, uning orqasida esa dugonasi kabi go'zal va „kare“ sochli Chiydem... „Men Deniz“ ismli qo'shiqchi tufayli „kare“ soch moda bo'lgan vaqt, sinfimizda sochlari xuddi shunday turmaklangan yagona qiz Chiydem edi... Aytgancha, xayolimga kelib qolgan payti yana yozay, mening sochlарим salkam kal edi!

Xonada hech kim yo'q vaqtin sinfning eng go'zal ikki qizi tepangga kelib tikilib turganida va gap boshlamoqchi bo'lganida, birdan sochlari yodiga tushish o'sha yoshdagи qiziqqon yigit uchun qanday holatlagini bilasizmi? Men bilaman!

„Keling, nimadir demoqchimisiz?“ demadim. „Tinchlikmi, Dilara“, demadim. „Nima bo'ldi, Dilara?“ deyolmadim. Shunchaki uning yuziga tikildim. „Dilara gapirishni boshlasa, bilmadim meni qaysi tarafimdan eziklaydi“, deb o'yladim.

„Qiziq, hozir meni qaysi jihatim bilan uyaltirmoqchi ekan“, deya o'zimcha variantlar qidirayotgandim. Bunday ehtimol yo'q edi-yu, lekin oyoq kiyimim oyo'g'imdan chiqib ketib, yirtilgan paypog'imni Dilara ko'rib qolgan bo'lishi mumkin, degan o'y ham o'tdi.

O'zimga ishonchim bor edi, lekin buni hatto o'zim ham bilmasdim. Chiroyli jumlalar tuza olardim, lekin turkcha shevam bunga uyg'un emasdi. O'rnimdan turib, ularga e'tibor bermay, hech narsa so'ramay, sinfdan chiqib ketishim mumkin edi, lekin o'sha paytda qo'rquv va hayajon qorishmasi bilan ukol qilingandek, tizzalarim bunga imkon bermasdi. Hayajonim qo'rquvimdan ustun keldi.

Dilara „Bir gap aytsam maylimi?“ – deya so'zini boshladi. Buning uchun mendan ruxsat olishi kerakligini o'ylagani ham menga g'alati tuyildi. Hatto ba'zi o'qituvchilarim ham barcha o'quvchilarning oldida „Davlat nima edi, bolakay?“ deya nojo'ya savollar so'rashlari, so'ng ustidan kulishlari, qayerlik ekanimni o'zlaricha taxmin qilishga urinishlarining oldida *Dilaraning menga nimadir deyish uchun avval mendan ruxsat so'rashi, albatta, juda ham g'alati edi.*

„Ha“ – deb javob berdim. Faqatgina ha.

„Chanoqqal'ada yozgi uyimiz bor“, – deb boshladi Dilara, qo'llari hamon stolimning ustida turar ekan. Uning bu gapi yoz kelganda meni o'z uylariga taklif qilish degani emasligini juda yaxshi bilardim. Gapini davom ettirishini istagandek ifoda bilan, mening ko'zlarimni partadan uzmay boshimning tepasida turgan Dilaraga yana bir bor „ha“ dedim.

„Dalahovlimizning katta bog'i bor“, – dedi u bu safar. Bog'larida men uni jinsi shim, yengsiz futbolka kiyib ikki daraxt orasiga osilgan arg'imchoqda tebranib o'tirganini tasavvur qildim. Lekin ko'z oldimga kelgan bu xayolda, albatta, men yo'q edim.

Dilara buni ham tushunganimga ishora qilishimi ni kutayotgandek edi. Ko'zlarim bir muddat Chiydem

tomonga tushdi va yana Dilaraga o'girildim. Chiydem ham mavzuni bilgandek, jilmayib turardi.

„Ha“ – dedim yana bir bor.

„Bog'imizda o'nga yaqin daraxt bor, yozda barglari katta-katta bo'ladi“, – deya gapini tugatdi. Bu safar yanada uzunroq gap aytgani uchun mavzuni tushuntirib bo'ldi, deb o'yladim, lekin yana nimadir deyishim kerakligini sezdim.

“Davom et“ degan ohangda „Xo'sh?“ – dedim. „O'sha barglarning ustida doim hasharotlar bo'ladi. Sen ana o'sha hasharotlarga o'xshaysan“, – dedi.

Chiydem bilan bir-biriga qarab, qo'l tashladilar. So'ng menga o'girilib, ustimdan kulishda davom etib, yonimdan uzoqlashishdi. Ikkisining sinfdan chiqib ketishini kuzatib turib: „Ha“, dedim yana, faqat o'zim eshitadigan past ovozda.

Meni qaysi hasharotga qiyoslaganini so'rash xayolimga kelmadni. Keyinroq so'rash esimga keldi, lekin bu safar so'ragim kelmadni. Meni tark etganlar kabi menden ham biror narsa kelmagani katta yo'qotish emas edi. Yosh bolanikidek aqli bilan menga aytgan gapidan juda qattiq ranjidim. Garchi bola bo'lsam-da...

Ehtimol, bu voqeaga Dilara meni o'xshatgan hasharot turi yo'q bo'lib ketadiganchalik uzoq vaqt o'tgandir, lekin men qayerda Dilara ismini eshitsam, hanzuz o'sha kuni ichimdan o'tganlarni qaytadan his qilaman.

O'sha maktabda bir chorak o'qiganimdan so'ng, boshqa tumanga ko'chib ketganimiz uchun Dilarani boshqa ko'rmadim. Yashayotgan bo'lsa, umri uzoq bo'lsin.

Meni qaysi hasharotga qiyoqlaganini esa hali ham bilmayman, lekin ba'zida ko'zim qora pashshalarga qa-dalib qoladi. Xuddi pul topib olgandek old oyoqlarini bir-biriga ishqab turadigan paytlari bor-ku, o'shanda ularni ko'rib kulgim keladi. Eh, Dilara!

*Maqsadimiz o'yindagi eng oxirgi „oqshom doyasi“  
kabi g'alaba bilan uyiga qaytgan bolalar bo'lish  
edi. Men esa na oxirgi, na birinchi, na kun va na  
yorug'lik bo'ldim. Bolaligimga zulmat  
erta cho'kkан edi.*

**Yolg'iz emasman, sensizman!**

## KET

Yarasini tark etayotgan qobiq kabi,  
Shoshib o'tayotgan tezlik kabi,  
Ichingga dard bo'laymi bir nomus kabi,  
Qamoqdan ozodlikka chopar kabi ket.

Hidimni qirq yomg'ir bilan yuvgan ustingdan,  
Ismimni shamolga tushir tilingdan,  
G'ururlan qilgan o'sha aybingdan,  
Meni gunohing bil, savobingga ket.

Tutingan sochingdan quvlab sol meni,  
Yaralangan yerimdan oqqan qon kabi,  
O'tmishingda qolgan bir zamon kabi,  
Kundek ravshan siringni saqlar bo'lib ket.

O'chsin peshonangdan labim izlari,  
Boshqa nigohlarga boqsin ko'zlarin,  
Chalg'itmasin menga bo'lgan hislarin,  
Meni yo'qdek ko'rsatishga hozir bo'lib ket.

Yulib ot qalbingdan bir armon kabi,  
Kutilmagan bir onda tasodif kabi,  
„Bitdimi?“ deyishsa, „shunday“ der kabi,  
Yangi sahifani boshlar kabi ket.

Chiqib ket aqlimning chegarasidan,  
Qaytib aslo ichimga tushmasin yo'ling.  
Uzoqlash bugun va ertalarimdan,  
Qalbimga bir bora kirmas bo'lib ket.

Qamoqdan uyingga chopar kabi ket,  
Meni gunohing bil, savobingga ket.  
Kundek ravshan siringni saqlar bo'lib ket,  
Meni yo'qdek ko'rsatishga hozir bo'lib ket.

## BUTUNLAY TELBAGA AYLANMA!

Boshida bir davrada bo'lganining uchun hayajondan qo'llaring va oyoqlaring titraydi. Ko'zing ko'ziga tushishi uchun kiprik qoqmay unga diqqat qilasan. Shu darajadaki, sen hatto o'z ko'zingga ham ishonolmay, do'stlaringdan „Qara, u menga qaramayaptimi?“ deb so'raysan. Tilaging amalga oshadi, birozdan so'ng, o'zingni u bilan ko'zma-ko'z holda topasan. Keyin shunday kunlar ham keladi, qalbing o'rtanadi. Azoblanasan. Hatto nima uchun bunday bo'lganini o'zing ham bilmaydigan sabablar tufayli ko'p azob chekasan!

So'ng yana xuddi o'sha muhitga tushasan, qo'l-oyog'ing bu safar hayajondan emas, g'azabdan titraydi. Ko'z-ko'zga tushmasligi uchun ko'zlarining yumib olishni xohlaysan. Hech bo'limganda boshqa tarafga qarash uchun qo'lingdan kelganicha urinasan.

Ko'z-ko'zga tushishi yoki tushmasligi uchun harakat qilishing, qo'llaring va oyoqlaring hayajondan yoki g'azabdan titrashi faqat yuragingga bog'liq bo'l-gan holatdir. Na ko'zlarining nima uchun qarash yoki qaramaslikni xohlashingni va na qo'l-oyog'ing nima sababli titrayotganini bildi.

Avval va keyin o'rtasidagi yagona farq bu sening parchalangan yuragingdir.

**Oldinlari „koshki, men bu tuyg'ularni  
his qilsam edi“, deganlarining boshingdan**

**o'tganidan so'ng „koshki, men bu tuyg'uni  
hech qachon his qilmasam edi“ so'zlariga  
aylanib, afsus chekkandirsan.**

Qalbing jarohatlansa, o'z qobig'ingga chekinasan. Agar inson shunchaki xafa bo'lsa, u sukunat ichida. Ammo agar o'sha qalb yarasini yangilab turuvchi g'azab ham bo'lsa, u holda ba'zi-ba'zida u odamiylikdan ham chiqib ketishi mumkin.

Seni insoniylikda ushlab turadigan ham, undan mahrum qiladigan ham bir insondir.

Ayb unda ham, boshqalarda ham emas.

## Bu sening aybing!

Sevgingga fidokorlik qilayotganiningni o'ylab aslida o'zingni fido qilasan. O'zingga kuch topishingni o'ylab o'zligingni topa olmaydigan darajada yo'qotasan. Sen- da o'rni yo'qligiga qaramay, „men bilan qolsin“, deya uni mehmon qilishga urinsang, boshdan kechirayot- ganlaring ham tabiiy holga aylanadi.

Hech kimni sevma, demayman. Ammo sevgingga yarasha javob ololmasang ham, sevishda davom eta olasanmi, buni o'ylab ko'r. Ha, to'g'ri, sevish insonning qo'lida bo'ladijan narsa emas, „sevmayman“, deya olmaysan, bunga qarshilik qilolmaysan. „Sevaman“, ham deyolmaysan, bunga ham qarshilik qilish mushkul. Lekin hech bo'limganda me'yorni bil.

Sen undan ham yaxshirog'iga loyiqmisan yoki usenga loyiq emasmi, buni bilmadim. Lekin bilganim shuki, iltimos, nima qilsang ham, qanday yashasang ham, oynaga qaraganingda o'z ko'zlaringga qaray olmaydigan darajada o'zingni xarob qilma.

Istaganingcha sev, lekin sevilishni istaydigan ho-  
latga tushishingga yo'l qo'yma!

Bu hayotdir, azizam,  
boshidan oxirigacha g'urbatdir,  
tuproq ustida biroz vaqt yalangoyoq  
yugurib yurasan, keyin esa tagida  
yalang'och holda ezilib yotasan.

## **ISHONASANMI, ISHONARLI EMASDING, LEKIN MEN ISHONDIM!**

Yo'q, aslo bunday o'ylama, men sendan xafa bo'lishim mumkinmi, axir. Men senga to'laqonli ishondim va oxirgi lahzada „Meni kechir“ deb, mendan o'zimni ko'r qilib ko'rsatishimni xohlayapsan. Bu yerda xafa bo'ladigan nima bor? Hech qanday ahamiyatga ega emas! Sen ham meni to'laqonli sevishingni aytarding, jumlalaringda seni va meni „biz“ deya tilga olarding.

Qo'limni tutganlaring ham muhim emas, bu zamonda qo'l ushslashish bilan nima bo'lardi? Mana qara, men ham o'z qo'limni tuta olaman. Bunda ahamiyatga arzirli hech narsa yo'q. Shunchaki yo'ldan o'tayotganda sen qo'limdan ushlab yo'lning u tarafiga o'tkazib qo'ygandek tasavvur qilyapman. Yo'lning o'rtasida xuddi sen qo'limni qo'yib yuborgandek his qilganim mening aybim bo'la qolsin.

Sevimli taomlaringni yodda tutdim, sen sevgan joylarni yodimga saqlashga harakat qildim, qanday muammong bo'lsa, o'z dardimdan oldin ularni o'yladim, sen uchun qo'limdan kelganini qildim. Bularning hech qanday ahamiyati yo'q. Bularning barchasini bir urinishda, bir onda unutaman, afsuslanishga hojat yo'q, albatta. Sanab o'tganlarim uchun o'zimni butunlay fido qilibman, lekin o'lib qolganim yo'q. To'g'ri aytasan, hayot davom etadi.

Haqsan, seni tez orada unutaman. Hatto aytgанингдек, менинг yo'limda yanada go'zal va yaxshirog'i

paydo bo'ladi. Men ham doim yanada go'zal va yax-shirog'ini qidirgan edim, u bilan yanada baxtli bo'laman, xuddi sen aytganingdek. Fikringga qo'shilaman, buni bayram qilish kerak, qidiramiz bir-birimizni, axir biz insonmiz.

Bilasanmi, yo'qmi, bilmadim, lekin yurak bu, yurak! Sen aqlimga shunchalik singib ketgan edingki, u hatto meni emas, seni o'ylashdan boshqa hech narsa qila olmay qo'ydi. Endi unutishim kerak, shundaymi?

Tilingga muhrlagan „sevgilim“ jumlesi uchun, hech o'ylamay sarflagan „seni sevaman“ va „sensiz yashay olmayman“, deb aytgan yolg'onlaring uchun rahmat!

*Agar bir kun ichingdan menga qo'ng'iroq qilish*

*xayoli o'tsa, o'tib ketishini kut!*

*„Iltimos, keyinroq qayta urinib ko'ring“, deganida*

*qaytadan urinib ko'rma!*

## **INSON BO'LISH UCHUN DUNYOGA KELDING, DOIMO INSON BO'L**

Hamma narsaning bahosi bor deb o'ylaydiganlar-dan uzoqroq yur. O'z narxini biladiganlar senga ham narx qo'yishga harakat qilishadi.

Sen butun borlig'ing bilan qadrli bo'lsang-da, bunga loyiq bo'lmanalar seni qadring bilan emas, balki raqamlar bilan ifodalashga urinishadi.

Yerda topgan narsasini olish uchun egilganlar, sen nima uchun tik turganiningni hech qachon tushuna ol-maydilar. Tushuntirishga ham ovora bo'lma. O'z qadr-qimmatningni boshingda ko'tarayotgandek yur. Ko'z o'ngingda bir-birini ko'rmagandek tutadiganlarga atayin ko'zingni uzmay qara.

G'alaba ham, mag'lubiyat ham bir poyganing nati-jasidir. Boshqalar seni yengildi, deb o'ylasin, lekin sen avval o'zingni yeng. Hayoting davomida seni olqish-laydigan hech kimni topa olmasang ham, uni izlama. Ichingdagi bo'ronlarni ko'ra olmaganlar yuzingdagi sokinlik sababini ham bilmasinlar.

Turgan holating jismoniy emas, balki viqorli bo'l-sin. Barcha charchog'ing tushuntirishga urinishdan emas, balki tushunishga urinishdan bo'lsin. O'qish uchun alifbolarga emas, qo'llaringga qara. Kaftingni isi-tish uchun puflagan tilingga ishon.

Bu dunyoda ko'zlariningdan oqib, yonoqlaringni yo'lga aylantirgan ko'z yoshingchalik to'g'ri yo'lni to-

polmaysan. Yurish shart emas, to'xtab qarashning o'zi senga yo'l ko'rsatadi.

Ko'rish emas, qarash kerak!

Ichingda o'z vaqtini kutayotgan his-tuyg'ular bor. Na yig'lashni va na kulishni kechiktirma. To'yish uchun kimnidir to'ydira oladigan odam bo'lish hissi qadar seni qoniqtira oladigan boshqa tuyg'u yo'q. Yo'-qotishni kutmasdan, baham ko'rishni tanla. Senga „inson“ ekanligingni unutishga majbur qiladigan ming-lab odamlarni uchratasan. „Mamnun bo'ldim“, deyadeya o'zingga nisbatan mammuniyatsizlikni yaratma.

Xohlasang-xohlamasang, to'xtasang yoki yugursang, doim uxlasang yoki hushingdan ketguncha uyg'oq bo'lishga harakat qilsang-da, yo'lni xohlaganining-cha cho'zishga qanchalik harakat qilsang ham baribir oxiriga yetasan.

Ajal kelib seni topmaydi, sen aslida u tomon ketayotgan bo'lsan.

Sen yelkangga dunyoni yuklab olish uchun dunyoga kelmading. Yuklangan holda dunyoni tark eta olmaysan.

***Sirotdan oyoq bilan emas, qalb bilan o'tiladi.***

***Uni pok saqla...***

**YURAGIM SENI AQLIMGA JOYLADI.  
BU MEN ICHIGA TUSHGAN ENG GO'ZAL  
ERTAK EDI**

Ha, tan olaman, menga his qildirgan tuyg'ularing ajoyib ertak edi. U meni shu yoshimdan tortib, bola-ligimga olib bordi. Lekin hozir senga bo'lgan his-tuyg'ularimning nomini yanglishlik desam xato bo'lmaydi. Mag'lubiyat deyishim ham mumkin. Oxiri qayg'uli yakunlangan bu ertakdan bir aybdor qidirib, aldandim desam, doim men shikoyat qiladigan nohaqlikni bu safar men amalga oshirishgan bo'lardim. Men senga aldandim. Kamiga o'zim xohlab aldandim.

Nigohing noqonuniy qurolga o'xshardi, menga boqqan ko'zlaringga mag'lub bo'ldim va aldandim. Seni bunchalik sevishimga sababchi senmiding yoki menmi, bilmadim, lekin qalbimni bularning hech biri qiziqtirmasdi.

Yomg'ir kabi eding, birdan boshimga yog'gan. Gap-laringni doim qisqa aytarding. Seni sevaman, deganda, sog'indim deganda, kel, deganda, kunning har lahzasi, oqshom yoki tongda ham.

Va ketayotganingda ham...

*Bu bir tush kabi edi,  
shuning uchun uzoq davom etmadi...*

Jarlikning eng chuqur yeridaman.  
Hanuz o'lmadim, lekin go'yo tirik ham  
emasman.

## **QAROR QILDIM, BOSHQA QAROR OLMAYMAN!**

“Ming bor o’ldirilgan bo’lsang ham, bir bor o’ldirgan bo’lma”, degan naqlni eshitganidan beri nafaqat ozor berishdan, balki bunga urinishdan ham qo’rqaman. Hayotda hech narsa bir insondan qimmatli emasligiga o’zimni ishontirib, doim go’zal qalbli bo’lishga harakat qildim.

“Ming marta zulmga duchor bo’lgan bo’lsang ham, bir marta ham zulm o’tkazuvchi bo’lma”, degan so’zlar bilan yashagan hayotimni necha oqshom hisobkitob qildim, bilmayman. Kimgadir qilgan haqsizligim bo’lishi mumkinmi yoki yo’qligini bilish uchun o’zimni necha marta haqsizga chiqarganimni sanab ko’rmasdim.

Men yolg’on gapirgan odam bo’lishdan ko’ra yolg’onga ishongan sodda inson bo’lishning sof holatini sevishga harakat qildim. Soddalikni poklikka, uni saqlash g’ayratiga tenglashtirdim. Bu ahmoqona tuyilishi mumkin bo’lsa-da, bu dunyoda ahmoq bo’lib qolishga ham rozi edim.

Men baham ko’rish baxtini anglaganimdan beri, hozirgacha tejash uchun qilgan harakatlarim meni aslida qanchalik charchatganini tushunib yetdim. Qolaversa, to’plaganlarim menga yuk bo’lishdan boshqa foyda keltirmasligini ham tushundim.

Turli ashyolarni qo’llarini ko’tarib, „kim buni xohlaydi”, deyishganda indamay, harakat ham qilmay,

unga ega bo'ldim. Ba'zilarning u nima bo'lsa ham o'sha narsa uchun bir-birlarining qo'llarini, oyoqlarini va qalblarini ezib, talpinganlari qadar hech narsa meni ranjitmadni. Ming marta nohaqlikka uchrasamda, bir marta ham baqirishga urinmadim. Na kaftimda biror narsani yashirish uchun, na jang qilish uchun mushtlarimni siqib olmadim. Mag'lubiyatlarni oldindan qabul qildim. Yashirish o'rniga kaftlarimni ochib, kimga nima kerak bo'lsa, olib ketishini kutardim. Qo'yib yuboring, ketaversinlar, qolganlari yukdir. Menga hatto o'zim ham bu qadar og'irlilik qilayotgan bir paytda, boshqa yukni ko'tara olmasligimni angladim va yengil tortdim.

Men „g'alaba“ nomi ostida qanday qoidalar to'plami bo'lsa, hammasini rad etdim.

Ular menga „baxt“ deb bergen barcha bo'laklardan voz kechdim. „Chiqar“ deb aytgan nimalari bo'lsa, barchasini hayotimdan chiqardim.

Yangi qarorlar qabul qilish-qilmaslik haqidagi be-qarorlikdan xalos bo'ldim va qaror qildim. Endi hech qanday qaror qabul qilmaslikka harakat qilaman. Bu hayotimdagagi eng yaxshi qaror bo'ldi. Chunki hech qachon qilgan qarorlarimni amalga oshirolmadim. Hayotimda meni o'zimdan uzoqlashtiradigan nimalar dan voz kechgan bo'lsam, ularni hayotimdan chiqarganimdan so'ng ortda bir o'zim qoldim. Kaftimda qolgan narsa faqat o'zim.

Men o'zimga yetarli bo'lishni o'rganganimda va buni uddalaganimda, tashqi tomondan qadamlarim uzildi, o'zimni ichki olamimda topdim. O'zimni olib, bir burchakka chekindim. Hammaning va hamma narsaning o'tishini kuzatdim.

Vaqtning, qayg'uning, janjal va xavotirning o'tishini.

Sukunat, o'zimdan bo'lak kimsasiz...

*Foydasini ko'rgan hamma narsaning  
narxini so'raganlarga  
.Joningiz sog' bo'lsin, kerak emas", dedim.  
Hayotning narxi yo'q, qiymati bor.*

## **SHUNCHAKI XAFA BO'LMADIM, PARCHALANDIM!**

Ortiq...

Sen boshqasiga suyukli bo'lishing mumkin, lekin menga yor bo'lomaysan.

Sen boshqasiga do'st bo'lishing mumkin, lekin menga tanish ham bo'lomaysan.

Boshqasiga sirdosh bo'lishing mumkin, lekin men bilan tik oyoqda ham suhbat qurolmay-san.

Boshqasiga dunyo bo'lishing mumkin, lekin menga bir kunlik xayol ham bo'lmaysan.

Boshqasi bilan salomlashishing mumkin, lekin mendan alik ham olomaysan.

Boshqasiga „xayrli kun“ deyishing mumkin, lekin mendan senga aslo quyosh chiqmas.

Boshqasiga har narsa bo'lishing mumkin-u, ammo mendan senga hech narsa bo'lmas.

Bundan so'ng, yo'limning oxiri bo'lsang, men u yo'ldan qaytaman.

Eshiklarim senga ochilsa, men devorlar o'raman.

Folimda chiqma, deya qahva ichishni, qarshimdan chiqma deya shaharni tark etaman.

Ko'chamdan o'tsang, qarash u yoqda tursin, isming tilga olinsa, mavzularni yopaman.

Nafas bo'lsang, olmayman.

Havas bo'lsang, qilmayman.

Shifo bo'lsang, dardimga rozi bo'lsam bo'laman-u,  
ammo senga qaytmayman.

*Balki seni osmon-u falakka sig'dira olmaslar,  
lekin menda yuragim hajmichalik ham o'rning yo'q.  
Bu seni xavotirga qo'yadimi, yo'qmi, bilmadim-u,  
lekin bu sevgi ortiq seni sevikli o'rniga qo'ymas.*

**O'SHA KATTA MAYDONDA  
SIZNI KUTAYOTGAN BO'LAMAN,  
BO'YNINGIZDA GUNOHIM,  
QO'LIMDA HAQQIM BILAN!**

Shuni ham unutmang: siz sababli ichimga yutishga majbur bo'lgan barcha his-tuyg'ularimning o'chini olaman sizdan!

Kechiktirishga majbur bo'lgan nimam bor bo'lsa, uni hayotimning oxirgi kuniga sig'dirishim kerak bo'lسا ham, albatta, bajaraman va sizdan buning uchun ham qasos olaman.

Siz nimaga ishonasiz, muqaddas deb hisoblaydiganingiz nima, bilmayman, lekin siz ishongan barcha qadriyatlarga qasamki, bir kun sizga shunday tepki beraman, jon hovuringiz bilan kim tepdi, deya ortingizga qarab ulgurmasingizdan yodingizga kelaman.

Sizdan yana bir zarba yemasdan u yerdan qochayotib, „Menman, ha, men! Siz o'g'irlagan va ziyon yetkazgan barcha tuyg'ularim uchun sizga bu zarbani bergen menman!“ deya uzoqlashaman. So'ngra meni istaganingizcha kaltaklang, zotan hech bir mushtingiz sizga doim ishonib, yanglishganimni ko'rganimchalik joniimni azoblay olmaydi.

Bir ayolni, bir bolani, Vatanni, bir jamoani, sevish mumkin bo'lgan barcha narsalarni qanday sevish kerakligini menga o'z tuyg'ularingiz bilan ko'rsatishga urindingiz. Hatto buni uddaladingiz ham!

Siz meni o'zingiz kabi bo'lishga majbur qildingiz.  
Siz ortiqcha deb hisoblaydigan har qanday narsani  
men ham ortiqchadek ko'rishimni xohladingiz.

Q'lingizdan kelmagan nimaiki bo'lsa, men ham  
unga dushman bo'lishimni istardingiz, men buni baja-  
ra olishimga yo'l qo'y madingiz.

Yordamingiz bilan chorasizliklarga ham ko'nikish-  
ni o'rgandim. Go'yoki, menin yo'limni belgilaydigan  
ham, bu yo'llarga tuzoq qo'ygan ham siz edingiz.

Muhabbat mezoniga shakl bergen va unga daraja  
yaratgan siz edingiz!

Oling, o'pib, boshingizga qo'ying, madad kutgan  
qo'llaringizni!

Odamning kafti nega o'pilmasin!

Men dardimni hech kim bilmaydigan tilda baqi-  
rib aytgim keldi, shunda ham shiorlarni siz belgila-  
dingiz!

Bir soniyasini ham qaytara olmaydigan yagona mu-  
qaddas narsam – bu vaqt edi va siz uni bir ishga bog'-  
lab, foydasini o'zingizga olaverdingiz!

Hozir qo'limda Hafiza onadan yodgor bo'lib qol-  
gan soatni aylantirib-aylantirib, hozirgi vaqtga to'g'ri-  
layapman!

Aynan shu damga. Qo'limda meniki deb ayta oli-  
shim mumkin bo'lgan hamma narsa uchun!

Men bu soatni istaganimcha jaranglatib, faryodli  
hayqirig'im bilan hamma narsaga nuqta qo'yganim-  
dan so'ng, siz to'xtagan joyingizdan yo'lingizda da-  
vom eting! Men hali yo'l yaratilmasidan avval yaratil-  
dim! Siz ifloslangan oyoq kiyimlar ingiz bilan dunyom-  
ni oyoq osti qilmasingizdan avval yaratildim!

Ruhimga kiydirilgan tanim dunyoga keldi. Siz men-  
ga tiktilgan yoqali kostyumlar ingizni kiydirib, uning

tugmalarini qanday taqish kerakligini uqtirishingizdan ancha oldin tug'ilganman!

Siz dunyo bilan to'ldirgan yuragingiz bir kun og'irlikdan to'xtash nuqtasiga kelib qolsa, har tomonini dunyo bilan bulg'agan badanizingizni yuvish uchun toza suv topolmayotganingizda, men o'zim yaralgan tuproq bilan yuzma-yuz bo'lган bo'laman. Qanday baxt!

Meni bundan keyin ko'radigan birinchi joyingiz siz istasangiz ham, istamasangiz ham kelishga majbur bo'lган, o'sha Mahshar atalmish maydon bo'ladi, men u yerda sizni ishora qilib, Allohga shikoyat qilayotgan bo'laman!

Agar zarracha bo'lsa-da, haqqim bo'lsa, men bu haqdan, mening bir martalik bo'lган dunyodagi huquqlarimni o'g'irlaganingiz uchun qiyomat maydonida sizga qarshi foydalanaman!

*Va sen!*

*Ismimni zaboniga noloyiq ko'rghan go'zal ayol,  
Menga ortiqcha deb hisoblagan sevgingni  
haqqi uchun  
yetti iqlimning yomg'iri bilan cho'milsang ham,  
qalbing bu g'uslni qabul qilmaydi.*

**Go'zal kunlar bizdan yiroq bo'lishi mumkin,  
lekin baribir sen menga yaqin bo'l.**

## **UNDAY KETILMAYDI! BUNDAY QOLINADI!**

Go'yoki barchamizning umumiy jihatimiz, mavzumiz va dard-u tashvishimiz sensan. Yo'qligingda tilimiz so'zga bormaydi. Buni ketganingdan keyin tu-shunib yetdim: do'st-u birodar, kim bo'lsa ham, men u bilan faqat sen haqingda gapirar ekanman, mavzumiz doim sen bo'lgan ekansan. Buni bir marta o'zingga ham aytgandim, sen esa kulganding. „Mendan boshqa dardingiz yo'qmi?“ degan eding. Chindan ham boshqa dardimiz bo'lмаган екан.

Mendan hech kim „Senga nima bo'ldi?“ deb so'-ramaydi, sababi sening yo'qligingni bilishadi. „Nima-dir kerakmi?“ deb ham so'ramaydilar, chunki ular men-ga faqat sen yetishmasligingni bilishadi. Aslida ular to'g'ri o'ylashadi.

Haq ekansan. Menga bu nihoya haqida ko'p aytganding, lekin men seni shunchalik sevibmanki, aytganlarining hech qachon o'ylab ko'rmagan ekanman.

Inson o'z hayotida o'zi uchun ham maydon qol-dirishi kerak ekan. Men o'zimga tegishli bo'lgan ni-maiki bo'lsa, barchasini senga bag'ishlabman, sen ham ularning hammasini olib, hayotimni tark etding, nati-jada o'z hayotimda hatto o'zimga o'rinn qolmagandek his qilyapman.

Sen doim „Bizni faqat o'lim ajrata oladi“, deb ay-tarding, aslida bu shunchaki qo'shiq so'zlari ekan.

*Sen menin qalbim dasan // Mehmet Erjan*

*Har gal boshqa birovga  
„Seni sevaman“, degan ingda  
Ovozimni muhrlagan qulog'ingni  
qizitaman!*

## TOPILAR

Asrab-avaylaganing o'zgada huzur topar,  
Ohim misli va bol atrofingda aylanar.  
Qilgan orzularing shamolda to'zg'ib ketar,  
Qalb qafasida bir kun jon taslim etar.

Sevildim deb o'ylaysan ishq kelganida  
O'zingni topasan havas asirligida.  
Aqling seni tark etib, men tomon kelganida  
Mening ko'ngil taxtimni boshqa biri egallar.

Neki bo'lsa ixtiyorimda, bag'ishladim poyingga  
Balandparvoz ikki so'zning tushding tuzoqlariga.  
Istasang yaqiningda izla, istasang uzoqlarda,  
Sen keltirgan to'fonlar aks etadi ko'zlarda.

Men edim-ku, qalbida huzur topganing,  
Bu dunyo yetmas deya jannatni tilaganing.  
Xayrini ko'rsin endi tushlariga kirganing,  
Zulmatdagi kunlarim shafaqlarga tutashar.

Har bir tola sochingda izi bordir kaftimning  
Tili bo'lsa shaharning, ko'chasi-yu, bekatning.  
Ismimizni hayqirar har yo'li ko'chasining,  
Sen yopgan eshiklarni ochguvchi ham topilar.

Endi har bir kuningni men yo'qdek yashayvergin,  
Sen intilgan bahoqlar albat qishga aylanar.  
Derazadan boqqaning har yomg'ir tomchisida  
Ko'z yoshlarim artguvchi bir kun albat topilar.

Ismimni eshitasan o'zga siymolarda  
Bir omnini kutadi duolar kaftingda.  
Uyg'on deya kutarkan boshqasi qoshingda,  
Kunimni yoritguvchi bir kun albat topilar.

Bir kechada ko'z ochsang chuqur uyqularingdan  
"O'ldi" deya xabarim qulog'ingda yangraydi.  
Tizzalarimga qo'yilgan boshing doim sog' bo'lsin,  
Meni sendan poklab, yig'laganim topilar.

## MEN SENI SEVARDIM, SEN ESA BOSHQASINI...

Ikki yaqin do'st edik. Ammo qo'limdan kelsaydi, yuzingni boshqa hech qachon ko'rishni istamasdim. Bu tuyg'uning sababi nafrat emas, bil'aks, senga nisbatan his etganim ishq edi.

Ko'pi bilan bir kun ko'rishmas, ammo ertasi kuni muhaqqaq uchrashardik. Sen mavzuni to'g'ridan to'g'-ri u bilan ocharding va yana u bilan yakunlarding. Sen sababli hayotimda umuman ko'rmagan insonimning ismidan, bo'yidan, qoshidan, ko'zidan, so'zidan, borligidan... Hamma narsasidan nafratlandim.

Barcha uchrashuvlarimizni bir-biriga qo'shsang, necha soat bo'lsa ham, sen bir-ikki so'zga yetadigan vaqtda sukut saqlasang, men shu vaqtga „Seni sevaman“ jumlasini sig'dira olardim. Ammo sukut saqlamading.

Sendan yuz qirq besh ming jumla eshitdim, ammo hech birining tamalida men yo'q edim. Menden bir bor bo'lsa ham hatto „Nima qilyapsan?“ deb so'ramadingki, senga „Nima qilay, men ham senga oshiqman“, deya javob bersam.

Sochlaring u sevgani kabi uzun edi, ammo uning bundan xabari yo'q edi hatto. U sening sochlaring haqida hech narsa bilmaydigan bir paytda, men necha tola ekanini yoddan bilardim. Qomating ham u xohishiga mos edi, ammo sening yuzingga hatto nazar solmasdi.

Mendan so'rasayding, ko'zlarining chetida qancha ajin borligini bir onda aytardim.

Menga so'zlab bergenlaringga ko'ra, bir kun bo'lsa ham „Nima bo'ldi?“ deb so'ramagan, ammo men senga nima bo'lganini qo'ya tur, nima bo'limganini ham aytardim.

Hayotingda bo'limgan yagona narsa menin borligim edi, ammo buni senga bir marotaba bo'lsa ham ayta olmadim. Sen boshqasi bilan shunchalar band edingki, menga birgina bo'lsa ham jumla ajratmasding.

„Xastamisan?“ deya so'rading, „Sen sababli bedorman“, deya olmadim.

Onamni, dadamni, yetti avlodimni tanirding, hammasini so'rarding-u, mendan men haqimda so'rash bir kun bo'lsa ham xayolingga kelmadi.

So'ngra bir kuni yugurgancha kelding. Yonimga kelarding, ammo men uchun emas. Yuzingdagi quvonchdan angladim, zero, men u yuzni yuz yildan buyon taniydigandek bilardim. Har kuni ko'zguda ko'rgandek bilardim.

„Bilasanmi, menga „Qanchalar go'zalsan“, dedi“, – degancha o'tirding qarshimga.

Senga „Baxtli bo'l“ – der ekanman, osmonimdag'i quyosh zulmatga cho'mdi. Ko'zlariningdagi yorug'lik sababli men ko'milgan zulmatni ko'rmading.

*Sen boshqasi uchun umid qilar ekansan,  
men senga zorligimdan jon taslim etayotgandim.  
Ko'rmading.*

## **SEN SUYUKLIGIMSAN. MEN-CHI, MEN KIMMAN?!**

Xayol go'yo meniki, ammo na meni, na boshqa narsani o'laydi. Faqatgina seni o'laydi. Qachonki sendan xavotir olsam, xayolimdasan. Qachonki „Nima qilyapti ekan, ajabo?” deya o'ylasam, xayollarimni egallab olasan.

Aqlimni taniganimdan beri shu qalbni ko'ksimda olib yuribman, ammo seni ko'rGANIMdan beri bu qalb seni ko'tarib yuribdi.

Sochlарим go'yo meniki, ammo sen uchun tekislayman. Tanlagan liboslаримning rangi ham sen sevgan ranglar.

Avtobus kutadigan bekatim sen tushgan bekatdir, yo'naliшim sen borayotgan joydir. Tinglagen barcha qo'shiqlарим sen sevgan qo'shiqlar, dardimni so'zlaydigan navolar esa sen bilmaganlar.

Qaysi kunlarda sochingni turmaklashingni, qaysi kunlarda qaysi bo'yinbog'ni taqqaniningni bilaman. Kinoteatrغا qaysi filmni tomosha qilish uchun borganningni qo'ya tur, kutish zalida qaysi filmning reklamasiga qaraganiningni bilaman.

Uydan chiqayotganingda qaysi mushukka qanday ozuqa berishingni, suv quyadigan o'sha idishingni nechi kunda yuvishingni bilaman.

Endi meni anglasang, hech bir masofa sen bilan oramizdagи masofa qadar olis bo'lolmaydi.

Sen meni tanimagan, ammo men seni deya yashagan har onni yig'ib, qarshingga bir daqiqaga chiqsam va „Seni juda sevaman“ desam, katta ehtimol bilan se ning birgina javobing „Sen kimsan?“ bo'ladi.

Zero savoling to'g'ri. Sen suyukligimsan, ammo men kimman? Menga qolsa men „sen“ga aylanaman, ammo sening nazdingda faqatgina begonaman.

Men „sen“ bo'lish uchun telbalarcha urinar ekan man, sen meni ikki daqqa tinglashga loyiq deb top maysan.

Yetmaganidek, mendan yuz o'girib ketasan.

*Vaholanki, men seni ko'zlariningdan o'qiymen.*

*Har bir holatingni yoddan bilaman.*

*Yuzingda huzun paydo bo'lsa,*

*Umrim ado bo'ladi.*

*Unday qilma, yolvoraman!*

So'ngra seni yodga olishlarim kamaydi.  
Yomg'ir ostida poklangandek xalos bo'ldim  
iforingdan.

Ismingni eshitdim, ammo eshitmaslikka ol-  
dim.

Hech kim senga o'xshamasdi, ammo sen har  
kim kabisan endi.

Sen sababli xo'rsinmay qo'ydim.  
Yo'qligingdan ayrilib, borligimga yetishdim.  
Quvonchlarimning sababi o'zgardi.  
Sendan ranjigan, g'azablangan edim, o'tib  
ketmaydi deb o'ylagandim, ammo o'tdi.  
"So'nggida o'lim yo'q", deganding, haqli  
ekansan, so'nggida ko'rdim.  
"Unutma, unutaman", degandim, menga ha-  
misha ishonganing kabi bunga ham ishon,  
Unutdim.

**SEN HAQINGDA FAQATGINA YOZADILAR,  
MEN ESA SENI KUYLAYMAN.  
DOSTONLAR KABI...**

Tirnog'ing sinsa tashvishlanarding, biroq qalbim singanida parvo qilmading. Sochingni ranglarga bo'yash bilan ovora bo'lding, biroq meni zulmatdan chiqarishga urinmading. Internetdan buyurtma berib, hayajon bilan kutding, ammo meni bu qadar ham kutmading.

Sen yomg'irni sevarding, men bilan shalabbo bo'lishni emas. Sen quyoshni sevding, men bilan shafaqni kuzatishni emas. Shafaqni ham qo'ya tur, hatto quyosh botishini ham kuzata olmadik!

Shunday munosabatda bo'ldingki, go'yo men qalbingda emas, qo'lingda edim. Bunday bo'l'maganida osonlikcha uvol qilmasding meni! Pul kabi! Ikkiga bo'lingan pul kabi!

Men seni „burni yong'oq, labi qahva finjoni“, deyman, sen esa „Ulama kiprik taqtiraman“, deysan.

Men senga „Qahva mendan, qirq yillik xotirlash sendan“ deyman, sen esa boshqa narsalarni xayol qilasan. Alloh biladi xayolingda neligini!

Gapirsam aybdor, gapirmasam iqror bo'laman.

Keyin esa noliyan, yaxshiroq tushuntira olmas miding axir, deya. Sevgi yaxshi tushuntirish bilan yashaladigan bo'lsa, sening sevgiling emas, borib o'qituvchi bo'lardim. Bir bolakayning daftariga yulduz qo'ysam, meni sendan kuchliroq yaxshi ko'rardi, ishon.

Qara, yulduz der ekanman, bir narsa xayolimga keldi. Samoga boqib, istagan yulduzimizni tanlaylik, nomiga esa sening ismingni beray. Sen esa „Yo'q sevgilim, u mehmonxona to'rt yulduzli edi, boshqa bormaylik!“ deysan.

*Eng boshidan xato qildik.*

*Men „Avvalim sen bo'lding, oxirim ham sensan“,  
deya xirgoyi qilaman.*

*Sen esa „U sen bo'lsayding koshki“, deysan.  
Ha, u men bo'lay, ha!*

## **SENI YILLAR EMAS, D'ARDLAR ULG'AYTIRADI**

Sensiz yashay olmasliklarini ta'kidlaganlar go'yo sen yo'qdek munosabatda bo'la boshlaganlarida va buni payqaganingda, ulg'ayasan!

Sen uchun jon berishini ta'kidlaganlar tarafidan ilk tahlikadayoq o'dirilganiningni anglagan kuning ulg'ayasan! Senga ular uchun juda qadrli ekaningni aytganlar nazdida zarracha ham ahamiyat kasb etmasligingni anglaganingda ulg'ayasan.

Bolalik payting tizzalaringda, tirsaklaringda ochilgan jarohatlarga rozi bo'lsan, ammo endi na bolaling bor, na o'sha jarohatlar. Eng yomoni esa, hayot bu yaralaringni o'pib, ovutadigan onang bo'lmasligi mumkin yoningda. Dadangni anglagan kuningda dadang hayotda bo'lmasligi mumkin.

Jarohatlaring malhamsiz qolganida anglaysan asl yetimlikni.

Yonog'ingni dadangning qadoq bosgan qo'li erkalamaganida anglaysan yetimlik nima ekanini. Yelkangdagi tog' go'yo qulagandek parcha-parcha bo'lganida azob beradi otasizliging.

Majbursan ulg'ayishga! Ulg'ayasan!

Vafoni bevafolik bilan yuzlashgan lahzangda anglaysan. Ishonchsizlik boshingga kelganida ishonching chil-parchin bo'ladi.

**Seni anglamaydilar!  
Sen uchun ko'zyosh to'kmaydilar!  
Senga bog'lanmaydilar!  
Sen uchun sabr qilmaydilar!  
Ulg'ayasan!**

Intihong nima bo'lishini o'ylay-o'ylay, istar-ista-mas qadam bosasan. To'xtab, fikr qilishni istaysan, to'xtaydigan joying bo'lmaydi. Har to'xtaganingda bosh-qasining yo'lida turib qolgandek sirtingdan itarila-san. Ko'z yoshlaringni ko'rsalar ham sababini bilish uchun ko'zlaringga qaraydigan kimsang qolmaydi at-rofingda. „Qaray olasizmi?“ deganlaring ko'r, „Tinglay olasizmi?“ deganlaring kar bo'lib qolaveradi. Seni sendan boshqa tinglaydigan insonni topa olmaysan.

Hayotga doir tuyg'u deya biriktirganlaring qato-rida neki bo'lsa, suv kabi kaftlariningdan oqadi-ketadi.

Qo'l-u kaftingda duodan boshqa narsa qolmaydi...

***Ulg'ayasan.  
Bilganlaring orasida neki bo'lsa,  
aslida bilganing kabi emasligini anglaysan kun  
kelib.  
Allohdan boshqa, hamma narsa...***

## BOLALIK PARDASI!

Boshlang'ich mактабда даftarlarimizning chetiga chizgan naqshlarimiz kabi edi pardamiz. Qolgan har tarafida gullar, butoqlar, o'tlar, yaproqlar kabi bezaklar bo'lardi, esladingmi? Balki bir foydasi bo'lgandir, balki yo'q, ammo shunchaki parda-ku, deya olmaysan. U mening butun bolaligimdir. Pechkaning kul to'la chelagini bo'g'il-a-bo'g'il-a tashqariga to'kkan yillarim-ga guvohdir u.

Omadimiz kelib, mandarin olsak, ustida uning qobiqlari va ichida hamisha issiq suv turgan kuvaning, yillarimning guvohidir u go'zal parda.

Qarshisidagi devorda yoki Shaxmaranning, yoki uch kiyikning surati bo'lgan gilamdir bolaligim.

Qish kunlarida tomidan suv oqqan va tomchi oqa-yotgan har yeriga chelak qo'yilgan uyimizdir bolaligim.

Bir burchagida nega yig'layotgani menga qoron-g'i bo'lgan onam bor ekan, orqasida „Hech kim meni topmasin“, deya yashiringan yillarimdir.

“Ona, sizga saroy olib beraman, har yeri oltindan bo'ladi“, degan yolg'onim, umidimdir.

Yonimda bo'lмаган dadamdir. Ota mavzusi men-da „bo'lмаган“, bori shu.

Yerdagi dasturxonimdir, plastik ko'зам, temir fin-jonimdir.

Yerdagi yotog'imdir. Ortga qaytmaydigan neki bo'lsa, o'shadir bolaligim.

Shomda yangragan azonimdir, bayram sabohimdir, hovlisida yuvilgan sochig'imdir.

Bozordan kelgan yaqinlarim, shakarli lavlagilarm, mahallada muzqaymoq va lavlagi sotgan tanishlarimdir.

Qur'on ta'limida kiygan do'ppim, maktab davrida „ustozim vafot etgani bois men sotgan asaldir".

Qochib ketgan quyonim, uni tutishga uringan kuchukcham, o'ynagan o'yinlarimdir.

Sensan o'sha parda. Sanab o'tganlarimning barchasi sensan, go'zal pardam.

Bu parda menman, sensan, u hammamiz!

## SENSIZ ILK KECHAM

Uyg'ondim, ammo yotog'imdan chiqmadim. O'tirgan joyimda taxminan yarim soat tikildim gilamga. Bolalik paytim gilamning ustida o'yinchoq mashinalarimni kezdirgan damlarimni esladim. So'ngra yana seni o'yladim, yo'qligingni o'yladim. Sensiz qolgan ilk kechamni, sensizlikda uyg'ongan ilk bugunimni.

Yuzimni yuvdim, ammo yuvinish xonasidan darhol chiqmadim. Ko'zguda o'zimga qaradim biroz, ammo aslo sen kabi emas. Sening bir inson yuziga ma'noli qaraganingdek qaray olmadim. Men ko'zguda ko'rayotgan yagona narsa sensizlik edi. Bir kechada ko'zlarim atrofida paydo bo'lgan chuqurlar ham. Sen ajin deb ataydigan chuqurlar. Sensizlikning ilk tongida yanada ko'paygandek edi, go'yo.

Nonushtaga hech narsa tayyorlamadim. Nonni istishga hojat ko'rmadim. Tuxum pishirish, hatto xayolimga kelmedi. Bu vaqt ichida nima qilganimni unchalik ham eslay olmayman, ammo nonushta qilma-gan bo'lsam kerak, deb o'playman. Ishim bo'lmasa ham ko'chaga chiqdim, biroq nega chiqqanimni bilmayman. Sening yoningga kela olmasligimni bilardim, ammo uyda ham o'tira olmadim. Uyimning eshigini qulf lashni unutibman hatto. Kamida sochlarim qadar betartib edim.

Ko'chadan o'tib ketar ekanman, ko'plab insonlar salom berdi, ammo javob qaytarmadim. Minibusda to'lovimning qaytimini sanamadim.

Kerakli joyda tushib qolgach, kechki taom uchun kelgan bu restoranimga qadar vaqt qayerda, qanday o'tganini anglamadim. Sen bilan ilk bor va keyin yana bir necha marotaba kelgandik bu restoranga. Sen „juda fayzli“ deya sevgan va bugun esa torlik qilayotgan restoranga.

“Yolg'izmisiz, janob?” deya so'ragan ofitsiant, sensizlikni menga eslatgan ilk ovoz bo'ldi. Dardimni yuzimga solgan, aqlimdan chiqmayotgan seni yana bir bor eslatgan ovoz.

Taomning tuzi, shirinliklarning ta'mi ortiqchadek tuyildi. Hatto suvning minerallari farqli edi, qoshiqning yaltirashi, atrofning yoritilishi, ichimdagi zulmat... Men qatorda hamma narsa totsiz, kam, farqli... Bu shaharda emasligingni bilaman. Shu bois shaharning ko'chalarida men ortiqchaman, sen esa kam.

Ertangi kun keladimi bilmayman, ammo kelgan taqdirida ham men qanchalar o'zimda bo'laman, buni ni nomalum. Yo'qligingda boshimga kelgan narsa o'lim emasdир balki, ammo hayot ekaniga ham unchalar ishongim kelmayapti.

Inson „hayotim“ deya chaqiradigan sevgilisini yo'qotgach, uning holati hayot bilan bog'lanmay qo'yadi.

Yo'qligingdagi „men“ kabi.

*Seni ko'rmagan har kunim  
hayotimga davomsizlik deya yozilsin.*

## **SO'NGGI BOR EMAS, SO'NGGI KO'RGANIM BO'LISHINGNI ISTADIM.**

Seni ko'rish emasdi bu, senga nazar solish edi.  
Hayrat bilan ilk bor ko'rayotgandek qaradim.

Ko'zlarim bilan chizdim siyratingni, qizlar kelinlik chog'ida gilamni to'qiganidagi kabi havas bilan, orzu bilan, umid bilan...

Men senga qo'l tekkizmay, ko'zlar bilan yaqin kelgan inson edim; sen ohista yetishganim eding...

Ko'zlarim muqaddas deya qarashi mumkin bo'lgan narsalardan biridek qaradim senga. Surbetlarcha tik boqmadim, ko'zlarimning qiri bilan qaradim. Sochlarningning uchiga qaradim, kipriklariningning uchiga.

Boshim, aqlim, qalbim, butun jismim uchun qo'nim topgandek quvonch bilan qaradim.

Necha kundir uyqusiz va ozuqasiz yo'llarda qolgandek, jon talvasasida qo'llaringga yiqlayotgandek tushdi nazarim. Meni qo'llaringda, qo'llaring bilan yashat deya yolvorayotgandek qaradim.

Shu yerdayoq jon bersam, mahshar kuni takror tirilgunga qadar orzularingga ko'milishni istayotgandek qaradim...

Uyg'ongach, yonimda ko'radiganim sen bo'lishingni tiladim.

Xoh dunyoning yangi kunida, xoh mahsharning ilk kunida...

## **“SEVDIM SENI, SENI SEVDIRGAN GUVOHDIR...”**

Hayotingni o'g'irlashni emas, menikini ham senga qo'shish uchun duolar qildim.

Hammasi tayyor edi, yagona kamchilik sening „Omin“ deyishing edi.

Sen ochgan qo'llarimga qo'nsang, men „Bismillah“ derdim va yuzingni yuzimga qo'yardim.

Quyosh seni keltirsaydi, shafaq seni yuborsaydi, shamol sen-la essaydi, dostonda isming yangrasaydi, qalbing meni sevsaydi, ko'nglim senga tushsaydi va sen yonimga kelsayding.

Hayot bu, ko'rish masofasi bir qancha qadamdan so'ng o'zgaradi, ko'zlaringga ehtiyojim bor.

Yura-yura charchaydi inson, tizzalarini tuta olmaydi, kuch berishingga muhtojman.

Hayot tashvishining to'foni tinadi, to'lqin misoli senga sig'insaydim, meni saqlasayding.

Sen bo'limganining uchun hayotim sas-sadosiz. Shovqin ko'targan janjallarim bo'ljadi, ichimdag'i kurasnhi hisobga olmasak. Na bir mакtabning intizom hujjatlariga, na bir shirkatda himoya qog'ozlari-ga, na politsiyada hisobotga aybdor degan qaydim tushdi. Na bir muvaffaqiyatga va na bir xatoga sababchi bo'ldim.

Na bir yo'lning o'rtasida, na bir maydonning bag'-rida himoya janggiga duch keldim. Qo'rkoqlik emas, o'z tanlovimga ko'ra chetda yashadim bu hayotni.

Sendan keyin sendan oldingisini unutdi xayolim va qalbim. Seni sevib o'zimni qadrli hisoblagan kundan beri dunyoga doir qadri bo'lgan hech narsa bilan yuzlashmadim. Ko'zguda ko'rghanim o'zim ham.

Nizolar ham faqat sen bilan bo'lishini istadim. Yo'qotgan paypog'im, taxlanmagan liboslarim, unutgan kalitim, sug'ormagan gulim, yopmagan pardam, yoniq qoldirgan yoritgichim sababli sen bilan janjalashishimizni istadim.

Qaysi birimizga o'xshaydi deya bahslasha olmaymiz ko'zlarini mendan, nigohlarini sendan olgan farzandimiz haqida. Qara, men sen sabab yig'lay olyapman, sen-chi?

*Boshimda ko'ksing,  
Ko'zyoshimda qo'ling,  
Tilimda isming,  
Urimda huzuring yetmay qoldi.  
Hamma narsaga ortiqchalik qildim, senga kamlik...*

**Sentabrda ketgandi.  
Sentabr ham keldi, lekin u kelmadı...**

## VAQTI KELDI, SEN KELMADING. OVOZIM CHIQMADI...

So'ngra seni so'radilar, shunchaki, odatdagidek, „Nima qilyapti“ kabi oddiy savol. Shunchaki qaradim anglamagandek, eshitmasligim kerak bo'lgan narsani eshitgandek qaradim. Kelmasligim kerak bo'lgan yerda turgandek turdim. Barmoqlarimni qirsillatdim, qiladigan boshqa ishim yo'qdek. Qo'limni tomog'imga olib bordim, yutinganim sezilmasin deya. Ma'nosiz nighoh bilan qaradim.

“Bilmayman“, deya olmadim.

“Ketdi“, deya olmadim.

“Ayrildik“, deyishga tilim bormadi.

Ayni vaqt edi chiqib kelish, eshikdan ichkari kiring, barcha savollarga javob berishning. Kelmading.

“Choy qo'ygandim, ichasizmi?“ – dedim.

Javobini kutmay, o'rnimdan turdim, choy bu, axir, ichiladi.

Angladilar.

“Ammo sizlar juda ajoyib edingiz“ dedilar, xunuk eshitildi bu jumla. Bizga oid bo'lмаган har qanday jumla singari xunuk.

Ketishing bilan faqatgina meni tashlab ketmading. Sabab qoldirmading, izoh qoldirmading, mantiqli deyish mumkin bo'lgan bir jumla qoldirmading.

Ortingda faqat meni qoldirib ketding, javobni esa hech bir alifbodan topa olmayman.

*So'ng'ra Zeki Murenning qo'shilq'i atrofoda  
yangradi:*

*"Qayerlarda, kim bilar, oshiqdir, Allah bilar", – dedi.  
"Umid qilamanki, unday emas", – dedim ichimda,  
ammo qo'shiq atayin qilgandek davom etardi.  
Takror va takror.*

## **YASHAYOTGAN BO'LSAK-DA, HAYOTDA EMASMIZ**

Boshdan oyoq ayni yaralarga duch keldik. Ayni hayotdamiz, ammo farqli yashaymiz. Yagona umumiy nuqtamiz barchamiz jarohat olishimizdir. Hech birimizning ko'nglimiz to'limgan va shuni anglab yetishi-miz kerakki, dunyo ko'nglimiz to'lishi mumkin bo'lgan joy emas. Inson yolg'izlikdan xalos bo'lish uchun kim-nidir hayotiga olmaydi. Barcha tanishuvlarimiz yangi yolg'izlik tomon yetaklashdan nariga o'tmaydi. Qo'li-ni yelkamizga qo'yib, „Shu yerdaman“, deya oladigan-lar bor, ammo ularni qabul qilish bu hayotni ixtiyoriy ravishda tugatishga intilishga teng.

Aslida hech kim hech kimga oid emas. „Seni aslo tashlab ketmayman“, deydiganlar boshqa hayot sari shoshadi. Kunduzi bizni chalg'itadigan ming narsa topilar ekan, kechasi boshimiz kaftlarimiz orasiga ya-shirinadi.

Unutdik. Sababi bo'lgan hamma narsani. Yashash-ga emas, hayotni yakunlashga urinyapmiz. Maqsad deya nimani belgilagan bo'lsak, shunchalar berilib ket-dikki, yo'lning huzuridan mahrum bo'ldik.

Vaholanki, shaharlararo safarlarning eng shohna bekti yana qachon kelishimiz mavhum bo'lgan hordiq makonlari edi. Ayniqsa, „Choy bizdan“, deya mehmon qilgan odamga duch kelsak, qalbimiz yana-da isinardi.

Yo'limizdan chiqqan qishloqlarga qarab „Qiziq,  
bu yerda qanday yashar ekanlar“, deya ham so'radik,  
ham havas qildik. Ham charchatdik, ham charchadik.  
Jismimizni yotoqqa mahkum etib, haqqimiz bo'lgan  
uyquni kechadan olishga urindik, biroq ruhimizning  
charchog'i ketmadi. Boshimizni yostiqdan ko'tarayot-  
gandek emas, bir yukning ostidan chiqayotgandek  
ko'tardik jismimizni yangi kun tomon, eskirmagan  
charchoq va tashvishlar bilan.

*Tashqaridan nazar solganlarga  
yashayotgandek ko'rindik,  
ammo bizning holatimiz hayot emasdi.  
Hanuz jon bermadik, xolos...*

## **YASHAYAPMAN DEMA, SENIKI SOXTA HAYOT!**

Sen ham hamisha yakunlashga moyilsan. Har bir inson kabi. Kunni yakunlashga, tunni yakunlashga, qo'lingdagi ishni yakunlashga, maktabni yakunlashga, ish soatingni yakunlashga.

Hatto ta'tilga chiqqaniningda ta'til qanday o'tishini emas, necha kun davom etishini hisob qilasan.

Sevganing bilan uchrashganiningda qancha vaqtি borligini so'raysan. Yoki sening qancha vaqting borligini unga ma'lum qilasan.

Bir emas, qirqta ish topasan, ammo „Ishim bor“ degan bahona bilan bиргина onangni ziyorat qilishni ham keyinga surasan.

Zero, hayotda o'zingga ham vaqt ajratmaysan, onanga ajratarmidинг?!

Qachondan beri oyoqlaring loydan, yuzing yomg'irdan, burning o'z qo'llaring bilan to'plagan gullar iforidan mahrum.

Baxtli deb o'ylasinlar deya kular ekansan, baxtdan ko'zyosh to'kishning lazzatini balki yillardir his etmayapsan. Chunki seni ko'zyosh to'kayotganiningda ko'rishlariga yo'l qo'yamading. Hatto ko'zyoshlarинг oqa boshlaganida qo'ling bilan artding, u tuyg'uni qo'llaring bilan itarding. Hech bir notanish bolaning boshini bunday sababsiz silamagansan. Hatto taniganingni ham.

Isitgichdan suv olar ekansan, bolta bilan o'tin o'r-ganda qo'lda qoladigan jarohatlarni balki boshdan ke-chirmagandirsan. O'z qo'llaring bilan pechkaga solgan o'tinlarining chitirlashini kim biladi quloqlaring ne-cha yildan beri eshitmagan.

Samovarda sotib olingen choylardan tashqari, bir daraxt ostida yerga dasturxon yozib, choyni sevganla-ring bilan o'tin otashida damladingmi hech? Damla-mading.

Yetti yulduzli bo'lgani sababli qolishdan mamnun bo'lgan mehmonxona xonalariningda, quyosh kirmasin deya derazalariningni qalin baxmal pardalar bilan yopar ekansan, million yulduzli samo ostida, shamolga yuz tutib uxlamading hech.

Hayoting davomida umuman ko'rmaydigan inso-ningdan „Yaxshimisan“, deya so'ramading. U insonga notanish kimsa tomonidan hol-ahvoldidan xabar olini-shining quvonchini ham, hayratini ham yashatmading.

Sendan „Yaxshimisan“, deb so'raganlarida ham „Yaxshiman“, deya yolg'on gapirishdan chekinmading. Kimdir so'ramasa, aslida ahvoling qanday ekanini o'y-lamading, yaxshimanmi deya ko'zguga qaramading hech. Ko'zguga qaraganingda sochingni, ko'ylagingni, seni o'rab turgan hamma narsani ko'rding, qarading, ammo o'z ko'zlariningga qaramading.

Yanada keng uylarga ko'chib yoki sotib olib, yana-da katta devorlar senga bosim qilishiga yo'l ochib ber ding.

Baxtni faqatgina she'rlar, romanlar yoki eski film-larda bor deb o'ylading. Hayotda esa hech tanimading, hamisha qochding.

Mahrum bo'lish bilan kambag'al bo'lish orasidagi

tog'lar qadar farqni payqamading ham. Mahrum bo'-lish-qo'lga kiritish uchun fursat bo'la turib topa olmaslikdir, kambag'allik esa bor bo'la turib olishga kuch yettira olmaslik edi, ammo sen ehtimollarni ko'zdan qochirding.

Mashinang, uying, bir qancha rangli poyabzalla-ring, kamaring... Bittaga kammi yoki ko'pmi, „Bo'lma-sa ham mayli“, deya yashay olmading.

Inson emas, ismlar yig'iladi hayotingda. Telefo ningdagi raqamlar ro'yxatida yuzini eslay olmaydiga-ning va „Bu kim edi“, deya o'ylaganlaring bo'ladi bu ismlar. Bayram kunlari raqamlar ro'yxatingda saqlan-magan, ammo bayraming bilan qutlagan raqamlar bo'-ladi. E'tibor qil, inson emas, raqam!

Kimningdir tavallud sanasini yodingda tutishga, unutmaslikka harakat qilar ekansan, bir paytlar ha-yotiga kirganing yoki sening hayotingga kirgan inson-ning qachon vafot etganini hatto eslamading.

Kimdir senga taqdim etgan qo'shiqlardagi tuyg'u-ni qat'iyat bilan izlashga urinding. Tuyg'usi kam bo'l-gan doston yoki she'rni yod olmading.

Odatiy hissiy holatingni boshqalar baham ko'rgan so'zlar bilan ifodalashga urinding.

Kim nima o'ylayotganiga chindan ham qiziqmaga-ning kabi, sen ham nima o'ylayotganining „Xayolingda nima bor“, deya Facebook dan boshqa so'raganlar bo'l-madi. Zero, u yerda ham boshqalar nima fikrda ekan, deya o'ylaganing sababli baham ko'rding.

“Mening fikrim” deganlaring aslida boshqalarning fikrlari edi. Yangi yo'llarni kashf etish o'rniغا izlarni ta'qib etishdan boshqa yechim topa olmading. Yagona himoyachisi sen bo'lgan narsani yolg'iz qolgan holda

himoya qilishni, o'sha narsa uchun tik turishni uddalay olmading. Shunday fikrda bo'lgan insonlarni topib, ularning orasiga qo'shilishni afzal ko'rding. Ovozing chiqmadi. Chiqqan taqdirda ham ovozingdagi so'z seniki emasdi.

"Nimang bor?" deb so'rالganida aqlingga ko'chmas mulk yoki bebahodeya nomlagan mashinang keldi.

Ichingdagilarni bir mutafakkir so'zi yoki do'stingning ifodalari bilan so'zlading, sening so'zing, sening ifodang bo'ljadi.

Hayotingning kun yakuni hisobotida qo'lingda qoladigan yagona narsa nima, bilasanmi?

Ortga o'girilib qarashni ham istamaysan hatto. Chunki ortda qoldirgan yagona narsang, yashab o'ta olmaganlaring bo'ladi va sen bu bilan yuzlashishni istamaysan. Nima bo'lganining hech qanday ahamiyati yo'q, ega bo'lish uchun yillaringni yo'qotganingga doir haqiqatni anglaganingda o'sha onning sahari yoki oqshomiga umring, nafasing yetmaydi.

Qanday nihol bo'lisingni bilmay kutding ko'milgan yeringda,

*Na novda bo'ldi sendan, na chechak.*

*Na yolg'on bo'lding, na haqiqat*

*Sen yashamading, vaqt o'tkazding faqat.*

## TA'BIRI JOIZMAN

Ne ta'birim bo'lsa, barchasi joiz,  
Tashbehlarning bari xatosiz.  
E'lom kabi oydinman, bordir guvohim  
Men juda charchadim, Allohim...

Ba'zan o'layman, uzoq o'layman,  
Ayni yerdan necha bor yaralanar inson?  
Illo sabrim yo'q, ammo bilaman  
Sabr makonida men ham yo'qdirman.  
Charchoq ham charchaydimi jismdan, Allohim?

Yo'Ining o'rtasida arosatdaman,  
Yo'l emas balki, qadamlarim bitdi.  
Bir qolgan insondan qancha inson ketdi,  
Olamni sen yaratding, Allohim, bilguvchisan  
Ayt-chi, qalbdan ketganlar qaysi qalblarga kirdi?

Peshonamga yozilgan taqdirda bilmam  
necha bo'lim bor,  
Har satrning boshida boshimga bir balo bor.  
O'z holimcha dunyoga shunchaki boqar edim,  
Surma surgan ko'zlari ko'zlarimga guvoh edi.  
Titragan yaproq kabi to'kilishga mahkum edim,  
Kechirarman o'zimni, u ham oshiq deb o'ylagandim.

Hayot bu, neler olar, ammo uni qaytarmaydi,  
Balki ko'p narsa o'zgarar, ammo men o'zgarmayman.  
Sevganlarim sirasida hamisha u qoladi,  
Anglab yetdim Allohim, kut deganlar kelmaydi.  
Ketishni istayman, ammo  
Kelaman degan kelmaydi.

Qaror qildim Allohim, endi qaror bermayman,  
Men qanday insonmanki, u yo'q deya mahv bo'ldim.  
Men hayajonim-la qolay, u yoshdir, kechir uni  
Allohim, Senga ma'lum, Sen yaratguvchisan,  
Haddimdan oshsam agar olaman jazomni.

## YO'LIMDA EMASMAN

Sen bilan yo'llarimiz ayrılishini anglagan zahotim  
bir chorasińi topishga oshiqdim. Men ikkimizga doir  
yo'l izlar ekanman, sen meni bir yo'lda yolg'iz, sen-  
siz, manzilsiz, yo'siz tashlab ketding.

So'nggiga qadar sen bilan yuramiz deya o'yLAGAN  
va ishongan yo'llarimda yolg'iz qoldirding meni, be-  
vafo! Yo'qligingda aqlimni boshqa, yuragimni boshqa  
tarzda ovutishga urindim. Seni sen uchun urayotgan  
yuragimdan chiqarib tashlash, seni o'yashdan to'xta-  
mayotgan aqlimni nohaqqa chiqarish uchun necha  
kun sarfladim, xabaring yo'q Yo'lning qiymati borli-  
ging bilan belgilanardi, endi esa yo'lni murakkab, me-  
ni qiymatsiz qoldirib ketding. Uyquga ketganingda  
senga termilishni orzu qillardim, ammo endi uyqular  
menga termilmoqda. Har ko'zimni yumganimda keti-  
shingdagi qadamlar uyg'otmoqda meni. Ko'zlarim us-  
tidan yurayotgandeksan go'yo.

To'xtadim, yo'lning bir chetini boshpana qildim.  
Na ortga qaytish uchun g'ayratim, na so'nggiga qadar  
borish uchun niyatim qoldi.

Butun g'ayratimni to'plasam va takroran yo'lga tu-  
tish niyatim bo'lsa, sen yo'qsan, yo'l sendan mahrum.

Hammasi yaxshi, mendan boshqa.

*Ketayotganingda so'ramading, ammo hech  
qanday istagim yo'q, sog' bo'l. Go'zal kunlar kelsa,  
meni kutmasinlar, men kelmayman.  
Nima uchun yo'lga tushgan bo'lisingdan qat'i  
nazar, yo'ling ochiq bo'lsin.*

## MENI GO'ZAL XOTIRLA...

Takror qo'llanishi qat'iyani taqiqlangan jumlalarni yaratish kabi. „Seni sevaman“, deyish yo'q. „Seni juda sog'indim“, deyish yo'q. „Qayerdasan?“, „Boramizmi?“, „Qolamizmi?“, „Ketamizmi?“ deyish yo'q. Umumiylar qarorlarda tutashish yo'q. Qarorlarga doir fikr bildirish ham yo'q hattoki. Sevishganlar ekanimizga doir hech bir jumlan, so'zni, bo'g'inni, hatto harfni qo'llash yo'q endi.

Nega? Chunki biz ayrildik.

O'zaro kelishuv asosida olingan ayrılıq qaroridan so'ng ayrılishdan oldin nima deyish yoki qilish mumkin bo'lsa, ularni aytish yoki qilish yo'q endi.

Mumkin emas. Chunki biz ayrildik.

Ha, sen tilingni tiyanan. Men ham sen sababli indamayman. Bir-birimizni sevishda davom etsak ham buni bir-birimizga aytish mumkin emas.

Seni bilmayman-u, lekin men seni ko'rsam jim tura olmayman. Seni ko'rsam sevishimni aytmay turolmayman. Seni sevishimni hatto sen bo'imasang ham aytaman. Sen eshitmaysan endi, xolos.

Qo'limizda qolgan yagona narsa o'zaro „Sen yaxshi insonsan“ jumlesi bo'ldi. Sevishganlar ekanimizdan tashqari neki bo'lsa, bir-birimizni o'zaro maqtadik va ayrildik. Sevgi masalasida yomon edik, ammo insoniyligimizga yetadigani yo'q. Insoniyligimiz yo'qmasini! Yashab o'tganlarimiz hurmati haqqi bir-biri-

mizni ranjitmaslik uchun harakat qilganimiz sari oz-  
ozdan chil-parchin holda tashlab ketdik bir-birimizni.  
Chunki boshimizga kelishidan qo'rqqan narsamiz tili-  
mizda yangradi: biz ayrildik...

Yana bir bor sinab ko'rishga doir taklifimga javo-  
ban „Vaqt uvol ketadi“, – dedi.

“Hanuz sevaman“, – dedim.

„Bilasan, vaqt o'tgani sari sevging ham o'tib ke-  
tadi“, – dedi.

“Sen ham sevasan, buni bilasan-ku“, – dedim.

„Iltimos, vaziyatni yanada murakkablashtirma“, –  
dedi.

“Ikkimiz uchun ham afsuslanadigan ish qilyap-  
san“, – dedim.

Nimadirlar dedi, anglamadim.

Shunchaki gapni burgan bo'lsa kerak.

Mening qo'limdan kelmadi, ammo o'rnidan birinchi  
turib, ketgan u bo'ldi.

Stolda turgan bo'sh finjon kabi qoldim.

U qolmadi, ketdi.

*Ketayotganida „Meni go'zal xotirla“, – dedi.  
Agar eslasam, mayli!*

**Atrofim sensiz.  
Kel, qo‘rqma.  
„Kel“, deb ayt...**

## **QAYDLAR UCHUN**

## **QAYDLAR UCHUN**

## **QAYDLAR UCHUN**

Mehmet Erjan

*Sen mening*

**QALBIMDASAN**

**Bosh muharrir M. Nishonboyeva**

**Dizayner rassom A. Hikmatov**

**Musahhih M. Boymatova**

**Kompyuterda sahifalovchi Sh. Axrorova**

**Nashriyot litsenziya AA № 2549. 28.03.2022**

Toshkent shahar, Chilonzor tumani,

Bunyodkor ko'chasi, 44A-үй

Bosishga ruxsat etildi: 05.04.2023. Bichimi: 84×108 1/<sub>32</sub>.

Ofset bosma. «Cambria» garniturası.

Bosma tabog'i: 11. Adadi: 3000. Buyurtma: 23-18

**„Dizayn-Print“ MChJ O‘lChK bosmaxonasida chop etildi.**

Manzil: 100054. Toshkent shahar,

Cho'pon ota ko'chasi, 28-a uy.

**„Xasanov Farxod“ YTTda muqovalandi.**

Manzil: 100054. Toshkent shahar,

Cho'pon ota ko'chasi, 28-a uy.